



Scientific Journal
**RESEARCH
AND EDUCATION**



ISSN: 2181-3191

Scientific Journal Impact Factor: 5.789

- Economics
- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Medical Sciences
- Arts and Culture
- Technical Sciences
- Philological Sciences
- Pedagogical Sciences
- Psychological Sciences
- Social Sciences and Humanities


2023/9

VOLUME 2, ISSUE 9

RESEARCHEDU.UZ
RESEARCHEDU.ORG



ISSN 2181-3191
VOLUME 2, ISSUE 9
SEPTEMBER 2023



<https://researchedu.org/>

“RESEARCH AND EDUCATION” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 2, ISSUE 9, SEPTEMBER, 2023

EDITOR-IN-CHIEF

X. Idrisov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana State University

EDITORIAL BOARD

I. Urazbayev

Professor, Doctor of Biological Sciences, Gulistan State University

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kamarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

A. Juraev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Agency of the Republic of Uzbekistan for Plant Quarantine and Protection, Head of the Andijan Regional Department

A. Turdaliev

Associate Professor, Doctor of Biological Sciences, Fergana State University

N. Mamadjonova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

M. Rakhmonova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

U. Mirzayev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

A. Rasulov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

B. Khasanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

ORGANIK YOQILG'INI YOQISHDA ATROF-MUHITGA ZARARLI TA'SIRINI BAHOLASH

т.ф.н I.Muradov,
ст.прль I.Fayzullaev

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tutun gazlarida uchraydigan turli xil qo'shimchalarning ziyonlilik ta'sirini yig'ish va solishtirishga imkon beradigan alohida ko'rsatkichlarni aniqlash masalalari keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

Данным статие показано свойства горючих материалов очистить разные вредные вещество из дутевых газов.

Tayanch so'zlar: *uglevodorodlar, zaruriyat, texnologiyalar, qo'shimchalar, ziyonlik, konserogen, mazutni oqizish, yig'ish.*

Organik yoqilg'ilarning yonish mahsulotlari tarkibida har xil miqdorda turli xil qo'shimchalarga ega ifloslantiruvchi moddalar bor. Ular orasida: uglerod, azot va oltingugurt oksidlari, vodorod sulfid(H_2S), qorakuya (saja) hamda har xil uglevodorodlar, benz(a)piren ($C_{20}H_{12}$), mikroelementlar va boshqa zararli qo'shimchalar hosil bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda energetik yoqilg'ilarning sifatini tavsiflash uchun ularning atrof-muhitni ifloslanishiga nisbatan har xil iflosliklarning miqdor yig'indisi hamda uning zaharliligini inobatga oluvchi bitta ko'rsatkich qiymati bilan foydalanishiga zaruriyat bo'lishi mumkin. Bunday ko'rsatkichga talab, energetik yoqilg'ilarning hozirgi narxlariga qo'shimcha koeffitsiyentidan kelib chiqadi. Energetik yoqilg'ilarning hozirgi narxlari ularni qazib olishga yoki tashilishiga sarflangan xarajatlarga asoslangan. Ammo, keyinchalik energetik yoqilg'ilarni narxlashda ularning ziyon keltiruvchi ta'sirini inobatga olgan holda o'rnatilishi lozim bo'ladi. Issiqlik elektr stansiyalarda bitta yoqilg'ini ikkinchisi bilan almashtirishda atrof-muhitni himoyalash nuqtayi nazaridan xuddi shunday ko'rsatkichdan foydalanishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, bunday zaruriyat oltingugurtni ushlab qolish usullaridan samarali qo'llanishni taqqoslab baholash uchun bunday ko'rsatkichga asoslanadi.[1].

Qo'llanayotgan texnologiyalarga ko'ra har xil zararli qo'shimchalar, masalan, oltingugurt (iv) oksidi va azot (iv) oksidi har xil darajada ushlab qolinadi, ayrim

hollarda esa atmosferaga tashlanishdan avval tozalash natijasida mo'ridan chiqib ketayotgan ammoniy tuzi bo'lmagan gazlarda, gazlarni ammiak bilan tozalash natijasida paydo bo'ladi. Bularning hammasi ziyonlik yig'indisiz oltingugurt ushlanishining turli xil usullarini taqqoslash uchun tozalashda, sanitar samaradorligini o'rnatishda nisbatan qiyin bo'ladi.

Ziyonlilik yig'indisining ko'rsatkichi energetik yoqilg'i va ularning yonish mahsulotlari uchun alohida ziyonlilik ko'rsatkichlarining yig'indisi bilan ifodalanishi mumkin bo'ladi. Yoqilg'ilarni yonish mahsulotlarining zararli qo'shimchalarining kelib chiqishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: birinchi guruh. yoqilg'i tarkibi asosida yetarlicha aniqlik bilan belgilanadigan va uning yoqish texnologiyasiga kam bog'langan yoqilg'ilarning yonish mahsulotlari zararli qo'shimchalardan iborat. Bu birinchi guruhga oltingugurt (iv) oksidi, uchuvchan kul, vannadiy birikmalari hamda yoqilg'i yonishida kul tarkibiga o'tib ketgan boshqa qo'shimchalarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh. Faqat yoqilg'i tarkibi asosida emas, balki ko'pincha keng miqyosda texnologiyaga va yoqilg'ini yoqish tarkibiga ko'ra, ya'ni quyidagi omillarga: bug' generatorining quvvatiga, yoqilg'ini yoqishga tayyorlash usuliga, o'txona qurilmasining konstruksiyasiga, ortiqcha havo va boshqalar bilan yonish mahsulotlarida hosil bo'lgan zararli qo'shimchalarga bog'liq bo'ladi. Bu guruhga azot oksidlari, uglerod (ii) oksidi (CO) va yoqilg'ilarning chala yonishidan hosil bo'lgan boshqa mahsulotlari: vodorod sulfid (H_2S) va konserogen moddalarni kiritish mumkin. Bu moddalarning atmosferaga tashlanishi yuqorida keltirilgan omillarga qarab keng oraliqda o'zgarishi mumkin va shuning uchun tajriba ma'lumotlarini jalb qilmasdan turib hisoblash yo'li bilan aniqlash mumkin emas. Uchinchi guruh. yoqilg'i yonishidan emas, balki boshqa sabablarga ko'ra, masalan: ko'mir omborxonalarining va kul tashlash joylari to'zgi'ishidan; temir yo'l sisternalaridan mazutni oqizish tizimlaridan uglevodorod bug'larining ajralib chiqishidan; chang tayyorlash tizimlarida ko'mir kukunining mayin fraksiyalaridan ko'mir changlarining ajralib chiqishidan va boshqalardan zararli moddalarning miqdoridan ancha kam, ularni hisoblash qiyin va shuning uchun keyinchalik bularni inobatga olmasa ham bo'ladi. [2].

Tutun gazlarida uchraydigan turli xil qo'shimchalarning ziyonlilik ta'sirini yig'ish va solishtirishga imkon beradigan alohida ko'rsatkichlarni aniqlashda quyidagi tavsiyalardan foydalanish mumkin: ziyonlilik yig'indisini tavsiflaydigan ko'rsatkichni hisoblashda miqdoriy nisbatda shartli yoqilg'ilarga keltirish lozim. Ularning zaharliligi esa ushbu qo'shimchani eng yuqori ruxsat etilgan konsentratsiyasi kulning eng yuqori ruxsat

etilgan konsentratsiyasiga nisbatan ifodalanadi. Shunday qilib, ziyonlilik yig'indisini tavsiflaydigan ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, atrof-muhitni himoyalashga solishtirma sarflar shuncha yuqori bo'ladi. Bularning hammasini Issiqlik elektr stansiyalarini loyihalashda, ishga tushirishda, uning quvvatini oshirishda hamda kengaytirishda inobatga olish zarur.[3].

Tutun gazlarida uncha ko'p bo'lmagan miqdorda (0,3% dan kam) oltingugurt oksidlari bor. Oz miqdorlarda SO_2 dan xalos etilishi ancha qimmat turadigan tozalash qurilmalar qurish zarurligi bilan bog'liq bo'ladi: bunda belgilangan quvvatning narxi 30—40%ga, ishlab chiqarilayotgan energiyaning tannarxi esa 15—20%ga ortishi mumkin. Oltingugurt tozalash qurilmalari uchun eng oddiy va eng arzon material bu ohak (CaO) va ohaktosh (CaCO_3) dir tozalanayotgan gaz skrubberda ohakli suv bilan yuviladi. bu usul bilan tozalashda foydalanishga kerakli mahsulotlarni olish ko'zda tutilmaydi va olingan moddalar to'g'ridan to'g'ri tashlash joylariga yuboriladi. Oltingugurt oksidlaridan tozalashning qator usullari ishlab chiqilgan, ulardan hosil bo'lgan mahsulotlardan sotuvga tayyor sulfat kislotani ishlab chiqarishda foydalaniladi, reagentlardan esa qayta foydalaniladi. Bu kabi usullarga sulfitli, ammiak-sikli, magnezitli usullar kiradi. Oltingugurt oksidlaridan tozalash usuli asosan texnik-iqtisodiy hisoblari nuqtayi nazaridan tanlanadi. bir narsani inobatga olish lozimki, oltingugurt tozalashning hamma taklif qilingan usullarining qo'llanishi, IESlarni qurishdagi kapital sarflarni va ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning narxini keskin oshirib yuboradi.

Agar oltingugurt oksidlarining hosil qilinishi dastlabki yoqilg'ida oltingugurt miqdori bilan belgilansa, azot oksidlarining hosil qilinishi esa har qanday yoqilg'ini yoqishda o'txonaga berilayotgan havo tarkibidagi azotning oksidlanishi hisobiga amalga oshiriladi. O'txona gazlarida azot oksidlarining ko'p miqdorda hosil bo'lishi yuqori quvvatli bug' qozonlarining yonish yadrosidagi yuqori haroratlarda sodir bo'ladi. azot oksidlarining hosil qilinishiga o'txonaga berilayotgan ortiqcha havodagi kislorodning miqdori ham katta ta'sir etadi. azot oksidlarining qisman hosil qilinishini kamaytirishga, yonish zonasida eng past haroratda va ortiqcha havoning kamligida yoqish jarayonining tashkil qilinishi bilan erishish mumkin.[4].

Organik yoqilg'ilarning tarkibidagi eng zaharli va atrof muhitga zararli ta'sir etadigan element — bu oltingugurtdir. Oltingugurtning yoqilg'ildagi miqdori turlicha bo'ladi. Bu yoqilg'ilarning turiga, olish usuliga, qayta ishlanishiga va boshqa omillarga bog'liq atmosferaga tashlanayotgan oltingugurtli birikmalar miqdorini kamaytirishning asosiy usullariga kam oltingugurtli mazutni olish maqsadida, neftni qayta ishlash korxonalarida, neftli yoqilg'ini oltingugurtdan tozalash, iesning o'zida suyuq va qattiq yoqilg'ilarning chuqur ishlanishida gaz yoqilg'ilarni olish va keyin ularni oltingugurt birikmalaridan tozalash, bug' qozonlaridagi tutun gazlarini oltingugurt birikmalaridan tozalash kiradi.

Neftni qayta ishlash korxonalarida neftni haydashda yengil fraksiyalarga oltingugurtning uncha asosiy bo'lmagan miqdori o'tadi, uning ko'p qismi esa (oltingugurt birikmalarining 70—90%) yuqori qaynaydigan fraksiyalarda va mazutning tarkibiga kiruvchi qoldiq mahsulotlarda to'planadi.

Neftli yoqilg'ilarning oltingugurtdan tozalanishi neftni qayta ishlash korxonalarida gidrotozalash usuli yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda vodorod organik birikmalardagi oltingugurt bilan birikib, vodorod sulfid (H_2S) ni hosil qiladi va ushlab qolinadi, oltingugurt va uning birikmalarini olishda undan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu jarayon 300—400°C haroratda, 10 mpa gacha bosimda, molibden, kobalt va nikel oksidlari katalizator sifatida qo'llanib, amalga oshiriladi. Hozirgi paytda distillyatli fraksiyalarni gidrotozalash usuli yetarlicha o'rganilgan va iqtisoiy jihatdan samaralidir.

Yoqilayotgan yoqilg'ida oltingugurt miqdorini kamaytirishni IESning o'zida amalga oshirish mumkin, buning uchun u bug' qozonga yuborilishidan avval yuqori haroratda oksidlanuvchi ishtirokida (gazlashtirish) yoki usiz (piroliz) ishlov beriladi. gazlashtirish jarayoni yuqori harorat sharoitida (900—1300°C) kislorod chegaralanganda amalga oshiriladi. yonish natijasida gaz hosil bo'ladi, uning yonuvchi elementlariga metan va uning birikmalari, uglerod oksid va vodorod kiradi. bunda yoqilg'ining oltingugurtdan vodorod sulfid H_2S hosil bo'ladi, u (SO_2) ga ko'ra ancha faol modda bo'lib, bug' qozonining o'txonasiga yonuvchi gazning kirishidan avval xalos etilishi mumkin. Bug' havo puflanishida 4,5 mj/m^3 atrofida kichik yonish issiqligiga ega bo'lgan gaz olinadi, nisbatan qimmat bug' kislorodli puflanishda esa yonish issiqligini 12 mj/m^3 gacha oshirish mumkin bo'ladi. yoqilg'ining energotexnologik kompleksida ishlatilishida yoqilg'idan kimyoviy xomashyo va sof energetik yoqilg'i

olish maqsadida mazutning termik parchalanishi uchun yuqori haroratli pirolizdan, keyinchalik esa qattiq yoqilg'ini (neftli koksni) gabsizlantirishdan foydalaniladi. [].

Mazutning pirolizi 700—1000°Cgacha oksidlanuvchi ishtirokisiz qizdirilishida amalga oshiriladi. bunda hosil bo'lgan yonuvchi gaz oltingugurt birikmalaridan va boshqa zararli qo'shimchalardan tozalanadi va sof energetik yoqilg'i sifatida ishlatiladi. suyuq kondensatlangan smola mahsulotlari kimyoviy xomashyo sifatida ishlatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Axmedova E, Saydalimova Z. O'zbekiston Respublikasi qisqacha ma'lumotnoma. T.O'zbekiston 2006.
2. Nabiyev E, Qayumov A O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. T "Universitet" 2000-y.
3. Toirov O.Z., Alimxodjayev K.T., Alimxodjayev SH.K. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. -Toshkent.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.
4. Розенгарт Ю.И. Вторичные энергетические ресурсы черной металлургии и их использование. - К.: " Высшая школа", 2008г. - 328с.

СУД ТИЗИМИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Тоқсанбаева Айжамал Манғытбай қызы

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Юридика факультети талабаси

Аннотация: Мақолада суд тизимида мавжуд бўлган коррупциявий ҳолатларнинг судьялар мустақиллигига салбий таъсири, суд тизимидаги коррупцияни келтириб чиқарувчи омиллар, уларнинг турлари, коррупцияга қарши курашиш ва унинг олдини олишнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари, коррупцияга қарши курашишнинг самарали чоралари, коррупцияга қарши курашишда судьяларнинг ҳисобдорлиги, судлар фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлашнинг аҳамияти масалалари ёритилган, бу соҳага оид халқаро ва хорижий ҳуқуқ нормалари ҳамда миллий қонунчиликнинг илмий-назарий таҳлиллари келтирилган. Таҳлил ва тадқиқотлар натижаларига кўра, миллий қонунчиликка ижобий таърибани жорий этиш ва уни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: суд тизимидаги коррупция, суд тизимидаги коррупциявий омиллар, суд тизимида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича чора-тадбирлар, судлар фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлиги, судьялар ҳисобдорлиги.

Аннотация: В статье рассмотрены негативное влияние коррупции в судебной системе на независимость судей, факторы, вызывающие коррупцию в судебной системе, их виды, организационно-правовые вопросы противодействия и предупреждения коррупции, эффективные меры по борьбе с коррупцией в соответствии со спецификой судебной деятельности, отчетность судей в борьбе с коррупцией, актуальность обеспечения открытости и прозрачности судебной деятельности, проведен научно-теоретический анализ норм международного и зарубежного права, а также национального законодательства в данной области. По результатам анализа и исследований были внесены предложения и рекомендации по внедрению положительного опыта и совершенствования национального законодательства.

Ключевые слова: коррупция в судебной системе, факторы коррупции в судебной системе, меры по предотвращению и борьбе с коррупцией в судебной системе, открытость и прозрачность судебной системы, отчетность судей.

Abstract: *The article examines the negative effect of corruption to the independence of judges and judicial system; factors, causing judiciary corruption; their types; organizational and legal aspects of combating and prevention of corruption; Anti-corruption measures, specifically deriving in accordance with peculiarities of the judicial system; reporting of judges; the raising needs in ensuring the transparency and openness of judicial activities; related international and foreign legislative laws; followed by analyzing the scientific and theoretical aspects of national legislation regulating the issue. Based on the results of analysis and research, the recommendations and proposals will be formulated with the aim of implementation of positive experience to the national legislation.*

Key words: *corruption in the judicial system, factors of corruption in the judicial system, measures to prevent and combat corruption in the judicial system, openness and transparency of the judicial system, reporting of judges.*

Суд тизимида коррупция омилларининг мавжудлиги, унинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича етарли ташкилий ва ҳуқуқий асосларнинг яратилмаганлиги суд органлари ва судьялар мустақиллигига салбий таъсир кўрсатади, одил судловни амалга оширишда ички ва ташқи аралашувларга замин яратади, нопок ва номуносиб судьялар корпуси шаклланишига сабаб бўлади.

Суд тизимидаги коррупция судьянинг шахсий манфаатдорликни кўзлаб, моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида ўз ваколатларини суиистеъмол қилишидир. Коррупциявий хатти-ҳаракатлар асосан манфаатлар тўқнашуви оқибатида содир этилади. Манфаатлар тўқнашувининг мажбурий белгиларига судьянинг муайян вазиятда ўз мансаб ваколатларини суиистеъмол қилиши, бунинг учун моддий ёки номоддий манфаат олганлиги ёки олиши мумкинлиги ҳамда улар ўртасидаги сабабий боғланиш киради. Шунга кўра, манфаатлар тўқнашувида судьяда ноҳолис қарор чиқариш ва қонуний ҳаракат қилиш ўртасида танлаш имконияти бўлади. Ушбу имкониятнинг қай бирини танлаш эса, судьянинг ахлоқий фазилатларига бевосита боғлиқ бўлади, зеро ахлоқи ва ҳуқуқий маданияти юқори бўлган судьяларнинг қонуний ва беғараз қарор қабул қилиш имконияти юқори бўлади.

Табиийки, шахсий манфаатдорликнинг ўзи ҳуқуқбузарлик ҳисобланмайди, судья уни амалда қўллаши билан ишни кўришда холислик йўқолади ва тегишли жавобгарликнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Шу боис, манфаатлар тўқнашувини ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этиш коррупцион ҳаракатларнинг содир этилишини олдини олувчи ишончли восита ҳисобланади. Зеро, маънан етук бўлмаган ёки ахлоқи бузуқ судьяларда манфаатлар тўқнашуви жараёнида

шахсий манфаатни судьялик қасамёдидан устун қўйиш, ваколатларини суиистеъмол қилиш учун етарли имконият мавжуд бўлади.

Е.Казакованинг фикрига кўра, манфаатлар тўқнашуви ва коррупция бир хил тушунчалар эмас. Айрим ҳолларда коррупцияга йўл қўйилмаган ҳолда ҳам манфаатлар тўқнашуви мавжуд бўлиши мумкин ва бунинг акси. Масалан, қарор қабул қилиш жараёнида шахсий манфаатдорлиги бўлган давлат хизматчиси адолатли ва қонун доирасида ҳаракат қилиши мумкин. Ва бунда коррупция аломатлари мавжуд эмас. Бошқа давлат хизматчиси эса манфаатлар тўқнашуви мавжуд бўлмаган, ҳар қандай ҳолатда шундай қарор қабул қилишга мажбур бўлган ҳолларда ҳам пора олиши мумкин[1.49].

Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа суди «алоҳида олинган судьяда алоҳида олинган ишга нисбатан шахсий ишончларни белгилашдан иборат субъектив ёндашув ва судья томонидан бу борада ҳар қандай асосланган гумонларни истисно қилиш учун етарли бўлишидан ташкил топган объектив ёндашув» ўртасидаги фарқни ажратиш сатади. Ушбу концепцияларга кўра, ишни кўриб чиқиш нафақат судья ноҳолис бўлган тақдирда, балки у шундай қабул қилинганда ҳам адолатсиз бўлади[2.8].

Шу боис, Ўзбекистон Республикаси Судьялар одоб-ахлоқ кодексининг 6-моддасида судья ишни холис кўриш мақсадида ўзининг касбий мажбуриятларини бажараётганда ҳар қандай афзалликлар, асоссиз ишонч ва тахминлардан холи бўлиши, ўзининг холислигига ҳар қандай шубҳаларни бартараф этишга ҳаракат қилиши лозимлиги, судьянинг қонунда назарда тутилган асосларда ўзини ўзи рад этиши унинг холислиги ва беғаразлигини таъминловчи муҳим омил эканлиги қайд этилган[3.112].

Суд тизимида коррупцияга қарши курашиш коррупциявий омилларни аниқлаш, унга чек қўйиш ҳамда унинг олдини олиш бўйича тизимли чоратадбирларни амалга оширишни тақозо этади.

Б.Исроилов ва Э.Гадоевнинг фикрича, коррупциявий омиллар жамиятдаги коррупцион хатти-ҳаракатларнинг пайдо бўлиши, сақланиши, ўзгариши ва тарқалишига таъсир кўрсатадиган ижтимоий ҳодисалар ва жараёнлардир[4.186].

Суд тизимида коррупцияни келтириб чиқарувчи омилларни ички ва ташқи турларга бўлиш мумкин. Бунда асосий мезон сифатида ушбу омилларни келтириб чиқарувчи субъектлар (шу жумладан, уларнинг ваколатлари) ва суд органлари мустақиллигига таъсир кўрсатувчи ҳолатлар эътиборга олинади.

Ички коррупциявий омиллар деганда, судларни шакллантириш ва фаолиятини ташкил этиш, судьялар мустақиллигини ва одил судловни таъминлаш билан боғлиқ масалаларни ҳал этиш бўйича суд раислари, судьялар ва судьялар ҳамжамияти органларининг суиистеъмолликлари, ноҳолис

ёндашувлари, таниш-билишчилик, қариндошуруғчилик, порахўрлик каби ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатларнинг вужудга келишига замин яратувчи ҳуқуқий, ташкилий ва бошқа характердаги ҳолатлар тушунилади.

Ташқи коррупциявий омилларга эса, давлат органлари, бошқа ташкилотлар, мансабдор шахслар ва фуқаролар томонидан одил судловни амалга оширишга аралашиб, унга тўсқинлик қилиш, суд ҳокимияти мустақиллигига тажовуз қилишга қаратилган қонунга хилоф ҳаракатларни амалга оширишга имконият туғдирувчи ҳолатларни киритиш мумкин.

Коррупцияга чек қўйиш мавжуд коррупция омиллари ҳамда коррупциявий ҳуқуқбузарликларни йўқотиш, уларга нисбатан қатъий чоралар кўриш, такрор содир этилишига йўл қўймаслик ҳамда салбий оқибатлари билан курашишни назарда тутувчи комплекс чора-тадбирлар мажмуидир.

Суд тизимида коррупцияга чек қўйиш чора-тадбирларига қуйидагиларни киритиш мумкин: суд тизимида коррупцияга қарши курашувчи махсус ваколатли орган фаолиятини йўлга қўйиш, тизимли ички назоратни амалга ошириш, одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилинишини таъминлаш, коррупциоген нормаларни аниқлаш ва бартараф этиш, бундай нормаларни судлар томонидан қўллаш бўйича доимий равишда таҳлиллар ўтказиш, жиноят ҳақида хабар берган судьяни ҳимоя қилиш, коррупциявий ҳолатлар ҳақида судья ва суд ходимларининг мажбурий тартибда хабар беришини белгилаш, судьяларнинг фаолиятини баҳолаш (бунда уларнинг рейтинг кўрсаткичлари билан бир қаторда ҳамкасблари ва жамоатчилик фикрини ҳам ўрганиш), судьяларга нисбатан хусусий ажрим чиқариш (судья томонидан қонун нормаларининг асосиз қўлланилган ёки қўлланилмаганлигини муҳокама қилиб бориш), судьялар томонидан юқори инстанция судининг қарорига нисбатан тақдимнома киритиш, суд ишларини тизимли умумлаштириб бориш ва натижаси бўйича суд қарорларини қонунга мувофиқлаштириш чораларини кўриш, судлар фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, одил судловни амалга ошириш жараёнига кенг жамоатчиликни жалб қилиш, ижтимоий ва махсус сўровлар ўтказиш.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, суд тизимида коррупцияга чек қўйиш бўйича чора-тадбирларни ҳуқуқий ва ташкилий турларга ажратиш мумкин.

Коррупциянинг олдини олиш деганда, коррупция омилларини аниқлаш, чеклаш ёки бартараф этиш, коррупционерлар шахсияти ижтимоий хавфи, шунингдек коррупциянинг айрим турлари ва шаклларини пайдо бўлиш ҳамда тарқалиш омилларини бартараф этишга қаратилган чора-тадбирлар мажмуи тушунилади[5.186].

Суд тизимида коррупциянинг олдини олиш бўйича чора-тадбирларга судьяларнинг одоб-ахлоқ қоидаларини қабул қилиш, юқори маънавиятли ва ҳалол судьяларни тайинлаш (меҳнат фаолияти ва кундалик ҳаётини синчиклаб ўрганиш, психолог суҳбати ва полиграфологик текширув ташкил этиш), судлар фаолияти ва одил судловни амалга оширишни тўлиқ рақамлаштириш, судья ва суд ходимлари, шунингдек уларнинг оила аъзолари билан профилактик суҳбатлар ўтказиб бориш, меҳнат ва ижро интизомига қатъий риоя қилишни назорат қилиш, фуқароларнинг коррупцияга қарши курашиш маданиятини ошириш, судьяларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳимоясини кучайтириш, судлар фаолиятини тўғри ташкил этиш (зарур шартлар бериш, суд ходимлари билан таъминлаш, транспорт ва моддий-техник жиҳатдан тўлиқ таъминлаш, бошқа мақсадлар учун судьяларни ишга жалб этиш ва судьялардан пул йиғишга чек қўйиш) киради.

Коррупцияга қарши курашиш мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалда таъминлаш бўйича таъсирчан чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этиш орқали амалга оширилади. Бунда асосий эътибор махсус ваколатли давлат органларининг мазкур йўналишдаги фаолиятига ҳамда унинг натижаларига қаратилади. Шунга кўра, суд тизимида коррупцияга қарши курашиш бўйича махсус ваколатли давлат органи – Судьялар олий кенгаши тузилмасида Коррупцияга қарши курашиш ва судьялар дахлсизлигини таъминлаш бўйича суд инспекциясининг ташкил этилгани суд тизимида коррупцияга қарши курашиш бўйича чора-тадбирларни доимий равишда тизимли амалга ошириш, ушбу соҳадаги профессионал фаолиятни яқин, ўрта ва узоқ муддатга мўлжалланган стратегик режаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш имконини беради.

Шунингдек, суд тизимида коррупцияга қарши курашишда самарага эришиш учун мавжуд қонун ҳужжатларини инвентаризациядан ўтказиб, коррупциоген характердаги нормаларни бартараф этиш, тўғридан-тўғри ишловчи қонунларни қабул қилиш, мавжудларини такомиллаштириш зарур. Жумладан, «Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида»- ги Қонуннинг 7-моддасига кўра, Кенгаш судьяларни давлат мукофотлари билан тақдирлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентига тақдимномалар киритади. Бироқ, судьяларни давлат мукофотларига тавсия этиш бўйича мезонлар ва тартиб мавжуд эмаслиги мазкур йўналишда коррупция ҳолатларини келтириб чиқариши мумкин. Шу боис, «Судлар тўғрисида»ги Қонунда судьяларни давлат мукофоти билан тақдирлаш мезонлари ва уни амалга ошириш тартибини белгилаш лозим бўлади.

Амалдаги қонунчиликка мувофиқ судьяларни маъмурий жавобгарликка тортиш Судьялар олий кенгашининг хулосаси асосида Судьяларнинг олий малака ҳайъати томонидан, судьяни жиноий жавобгарликка тортиш ёки қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш эса, Судьялар олий кенгашининг хулосаси асосида Олий суд Пленумининг розилиги асосида ҳал этилади[6.2] «Судлар тўғрисида»ги Қонуннинг 26-моддасига кўра, Олий суд раиси Олий суд Пленумининг мажлисларида раислик қилиши эътиборга олинса, судьянинг жиноий жавобгарликка тортилиши унинг қарорига ҳам бевосита боғлиқ бўлиб, судьянинг Олий суд раҳбарияти ва Пленум аъзолари бўлмиш Олий суд судьяларига тобелигини келтириб чиқариши мумкин. Ваҳоланки, судьяларнинг мустақиллигини таъминлаш мақсадида уларга нисбатан қабул қилинадиган ҳар қандай мажбурулов чоралари холис ва мустақил судьялар ҳамжамияти органи томонидан амалга оширилиши лозим. Хусусан, Қозоғистон Республикасининг «Судьялар олий кенгаши тўғрисида»ги Қонунининг 3-моддасига кўра, Кенгаш судьяни ушлаб туриш, қамоққа олиш эҳтиёт чорасини қўллаш, уй қамоғи, судьяни мажбурий келтириш ҳамда маъмурий ёки жиноий жавобгарликка тортиш масаласини кўриб чиқиш учун Қозоғистон Республикаси Президентига хулоса киритади[7.4].

Юқоридагиларга кўра, Олий суд Пленумининг мазкур ваколатини қонунчиликдан чиқариш ҳамда судьяни маъмурий ва жиноий жавобгарликка тортиш ёки қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш фақат Судьялар олий кенгаши томонидан ҳал қилинишини белгилаш лозим бўлади.

Одил судловни амалга оширишга аралашиб ва унга тўсқинлик қилиш, судьяларга нисбатан ҳар қандай шаклда таъсир ўтказиш каби ҳаракатларга нисбатан қонунда қатъий жазо чораларини белгилаш суд тизимида коррупцияга қарши курашишнинг самарали усулларида ҳисобланади.

БМТнинг Коррупцияга қарши конвенциясининг 25-моддасида иштирокчи-давлатлар одил судловни амалга оширишга тўсқинлик қилишни назарда тутувчи ҳаракатлар учун жиноий жавобгарликни белгилаш бўйича чоралар кўриши қайд этилган[8.2].

Шу нуқтаи назардан, судлар ҳамда судьялар ҳамжамияти органлари фаолиятига аралашганлик, судга нисбатан ҳурматсизлик қилганлик, судья ва халқ маслаҳатчисининг дахлсизлигини бузганлик, ишнинг ҳар томонлама, тўла ва холисона кўриб чиқилишига тўсқинлик қилганлик ёки турли шаклда таъсир ўтказганлик учун тегишли юридик жавобгарликни белгиловчи қонун ҳужжатларини қабул қилиш давр талаби ҳисобланади.

Коррупцияга қарши курашиш ва унинг олдини олишда молиявий ҳисобдорлик муҳим роль ўйнайди.

БМТнинг Коррупцияга қарши конвенциясининг 8-моддасида ҳар бир иштирокчи-давлат оммавий мансабдор шахсларнинг тегишли органларга хизматдан ташқари фаолияти, машғулоти, инвестициялари, активлари ва вазифалари билан боғлиқ манфаатлар тўқнашуви келиб чиқиши мумкин бўлган бошқа даромадлари ва ҳадялар ҳақида декларация тақдим этишлари шартлигини белгиловчи тартибни жорий қилиши белгиланган.

Ўзбекистон қонунчилигида судьялар ва суд ходимларининг молиявий ҳисобдорлиги масаласи назарда тутилмаган бўлса-да, Судьялар одоб-ахлоқ кодексининг 13-моддасида судья ўзи, турмуш ўртоғи ва вояга етмаган фарзандлари олаётган даромадлари ҳамда уларнинг манбалари тўғрисидаги, мулк ҳуқуқи ва ашёвий ҳуқуқ асосида эгаллигида бўлган мол-мулки, шунингдек мулк хусусиятга эга мажбуриятлари ҳақидаги ахборотдан хабардор бўлиши ҳамда бу ҳақдаги ахборотни Олий судга тақдим этиши шартлиги белгиланган[9.112].

Бироқ, мазкур талабни амалга ошириш механизми, яъни тақдим этилган маълумотларнинг ҳаққонийлигини текшириш имкониятининг чекланганлиги, Суд инспекцияси бу борада етарли ваколатларга эга эмаслиги ушбу тартибни самарасизлигидан далолат беради.

Нидерландия, Хитой, Сингапур каби давлатлар тажрибасини эътиборга олган ҳолда судьялар томонидан ўзи, турмуш ўртоғи ва вояга етмаган фарзандларининг мол-мулки ва мулк хусусиятлари ҳақида декларация тўлдириб ва уни махсус ваколатли органларга ҳар йили тақдим этиб бериш амалиётини йўлга қўйиб, судьялик лавозимига номзодларни танлаш ва тайинлаш, судьяни навбатдаги муддатга ёки раҳбарлик лавозимига тавсия қилишда унинг мулк хусусиятлари тақдим этган декларациялари асосида текшириб, таҳлил қилиш тақдир этилади.

Бундан ташқари, БМТ Коррупцияга қарши конвенциясининг 20-моддасига мувофиқ, ҳар бир иштирокчи давлат оммавий мансабдор шахснинг қасдан ноқонуний бойлик орттириши, яъни унинг қонуний даромадларидан ортиқча бўлган, уларнинг манбаини асослаб бериш имконияти мавжуд бўлмаган тарзда активларининг ортиши жиноят деб эътироф этилиши ва жиноий жазога сазовор бўлиши бўйича чораларни кўриши белгиланган[10.3].

Ушбу чоралар мансабдор шахслар ўртасида коррупцияга чек қўйиб, унинг олдини олиш, коррупцияга қўл урган шахсни жиноят устида ушлаш имкони бўлмаган ҳолларда уни аниқлаш ва жазолаш учун энг мақбул воситалардан бири ҳисобланади.

Судлар фаолиятининг очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш суд тизимида коррупцияга қарши самарали курашиш ҳамда уни келтириб чиқарувчи

омилларни бартараф қилишда муҳим роль ўйнайди. Бунда одил судловни амалга ошириш, судьялар корпусини шакллантириш, судлар фаолиятини ташкил қилиш ва бошқариш, судларни молиялаштириш, судьялар фаолиятини баҳолаш, уларни бошқа судьялик ёки раҳбарлик лавозимларига тавсия этиш, уларни юридик жавобгарликка тортиш, рағбатлантириш ва бошқа масалаларни ҳал қилиш фаолиятига ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш орқали шаффофликка эришиш, ушбу жараёнларнинг ҳолислиги ва очиқлигини таъминлашда фуқаролик жамияти институти вакилларини кенг жалб қилиш, жамоатчилик назорати институти имкониятларидан фойдаланиш талаб этилади.

БМТнинг судьялар ва адвокатлар мустақиллиги масалалари бўйича махсус маърузачиси Диего Гарсия-Саяннинг фикрича, судьяларни танлаш тартибини соддалаштирган ҳолда муносиб номзодларни доимий равишда танлов ўтказиш натижалари асосида танлаш ва танлов натижаларида олинган рейтинг кўрсаткичлари бўйича лавозимларга тайинлаш тартибини жорий қилиш лозим. Танлов имтиҳонлари қисман ёзма шаклда ва аноним тарзда ўтказилиши танлаш босқичида муҳим элементлардан ҳисобланади. Танловдан муваффақиятли ўтган номзодларгагина мажбурий тайёргарликдан ўтиш ва судда стажировка қилиш ҳуқуқи берилиши мумкин[11.2].

Коррупцияга қарши курашишнинг энг самарали усулларида яна бири - аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришдир. Бунда ёш авлоднинг таълим ва тарбиясига алоҳида эътибор қаратиш, улар онгига ҳалоллик ва поклик хислатларини сингдириш, коррупция иллатларининг салбий оқибатлари ҳақида аниқ тушунтиришлар бериш, бир сўз билан айтганда, уларнинг ушбу соҳадаги ҳуқуқий билимларга эга бўлишини таъминлаш ўта муҳим вазифалардан биридир.

Суд тизимида коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш мақсадида қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш таклиф этилади:

а) суд тизимида коррупцияга қарши курашиш стратегиясини қабул қилиш ҳамда уни самарали ва тизимли амалга оширишни назарда тутувчи қисқа, ўрта ва узоқ муддатга мўлжалланган комплекс чора-тадбирлар дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

б) суд тизимида коррупцияга қарши курашувчи ваколатли орган сифатида Судьялар олий кенгашини белгилаш ва унинг таркибидаги Судьялар дахлсизлигини таъминлаш ва коррупциянинг олдини олиш бўйича суд инспекциясининг фаолияти самарадорлигини таъминлаш мақсадида жойлардаги барча судьяларнинг малака ҳайъатлари котибларини ушбу тузилмага бириктириш.

Шу муносабат билан «Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясига Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши тўғрисида» 2008 йил 7 июлдаги Қонуннинг 1-бандига коррупциянинг олдини олиш бўйича аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширишда бошқа иштирокчи-давлатларга ёрдам кўрсатиши мумкин бўлган органлар рўйхатига Судьялар олий кенгашини киритиш;

в) БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилингани муносабати билан унда белгиланган вазифаларни Ўзбекистон томонидан бажарилишини таъминлаш, жумладан, судьялар ва улар оила аъзоларининг мол-мулки ва даромадлари, шунингдек мулкӣ мажбуриятлари ҳақида солиқ органларига ҳар йили декларация тақдим этиш тартибини жорий этиш, судьяларнинг коррупция ҳолатлари тўғрисида мажбурий равишда хабар бериш мажбуриятини қонунда белгилаш, коррупцияга йўл қўйган мансабдор шахсларни жазолашнинг самарали механизмларини жорий қилиш, судларга ҳурматсизлик қилганлик ёки одил судловни амалга оширишга тўсқинлик қилганлик учун юридик жавобгарликни белгилаш;

г) судьялик лавозимига номзодларни танлаш, тайинлаш, амалдаги судьяларни навбатдаги муддатга ёки бошқа судьялик лавозимига тайинлаш (сайлаш) жараёнининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш. Бунда судьяларни фақат бир марта муайян муддатга тайинлаш, ушбу даврда фаолияти ижобий баҳоланган судьяни муддатсиз даврга фақат Судьялар олий кенгаши томонидан суҳбат асосида қўшимча имтиҳонлар ўтказмаган ҳолда тайинлаш, юқори инстанция судлари судьялари, суд раислари ва улар ўринбосарлари лавозимларига танлов ўтказиш тартибини жорий қилиш;

д) Судьяларнинг одоб-ахлоқ кодекси талабларига қатъий риоя қилишларини таъминлаш мақсадида судья, суд ходимлари ва уларнинг яқин қариндошлари ўртасида мунтазам равишда амалий машғулотлар ва профилактик суҳбатлар ўтказилишини жорий қилиш, уларнинг учинчи шахслардан совғалар олишлари борасида чекловларни ўрнатиш;

е) коррупцияга қарши курашиш, шу жумладан, қонун ҳужжатларини тўғри қўллаш масалалари бўйича судьяларнинг бир йилда камида бир марта Судьялар олий мактабида малакасини ошириш тартибини белгилаш;

ж) судьялар, суд ходимлари, адвокатлар, қорхона ва ташкилотлар юристлари, шунингдек аҳоли ўртасида коррупцияга қарши курашиш, унга мурасасиз муносабатда бўлишни шакллантириш мақсадида амалдаги қонун ҳужжатларининг мазмун-моҳиятини тарғибот қилиш, ўрта, ўрта-маҳсус, олий ва олий таълимдан кейинги таълим муассасаларида маҳсус коррупцияга қарши кураш ўқув курсларини жорий қилиш, ушбу жараёнга фуқаролик жамияти институтларини кенг жалб қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Казакова Е.В. Противодействие коррупции в судебной системе в условиях процессуального реформирования. Ж.: «Администратор суда», -№2, - 2020. – С.48-52.
2. Халқаро юристлар комиссияси. Судьялар, адвокатлар ва прокурорларнинг мустақиллиги, жавобгарлигига доир халқаро тамойиллар. 1-сонли амалий қўлланма. www.icj.org/wp-content/uploads/2017/01/Uzbekistan-PGN°1-Publications-Practitioners-Guide-Series-2017-UZB.pdf.
3. Судьяларнинг одоб-ахлоқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши. – Т.: «Адолат», 2018. – 112-б.
4. Б.И.Исроилов, Э.Ф.Гадоев. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати. – Тошкент: «Тафаккур» нашриёти, 2019. – 186-б.
5. Б.И.Исроилов, Э.Ф.Гадоев. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати. – Тошкент: «Тафаккур» нашриёти, 2019. – 186-б.
6. Судьяларнинг малака ҳайъатлари тўғрисидаги Низомнинг 10-моддаси.
7. https://online.zakon.kz/document/?doc_id=34433079#pos=77;-28.
8. <https://lex.uz/docs/1461327>.
9. Судьяларнинг одоб-ахлоқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши. – Т.: «Адолат», 2018. – 112-б.
10. <https://lex.uz/docs/1461327>.
11. <https://undocs.org/ru/A/HRC/44/47/ADD.1>.

СУД ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ КУЧАЙТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Тоқсанбаева Айжамал Манғытбай қызы

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Юридика факультети талабаси

Аннотация: Мақолада суд ҳокимияти очиқлигини таъминлашда жамоатчилик назорати ва жамоатчилик вакиллари иштирокини кучайтириш масалалари таҳлил этилган. Шунингдек, миллий амалиёт ва хорижий тажриба асосида судларда жамоатчилик назорати ва жамоатчилик вакиллари иштирокини кучайтириш бўйича хулосалар илгари сурилган.

Калим сўзлар: Суд ҳокимияти, жамоатчилик назорати, ҳуқуқий асослар, судлар фаолиятининг очиқлиги, шаффофлик, халқ маслаҳатчилари, коллегиялик, такомиллаштириш.

Аннотация: В статье анализируются вопросы общественного контроля и развития общественного участия в обеспечении прозрачности судебной системы. В нем также делаются выводы о развитии общественного надзора и участия представителей общественности в судах на основе национальной практики и зарубежного опыта.

Ключевые слова: Судебная власть, общественный контроль, правовая база, открытость судов, прозрачность, общественные советники, коллегияльность, совершенствование.

Abstract: The article analyzes the issues of public control and development of public participation in ensuring the transparency of the judicial system. It also draws conclusions on the development of public oversight and public participation in courts, based on national practice and foreign experience.

Key words: Judicial power, public control, legal framework, openness of courts, transparency, public advisers, collegiality, improvement.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқида жамоатчилик назорати ва уни амалга оширишда фуқаролик жамияти институтларининг ўрни ва аҳамиятига тўхталиб, халқ ҳокимиятининг энг муҳим пойдевори сифатида жамоатчилик назорати институтини кучайтириш бўйича мамлакатимиз Конституциясининг 32-

моддасида, шунингдек, «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги, «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги қонунлар ва бошқа ҳужжатларда муҳрлаб қўйилган талабларнинг ижросини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилишига урғу берган эди[1.3].

Конституциямизнинг 32-моддасида белгиланган фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқи, бундай иштирок этиш ўзини ўзи бошқариш, референдумлар ўтказиш ва давлат органларини демократик тарзда ташкил этиш, шунингдек давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш ва такомиллаштириш йўли билан амалга оширилишига оид норма мамлакатимизда жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг устувор ҳуқуқий асосидир.

Одил судлов жараёнида жамоатчилик вакилларининг иштироки суд ҳокимияти фаолияти устидан жамоат, яъни халқ назоратининг муҳим шакллари билан бири ҳисобланади. Одил судловни амалга оширишга фуқароларнинг – халқ вакилларининг жалб этилиши демократик давлатнинг муҳим белгиси сифатида эътироф этиб келинган. Бундай иштирок суд томонидан адолатли ва ҳаққоний қарорлар қабул қилинишига ҳам имкон яратади.

Суд ишларини юритишда жамоатчиликнинг иштирок этиши одил судловни амалга оширишнинг таркибий принципларидан бири бўлмиш коллегиялик, яъни ишларнинг ҳайъатда кўрилиши тамойилларига ҳам мос келади.

Суд фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш бошқа давлат ҳокимияти органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишга қараганда ўзига хос хусусиятлари билан ажралиб туради. Зеро, суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш, процесс иштирокчиларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, давлат сири, фарзандликка олиш сири, тижорат сири ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сирларни сақлаш зарурати мавжудки, жамоатчилик назоратини амалга ошириш жараёнида ушбу ҳолатлар эътиборга олинади. «Жамоатчилик назорати тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 2-моддасида суд ишларини юритиш соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш алоҳида қонун ҳужжатлари билан тартибга солиниши назарда тутилган. Алоҳида қонун ҳужжатлари сифатида эса Фуқаролик процессуал, Иқтисодий процессуал, Жиноят-процессуал ва Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексларига суд фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишга қаратилган нормаларни киритиш талаб этилади.

Суд ҳокимияти очиклигини таъминлашда жамоатчилик иштирокининг тарихига назар ташласак, биринчи марта аҳолини одил судловни амалга оширишга жалб қилиш ғояси XVIII асрда пайдо бўлган. Ўша даврнинг машҳур мутаффақирларидан бўлган Ш.Л.Монтескьенинг фикрича, агар суд ҳокимияти суд идораларига эмас, балки маълум вақт давомида одил судловни амалга ошириш учун таклиф қилинган халқ орасидан танланган шахсларга ишониб топширилса, самарали бўлади. Шундай қилиб, одамлар учун жуда кўрқинчли бўлган суд тизими на таниқли касбга, на таниқли мавқега боғлиқ бўлмай қолади, у кўринмас ва мавжуд эмасдек туюлади[2.38].

Албатта, бу фикр ўзига хос фалсафа ва аҳамиятга эга. Бироқ, замонавий шароитда муайян ҳуқуқий ишни қонуний, асосли ва адолатли кўриш ва ҳал этиш учун судьяларга профессионал билим ва амалий кўникмалар зарурлиги туфайли юқоридаги ғояни амалга ошириш қийин. Айни пайтда, суд жараёнларида халқ маслаҳатчиларининг иштирок этиши, айрим хорижий давлатлар тажрибасида суд маслаҳатчилари (суд присяжных)[3.50] институти кенг жорий этилганлиги[4.11] Ш.Л.Монтескье томонидан билдирилган ғояларнинг қайсидир жиҳатлари амалда эканлигини кўрсатади.

Одил судловни амалга оширишда жамоатчиликнинг иштироки масалалари ҳозирги кунда кўплаб юридик адабиётларда қатор муаллифлар томонидан ҳам кўриб чиқилган. Хусусан, В.И.Бадашхановнинг ёзишича, одамларнинг одил судловда иштирок этиши суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари фаолиятини назорат қилишда кўрсатиладиган фуқаролик бурчини фаол бажаришни англатади[5.8] И.А.Огневанинг фикрича, фуқаролар иштироки судда иш юритишни тартибга солувчи қонунларни жамоатчилик томонидан муҳокама қилиш ва тушуниш, суд жараёнини амалга оширишда фаол ёрдам бериш, унинг устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш, процесснинг бошқа иштирокчиларига уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланишида ёрдам беришдан иборат[6.13]. Одил судловнинг очиклиги ҳақида гап кетганда, фуқароларнинг ҳеч қандай тўсиқларсиз суд биносига кириш, суд муҳокамаларида бемалол иштирок этиш, иш материаллари билан танишиш эркинлиги каби таркибий қисмларга ҳам эътибор қаратиш лозим.

Юридик адабиётларда қайд этилганидек, суд фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг яна қуйидаги шакллари ҳам мавжуд:

судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини тўлиқ жорий этиш, яъни суд мажлисларини видео-конференцалоқа тизими орқали олиб боришни кучайтириш, ҳар бир вилоят ва унга тенглаштирилган судларнинг веб-сайтларини ташкил этиш, шахсий ҳаёт дахлсизлигини

таъминлаган ҳолда ва суд иштирокчиларининг розилиги билан ёпиқ суд жараёнида кўриб чиқилганларидан ташқари барча суд қарорларини судларнинг веб-сайтларида эълон қилиб бориш, чоп этиш тартибини жорий қилиш;

суд ишларини юритиш жараёнидаги процессуал ҳаракатларни видео, аудио қайд этиш, суд-тергов жараёнларини тўлиқ стенограмма қилиш;

суд ишларини сайёр суд мажлисларида кўриб чиқиш амалиётини кенгайтириш;

судда фуқароларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонун билан кўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилувчи жамоат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари вакиллари иштирокини кенгайтириш;

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми ҳузуридаги илмий-маслаҳат кенгашининг фаолият юритиши[7.92].

Суд ҳокимияти очиқлигини таъминлашда жамоатчилик назорати ва жамоатчилик вакиллари иштирокига оид хорижий давлатлар қонунчилик тажрибаси ҳам муҳим. Хусусан, Австрия Конституциясида (91-моддаси) «одамлар одил судловни амалга оширишда қатнашадилар» деган норма мавжуд[8.10].

Канада, Франция, Греция, Италия, Янги Зеландия, Россия, Германия, Англия, АҚШ каби давлатларда суд процессида жамоатчилик назоратининг муҳим кўринишларидан бири сифатида суд маслаҳатчилари (суд присяжных) институти кенг жорий этилган.

Францияда жиноят ишлари судда профессионал судьялар ва суд маслаҳатчиларидан иборат ҳайъат таркибида кўрилади[9.25]. Суд маслаҳатчилари айрим тоифадаги, хусусан, 10 йил озодликдан маҳрум қилиш (жисмоний шахслар учун) ёки 75000 € миқдорида жарима солиш (юримдик шахслар учун) тўғрисидаги жиноят ишларининг кўрилишида иштирок этади. Францияда 16-18 ёшли вояга етмаганлар томонидан содир этилган оғир жиноятлар уч нафар малакали судья ва тўққиз нафар суд маслаҳатчиси иштирокида кўрилади. Англияда суд маслаҳатчилари қотиллик жиноятларини, табиий бўлмаган ёки гумонли ўлим ёки ўлимнинг сабаби аниқланмаган ҳолатларни текширишда иштирок этади.

Айрим Европа давлатларида ишларнинг оғир-енгиллигига қараб иш судда яқка судья ёки ҳайъат тартибида кўрилиши амалиёти мавжуд. Хусусан, Австрия, Дания ва Норвегияда оғир жиноят ишлари суд маслаҳатчилари томонидан кўрилади. Ўртача оғир жиноят ишлари эса судья ва суд маслаҳатчилари иштирокидаги ҳайъат тартибида, унча оғир бўлмаган жиноят ишлари яқка судья томонидан кўрилиши белгиланган. Мамлакатимизда бунинг аксини кўриш мумкин. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг

13-моддасига киритилган ўзгартиш ва қўшимчаларга мувофиқ, Жиноят кодекси 15-моддасининг иккинчи-тўртинчи қисмларида назарда тутилган жиноятлар тўғрисидаги ишлар судья томонидан яқка тартибда кўрилиши белгиланди[10.36] Унга кўра, 2018 йилнинг 1 апрелидан бошлаб оғир жиноятлар биринчи инстанция судида судья томонидан яқка тартибда кўрилади. Халқ маслаҳатчилари фақат ўта оғир жиноятлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишга жалб этилади[11.3]. Яъни, мамлакатимизда жиноят процессида яқка судья томонидан кўриладиган ишлар доираси кенгайиб бормоқда. Бу эса ҳозирги давр талабларига, хусусан, суд ҳокимияти очиқлигини таъминлашда жамоатчилик назорати ва жамоатчилик вакиллари иштирокини ривожлантириш анъаналарига мувофиқ эмас.

Европанинг аксарият давлатларида халқ судьяси, суд маслаҳатчилари профессионал судья билан шахснинг айбдор ёки айбдор эмаслиги, шунингдек судланувчига жазо чорасини белгилаш билан боғлиқ масалани биргаликда ҳал этади. Буюк Британияда фуқаролик ишларининг кўрилишида суд маслаҳатчилари нафақат у ёки бу тарафлар учун фуқаролик-ҳуқуқий оқибатни вужудга келтирувчи қарор қабул қилишади, балки зарарни ундириш тўғрисидаги ҳал қилув қарорини ҳам қабул қилиш ваколатига эга. Бошқача айтганда, агар профессионал судья зарарни ундириш лозимлиги ҳақида тўхтамга келса, суд маслаҳатчилари бу зарар миқдорини белгилашлари мумкин.

Аҳолининг одил судлов жараёнларидаги иштирокининг тури, шакли ва воситалари муайян давлатнинг сиёсий режими, маданияти ва амалдаги сиёсий тизимига боғлиқ бўлади. Масалан, АҚШда айрим Европа давлатлари тажрибасидан фарқли равишда олти йилдан ортиқ озодликдан маҳрум қилиш жазоси қўлланиладиган жиноят ишларининг судларда кўрилишида фуқароларга суд маслаҳатчилари иштирокида ишни кўриш ҳуқуқи берилади. Бироқ, махсус суд томонидан ҳарбий хизматчилар иштирокида кўриладиган ҳарбий хизматчилар иши билан боғлиқ бўлган ишлар бундан мустасно. Ҳар бир штат судда иштирок этадиган суд маслаҳатчиларининг сонини мустақил белгилайди[12.5].

Японияда халқ судьялари оғир жиноят ишларининг муҳокамасида судья сифатида иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлиб, халқ судьяларининг судлов ҳайъати таркиби олти нафар халқ судьяси ва уч нафар профессионал судьядан иборат бўлади. Айбланувчи халқ судьясидан воз кечиш ҳуқуқига эга бўлмайди.

BOJXONA CHEGARALARI ORQALI OLIB O‘TILISHI TAQIQLANGAN YOKI CHEKLANGAN KONTRABANDA JINOYATI PREDMETLARI USTIDAN NAZORAT QILISH SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Utebaev Salamat Maqsetbay uli

QDU doktoranti

Toqsanbaeva Ayjamal Mangitbay qizi

QDU Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilishi hamda olib chiqilishi taqiqlangan va cheklangan tovarlar ustidan bojxona nazoratini yanada samarali olib borish istiqbollari tahlil qilingan bo‘lib, chegara bojxona postlarida huquqbuzarliklarni oldini olishda ta’sirchan choralarni qo‘llash haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: bojxona, bojxona chegarasi, huquqni muhofaza qilish faoliyati, ma’muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, iqtisodiy siyosat choralari, tashqi savdo, ma’muriy preyarditsiya, bazaviy hisoblash miqdori, tashqi iqtisodiy faoliyat, kvota, litsenziya.

Аннотация: В статье проанализированы перспективы эффективного осуществления таможенного контроля запрещенных и ограниченных к ввозу и вывозу в Республику Узбекистан товаров, изложены предложения по применению действенных мер по предупреждению правонарушений на приграничных таможенных постах.

Ключевые слова: таможня, таможенная граница, правоохранительная деятельность, административная ответственность, уголовная ответственность, меры экономической политики, внешняя торговля, административная преюдиция, базовая сумма расчета, внешнеэкономическая деятельность, квота, лицензия.

Annotation: The article analyzes the prospects for the effective implementation of customs control of goods prohibited and restricted for import and export to the Republic of Uzbekistan, outlines proposals for the use of effective measures to prevent offenses at border customs check-points.

Keywords: customs, customs border, law enforcement activities, administrative responsibility, criminal responsibility, economic policy measures, foreign trade, administrative prejudice, basic calculation amount, foreign economic activity, quota, license.

KIRISH

Hozirda iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga nazar solsak, samarali hamda qulay bojxona nazoratini joriy etish tashqi savdoni rivojlantirayotgan asosiy omillardan biri bo'lmoqda. Shu bilan birga, davlatimizning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi taqiqlangan va cheklangan tovarlarning noqonuniy harakatiga qarshi kurash tashqi savdo aloqalarimizning rivojlanishiga mutanosib ravishda kuchaytirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 18.10.2018- yildagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risi"dagi O'RQ-502-sonli Qonunining 3-moddasida keltirilgan bojxona organlarining asosiy vazifalari qatorida bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun buzilishlarning, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish vazifasi yuklatilganligi ham bojxona organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatorida o'z o'rniga ega ekanligiga yaqqol misol bo'la oladi[1.4].

Shuningdek, bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalariga doir cheklovlar xalqaro majburiyatlardan, ichki bozorni himoya qilish zarurligidan kelib chiqqan holda, shuningdek chet davlatlar va ular ittifoqlarining O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini kamsituvchi yoki cheklovchi boshqa harakatlariga javob chorasi tariqasida qonunchilikka muvofiq belgilanishi mumkin. Shuningdek, davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini, inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini, mulk huquqini, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni, olib kirilayotgan tovarlar iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim tovarlarni va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda ushbu hududdan olib chiqish taqiqlanishi mumkin.

ASOSIY QISM

Bojxona nazoratini amalga oshirish juda mas'uliyatli ishdir, chunki bojxona chegarasi orqali olib kelinadigan respublikamizga olib kirilishi taqiqlangan tovarlar davlat xavfsizligiga, inson salomatligi hamda ekologiyaga salbiy ta'sir etishining real xavfi mavjud. Biz yuqorida ko'rib o'tgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda Jinoyat kodeksi bilan bir qatorda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yil boshida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini yangilash hamda zamon ruhiga moslashtirish masalasi ko'tarilgani hech kimga sir emas. Qonunchilik palatasi deputatlari xabar

berishicha, hozirda Qonunchilik palatasi fraksiyalari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni yangi tahrirda ko'rib chiqishmoqda[2.1].

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib kirilishi taqiqlangan va cheklangan tovarlar, ya'ni pornografik, zo'ravonlik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlar, diniy mazmundagi materiallar, uchuvchisiz uchish apparatlari, pirotexnika buyumlari, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurolni, o'qdorilarni yoki o'qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni olib o'tish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ushbu jinoyatlar asosan, bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida aniqlanadi hamda tegishli moddalar yuzasidan bojxona organlari tomonidan surishtiruv shaklidagi tergov harakatlari amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 130, 130¹, 244¹, 250¹-moddalarida ma'muriy preyditsiya mavjud bo'lib, ya'ni shaxs ushbu turdagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng bir yil ichida shu huquqbuzarlikni takroran sodir etsa, uning qilmishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va olib chiqish taqiqlangan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish qaysi yo'llar orqali amalga oshirilishiga nazar tashlasak. Hozirda davlatimizda avtomobil, temir yo'l, aviatsiya, piyoda, daryo o'tkazish punktlari orqali hamda pochta va kuryerlik jo'natmalarida tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tish mumkinligini hisobga olib, huquqbuzarlar tomonidan shu yo'llar orqali qonun hujjatlariga asosan olib o'tilishi taqiqlangan va cheklangan tovarlar noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan o'tkazilishi mumkin. Mamlakatimiz chegaralaridagi har bir o'tkazish punkting o'ziga xos xususiyati bo'lib, ularda ro'y berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham bojxona organi xodimlari chegara o'tkazish punktlari turiga qarab huquqbuzarliklarni oldini olish uchun kasbiy tayyorgarlikdan o'tishi zarur. Chunki, hozirda davlatimizda qonun ustuvorligi hamda barchaning qonun oldida tengligi har qachongidan ham asosiy maydonga chiqmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqlariga daxl qiladigan qonunbuzarlikning kichik elementlarini ham sodir etmaslik kerakligini anglatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasining 17-maqsadida "Qonun — ustuvor, jazo —

muqarrar” tamoyilini Yangi O‘zbekistonning huquqni muhofaza qilish tizimining bosh mezoniga aylantirish maqsad qilib belgilangan[3.8].

Javobgarlikka tortish masalasini hal qilishda eng asosiy ish bu huquqbuzarning aybini isbotlash hisoblanadi. Isbotlash – bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar ish faoliyatida muhim o‘rin egallaydi hamda o‘ziga yuklatilgan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirishda harakatga keltiruvchi kuch ya’ni huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda belgilangan jazo choralarini belgilashda ko‘rinadi. Javobgarlikdan qutulib qolish esa bu qonunchilikka nisbatan hurmatsizlikni keltirib chiqarib, tartibga solingan ijtimoiy munosabatlarning darz ketishiga olib keladi.

Chegarada bojxona nazoratini to‘liq ta’minlash uchun bojxona organi xodimi sifatida biz O‘zbekiston Respublikasiga olib kelinishi taqiqlangan barcha tovarlar bilan yaqindan tanish bo‘lishimiz kerak. Quyida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan bojxona chegarasidan olib o‘tilishi taqiqlangan tovarlarning turlari yoki ro‘yxati keltirilgan normativ-hujjatlarning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrda “Tashqi bozorda mahalliy mahsulotlarning raqobatdoshligini ta’minlash va eksportni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5286-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasiga import qilinishi (olib kelinishi) taqiqlangan buyumlar ro‘yxati keltirilgan;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 9-apreldagi “Respublikada sotiladigan maishiy elektr priborlarini, yangidan quriladigan binolar va inshootlarni energetika jihatidan majburiy markirovkalash va sertifikatlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 86-sonli qarori asosida texnik hujjatlarida, markirovkasida va etiketkalarida elektr samaradorligining tegishli klassi to‘g‘risidagi axborotlar mavjud bo‘lmagan ushbu qarorga ilovada ko‘rsatilgan elektr samaradorligi past bo‘lgan maishiy elektr priborlarini chetdan olib kirish bosqichmabosqich taqiqlangan; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi “Qimor o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 176-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida qimor o‘yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni (shu jumladan totalizatorlar) tashkil etish va o‘tkazish taqiqlagan;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-oktyabrdagi “Energiyani tejaydigan lampalar mahalliy ishlab chiqarilishini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qaroriga asosan quvvati 40 Vt dan ortiq cho‘g‘lanma lampalarni 2016-yil 1-iyuldan erkin muomalaga chiqarish va 2017-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilish taqiqlangan;

– O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 1-apreldagi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-399-son Qonunining 24-moddasiga ko‘ra

sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining g‘ayriqonuniy nusxalarini import qilish taqiqlangan.

Bundan tashqari bir qator, inson salomatligi, ekologiya hamda davlat xavfsizligiga daxl qiluvchi materiallar ro‘yxati boshqa qonun hujjatlarida aks etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227¹⁹-moddasida O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlarni qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasiga binoan, iqtisodiy siyosat choralari — tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushbu hududdan olib chiqishga doir cheklovlar bo‘lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi bilan o‘zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi[4.26].

Shunga ko‘ra, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227¹⁹-moddasida faqat taqiqlangan emas balki, cheklangan tovarlarni bojxona chegarasidan olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi “Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishni yanada tartibga solish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3215-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi “Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni olib o‘tish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 463-son qarorida jismoniy shaxslar tomonidan respublikaga bojxona to‘lovlariga tortilmasdan olib kiriladigan tovarlarning qiymat va miqdor jihatdan chegaralangan me‘yorlari belgilangan.

Hozirgi vaqtda amaliyotda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlar o‘rnatilgan tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o‘tilishi bilan bog‘liq holatlarda bir qancha muammolar mavjud. Bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi cheklangan va taqiqlangan tovarlar olib o‘tish bilan bog‘liq holatlar sezilarli darajada o‘sgan. Shuningdek, aynan bir shaxs tomonidan qayta-qayta ushbu huquqbuzarlik sodir etilsa-da, ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgani jismoniy shaxslarda qonunchilikka nisbatan hurmat hissini pasayishiga va javobgarlik choralari esa o‘z vazifasini to‘liq bajarishiga to‘siq bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227¹⁹-moddasiga ko‘ra, iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlar qo‘llaniladigan tovarlarni ana shu choralar va cheklovlarni qo‘llanishning belgilangan tartibini buzgan holda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tish, O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollardan tashqari, — tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, — tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Bu kabi huquqbuzarliklarni oldini olish hamda chek qo‘yish uchun, avvalo, ta’sirchan javobgarlik choralari takomillashtirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” 18-sonli qarorining 3-bandi 3-qismida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasining birinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik tovar va transport vositalarini ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazganlik uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgan (O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227²¹-moddasi, 227²²-moddasining birinchi qismi) shaxs ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida yana aynan shunday huquqbuzarlikni ko‘p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqishi belgilangan[5.4].

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklifni kiritish ma‘qul bo‘lardi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” 18-sonli qarorining 3-bandi 3-qismini “227¹⁹” raqami bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Bu orqali aynan shu huquqbuzarlik bir yil ichida takroran ko‘p miqdorda sodir etilgan taqdirda shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilash kerak. Bu bilan chegara hududlarda ko‘p kuzatiladigan hamda ichki bozor uchun real xavf vujudga keltiradigan “tashmachilik”ni ham oldi olinadi deb o‘ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasida qonun ustuvorligini ta‘minlash uchun normativ-huquqiy hujjatlarni samarali qo‘llash muhim

hisoblanadi. Bu esa rivojlanayotgan davlatimizni har tomonlama jahon hamjamiyati bilan integratsiya qilish jarayonini tezlashtirish bilan birga huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchni oshiradi. Ayniqsa, olib o'tilishi taqiqlangan va cheklangan tovarlarni harakati ustidan samarali bojxona nazoratini o'rnatish orqali bojxona organlari faoliyatini asosiy yo'nalishlaridan bo'lgan iqtisodiy xavfsizlik hamda jamiyat xavfsizligi uchun tahdidlarni oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risi"dagi 502-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
2. Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/22/code>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmon // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-son qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 06-sentyabrdagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 18-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

CNN TELEKANALIDA OSIYO DAVLATLARIGA OID AXBORIY MATERIALLARNING BERILISHIDA TELEVISION ASAR KOMPONENTLARI: PLAN VA TITR.

Dauletbaeva Dilshada Dastanovna

Magistr, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti

“Plan” deb kadrda tasvir ko‘lamiga masshtabiga aytiladi. “Plan” tushunchasi tasvirlanayotgan shakl yoki predmetning ekrandagi yiriklik darajasi, tasvirga olinayotgan obekt bilan kamera o‘rtasidagi oralik masofa hamda ob‘ektivning fokus oralig‘i, ya‘ni suratga olinadigan predmetlarning aniq tiniq ko‘rinadigan nuqta masofasi bilan bog‘lik tushuncha.

Odatda plan uch turga bo‘linadi: umumiy, o‘rta va yirik. Lekin professional kino va televideniye xodimlari uni **olti turga** bo‘ladi [1]:

1. Cheksiz, nihoyatda uzoqdan olingan plan - deydik, kosmosdan turib Yerni suratga tushirish, odam va uni o‘rab turgan butun borlikni tasvirlash);
2. Umumiy plan (odamning bor buy-basti bo‘yicha olingan kadr);
3. O‘rta plan (odamning tizzasigacha bo‘lgan tasviri);
4. O‘rta yiriklikdagi plan (belgacha bo‘lgan plan);
5. Yirik plan (odamning yuz, bosh qismi tushirilgan kadr);
6. Makroplan kadrning bir kismi, fragmenti: (masalan ko‘z, quloq, qosh, kiprik, mo‘ylov, asalarining oyog‘idagi paxmoq tuklarigacha va hokazo.)

Ma‘lumot o‘rnida ta‘kidlash kerakki, plan katta yoki kichikrok bo‘lishi mumkin, biroq u hech qachon uzun yoki qisqa bo‘lmaydi. Shu sababli bu ta‘riflar biroz nisbiy tushuncha hisoblanadi [2].

CNN telekanalida cheksiz, nihoyatda uzoqdan olingan plan asosan, ilm-fanga oid yangiliklar haqida lavhalar tayyorlanganda efirga beriladi. Xususan, 2023 yil 28 mart kuni Astrofizik professor Adam Frank “Astrofizik nima uchun sayyoralarni yalang‘och ko‘z bilan ko‘rish kamdan-kam hollarda ekanligini tushuntiradi” (Astrophysicist explains why seeing planets with the naked eye is rare) [3] mavzusida 2 daqiqa 55 soniyali lavha efirga berildi. Unda beshta sayyora, jumladan, Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter va Uran Oy ostida bir qatorda, ba‘zan sayyoralar paradi yoki tekislash deb ataladigan displeyda ajoyib tasvir paydo bo‘lishi tushuntiriladi. Professor

so‘zining isboti sifatida cheksiz, nihoyatda uzoqdan olingan planda sayyoralar tizimini lavhaning 40 soniyasidan 46 soniyasiga qadar ko‘rsatadi.

Undan tashqari, telekanalda 2023 yil 10 mart kuni NASA 2046 yilda Yerga tushishi mumkin bo‘lgan asteroidni kuzatmoqda mavzusida (NASA tracking asteroid that has potential to hit Earth in 2046[4]) 4 daqiqa 18 soniyali lavhasini efirga beradi. Unda NASAning navigatsiya muhandisi Davide Farnocchidan NASAning Sayyoraviy mudofaani muvofiqlashtirish boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, yangi kashf etilgan asteroid taxminan olimpiya basseyniga teng bo‘lgan asteroid 23 yil ichida Yer bilan to‘qnashuvi «juda kichik imkoniyatga» ega va potentsial ta‘sir lahzasi 2046 yil “Sevishgan”lar kunida sodir bo‘lishi mumkinligi haqida intervu olinadi. Yerga tushishi kutilayotgan asteroidning fazodan olingan tasvirlari dastlab 5 soniyadan 16 soniyaga qadar efirga beriladi. Ikkinchi marta bunday kadrlar 38 soniyadan 1 daqiqa 11 soniyagacha, uchinchi marta 2 daqiqa 59 soniyadan 3 daqiqa 25 soniyaga qadar NASA tomonidan koinotdan tushirilgan kadrlar efirga beriladi.

CNN telekanalida umumiy planda odamning bor bo‘y-basti bo‘yicha olingan - to‘liq metrajli: to‘liq o‘shida bo‘lgan shaxs doirasidagi kadrlar studiyada tayyorlangan boshlovchi so‘zida efirga beriladi. Masalan, joriy yili 26 aprel kuni “Qamoqqa olingan Putin tanqidchisi bir kishilik kamerada qolish haqida hazil qiladi” (Jailed Putin critic jokes about solitary confinement [5]) mavzusida 4 daqiqa 11 soniyali lavha beriladi. O‘sha joydan undan studiyada turgan holda intervyu olinadi. Jarayonda jurnalist Lynda Kinkade 34 daqiqadan 1 daqiqa 8 soniyaga qadar kadrda butun bo‘y basti bilan turib, qamoqdagi rossiyalik muxolifatchi Aleksey Navalniy karserga qaytishdan oldin jurnalistlar bilan suhbatlashadi.

O‘rta plan:odamning tizzasigacha bo‘lgan tasvirida CNN muxbiri Selina Wang Xitoy parlamenti a‘zosi CNN savollariga javob berishdan bosh tortgani haqida (Member of Chinese parliament runs from CNN’s questions [6]) 2023 yil 8 mart kuni 8 daqiqa 10 soniyali lahva tayyorlaydi. Unda Xitoy parlamentining yillik yig‘ilishida jurnalistlar duch keladigan cheklovlarni muhokama qiladi. Reportajning 1 daqiqa 6 soniyasida 26 soniyaga qadar muxbir Xitoy parlamenti oldiga yurib boradi va u kadrda o‘rta planda ko‘rinish beradi. 1 daqiqa 48 soniyadan 2 daqiqagacha bo‘lgan bino ichidagi holarda ham Selina Wang tizzasigacha ko‘rinadi.

O‘rta yiriklikdagi belgacha bo‘lgan planda CNN telekanalida Rossiyaning Ukraina shahrini tinimsiz bombardimon qilish oqibatlari haqida (Aerial footage shows aftermath of Russia’s relentless bombing of Ukrainian city [7]) CNN xalqaro xavfsizlik bo‘yicha katta muxbiri Nik Paton Walsh 2023 yilning 26 aprel sanasida maxsus reportaj 3 daqiqa 33 soniyali lavha tayyorlab, efirga beradi. Unda Nik Paton Walsh 3 daqiqa 8 soniyadan 28 soniyaga qadar o‘rta yiriklikdagi planda tomoshabinlarga ma‘lumot beradi.

CNN xalqaro muxbiri Melissa Bell 2022 yil 26 oktabrda Doktor rus askarlarining noto‘g‘ri hujumdan olgan jarohatlarini aniqladi (Doctor reveals Russian soldiers’ injuries from botched assault [8]) mavzusida reportajni efirga berdi. 10 daqiqa 359 soniyali reportajning 6 daqiqa 18 soniyadan 7 daqiqa 11 soniyaga qadar jarohatlangan askarlarning qovurg‘a, oyoq va qo‘l suyaklarini rentgen nurlaridagi ko‘rinishini makroplanda namoyish etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александр Алексеевич Князев Основы тележурналистики и телерепортажа. Учебное пособие/ Кыргызско-Российский Славянский университет. – Бишкек: Изд-во КРСУ, 2001. – С.99 б
2. Амрилло Каримов ва бошқалар Аудиовизуал журналистика ўқув кўлланма “O‘zbekiston” NMIU, 2019. 271б.
3. <https://www.youtube.com/watch?v=kpiWRJ1mTH4&list=PL6XRrncXkMaUTlptwbUFcIhCqFXG5Klj7&index=8>
4. <https://www.youtube.com/watch?v=FLIJ0fUzRP8&list=PL6XRrncXkMaUTlptwbUFcIhCqFXG5Klj7&index=15>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=Wibd0uRbxhc&list=PL6XRrncXkMaW5p7muaR2s2IqjouQh4jqS&index=11>
6. https://www.youtube.com/watch?v=WZVH6g_xcz8&t=6s
7. <https://www.youtube.com/watch?v=FmL7fSNGwHo&list=PL6XRrncXkMaW5p7muaR2s2IqjouQh4jqS>
8. <https://www.youtube.com/watch?v=ePW52fJkXB4&list=PL6XRrncXkMaW5p7muaR2s2IqjouQh4jqS&index=761>

RUS TILINEN QARAQALPAQ TILINE KIRGEN ÁSKERİY SÓZLER

Bekbosimova Gauxar

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

ANNOTACIYA: *Bul maqalada qaraqalpaq tili áskeriy leksikasına ilim-pánniń rawajlanıwı menen rus tilinen kirip kelgen sózler úyrenilgen. Bunda dáwirlerge bólingen halda har dáwirdiń social turmısına baylanıslı jańadan kirip kelgen sózler sóz etilgen.*

GILT SÓZLER: *kalkalaw, fonetikalıq ózgeris, rus tili arqalı ózlesken sózler.*

Jańa dáwirden keyin qaraqalpaq tiliniń leksikasında kóplegen siyasıy-jámıyetlik, ilimiy-texnikalıq terminler kalka uıslı arqalı júzege keldi.

Qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasınıń sırtqı derekler tiykarında jańa sózler menen tolısıwında rus tiliniń ornı girewli. Haqıyqatında da, rus tilinen kirip kelgen áskeriy atamalar Qurallı kúshlerimiz xızmetkerleri tilinde de, xalıq tilinde de sol halatında qollanıladı hám bul sózler qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasında kólemli orındı iyeleydi.

Til baylıǵı jaǵınan rus tili dúnyadaǵı eń bay tillerden biri. Qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikası quramında rus hám rus tili arqalı basqa tillerden awısqań sózlerdiń tilimizde payda bolıwın tiykarınan eki dáwirge bólip izertlewge boladı. I dáwir-qaraqalpaqlardıń Rossiya qol astına ótkennen keyin Oktyabr revolyuciyasına shekemgi dáwir. Bul dáwirde ózlestirilgen áskeriy sózlerge: ápiser-oficer, wayinniy-vaenniy, fáweská-povestka, axran-oxrana hám taǵı basqa sózler kiredi. Bul sózler XVIII-XIX-XX ásirlerde jazılǵan qaraqalpaqlardıń yuridikalıq xarakterdegi leksikasında ushırasadı. [5:111] Kórinip turǵanıday birinshi dáwirdegi ózlestirilgen sózlerdiń bári fonetikalıq ózgeriske ushıraǵan.

Tilshi ilimpaz G. Dosjanova qaraqalpaq tiline rus tilinen kirgen sózler haqqında óziniń avtorlıq monografiyasında: “Hár qanday tildiń leksikasında basqa tillerden kirip kelgen sózler sol xalıqtıń ekonomikalıq, siyasıy hám mádeniy turmısı menen tıǵız baylanıslı boladı. XIX ásirde aqırında qaraqalpaq xalqınıń turmısında rus tili arqalı kóplegen sózler kirip kele basladı. Olar awızeki sóylew jolı menen kirip kelgenlikten fonetikalıq ózgerislerge ushırap ayılǵan hám jazılǵan,”-dep kórsetedi. [4:49]

II dáwir sovet vlastı jıllarınan baslanadı. Óz dáwirinde úlken dábebege iye bolǵan Oktyabr socialistik revolyuciyası, usı revolyuciya jeńisi ushın bolǵan qan

tógispe sawashlar, bul urislarda qollanılğan biziń xalqımızǵa burın tanıs bolmaǵan áskeriy qural-jaraq, áskeriy dáreje atamaları qaraqalpaq tilinde kóplep áskeriy sózlerdiń payda bolıwına tiykar saldı.

Ullı watandarlıq urıs jıllarında tilimizge kirip kelgen qural-jaraq atamaları esabınan qaraqalpaq tili áskeriy leksikası jáne de bayıp bardı. Rus tilinen kirip kelgen áskeriy atamalar ishinde qural-jaraq atamaları, áskeriy injinerlik, áskeriy háreket atamaları, hár túrli dáreje-ataqlar, kiyim-kenshek atamaları, áskeriy transport atamaları tilimizge kirip keldi.

Rus tilinen ózlestirilgen atamalardı *starshina, komandir, granata, okop, vintovka, granatomet, minomet, pistolet, pushka, vzvod, polk, bronemashina, bronepoezd, gidrosamolyot, lyotchik, oxrana* t.b atamalar kiredi. Bul keltirilgen mısallar ilim-pán jetiskenliklerine baylanıslı qaraqalpaq tili leksikasına kirip kelgen sózler esaplanadı. J.Vandriestiń sózi menen aytqanda, “sózler ózleri ańlatatuǵın zatlardıń izinen ketedi”. [2:213]

A.Saburova rus tilindegi –ый/ая affiksleri qaraqalpaq tilindegi –ı, li affiksi menen ańlatıladı, –dep kórsetedi. Bul qaǵıydaǵa qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasında da mısallardı ushıratıwǵa boladı: броновый машина-bronlı mashina t.b. Belgili tyurkolog N.A.Baskakov qaraqalpaq tiline rus sózleriniń kirip keliwine Xiywa xanlıǵınıń Rossiya tárepinen baǵındırılıp, tiykarınan qaraqalpaqlar jasaytuǵın jerlerdiń Rossiya qol astına ótken dáwirinen baslanatuǵınlıǵın, al kópshilik rus hám rus tili arqalı Hind-evropa sózlerdiń ózlestiriliwi Ullı oktyabr socialistlik revolyuciyasınan sońǵı dáwirge tuwra keletuǵınlıǵın kórsetedi.[1:72] Buǵan biziń qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikası boyınsha júrgizilgen izertlewlerimiz dálil bola aladı. Qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasında rus hám rus tili arqalı basqa tillerden kirgen sózler búgingi kúnde de keń qollanılmaqta.

Rus tili arqalı ózlesken áskeriy atamalardıń kópshiligi XX ásirdeń ortalarına hám sońǵı jıllarına tuwra keledi. Bul sózler semantikalıq jaqtan rus tilindegi mánisin tolıq saqlawı menen sıpatlanadı. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tiliniń leksikası bayıtıw menen birge Qurallı kúshlerde keń qollanılauınlıǵı menen de belgili. Kórkem shıǵarmanıń tásirililigin támiynlewde, sóylew tilinde rus tilinen ózlestirilgen áskeriy atamalarınan awıspalı mánide de paydalanıladı. Olardıń kópshiligi qosımtalar qosılıw hám túpkilikli túrkiy sózler menen dizbeklesip kelip jańa sózlerdiń jasalıwına da sebepshi boladı. Qaraqalpaq tilinde rus tilinen ózlestirilgen ayırım atamalar qaraqalpaqsha sáykes ekvivalenti menen de aytıladı.

Waqıttıń ótiwi menen házirgi siyasat, jámiyetimizde bolıp atırǵan ózgerisler, hár bir respublikanıń óz armiyasına iye bolıwı tilimizdiń sózlik quramında, sonıń ishinde áskeriy leksikada jańa atamalardı payda etiwı sózsiz. Nátiyjede qaraqalpaq tiliniń óz sózlik qatlamına tiyisli sózler, sonday-aq túrkiy tillerine ortaqlı bolǵan jańa áskeriy

atamalar rus hám hind-evropa tillerinen kirgen sózlerdiń qollanıw órisin sheklewi múmkin. Qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasınıń tiykarın ulıwma turkey tillerine ortaq sózler, túrkiy hám mongol tillerine ortaq sózler, qaraqalpaq tiliniń óz sózlik qatlamında payda bolǵan sózler toparı quraydı. Sonday-aq arab hám iran , rus hám rus tili arqalı basqa hind-evropa tillerinen ózlestirilgen sózler toparı qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasınıń quramında belgili ornı iyeleydi.[3:54]

Solay etip, qaraqalpaq tiliniń áskeriy leksikasınıń quramındaǵı áskeriy sózler shıǵısı jaǵınan hár qıylı. Áskeriy leksika kóplegen ásirlerdiń jemisi bolıp, túrli táriyxıy dáwirlerde jańa sózler menen tolısıp qalıplesken. Kalkalanǵan sózlerdiń sociolingvistikalıq tárepi sol leksikalıq birliktiń qaraqalpaq tili sistemasındaǵı ornın belgileydi.

PAYDALANILǵAN ÁDEBIYATLAR

1. Баскаков Н.А. Состав лексики каракалпакского языка и структура слова. –Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. -М., 1962, 72с.
2. Вандриес Ж. Язык.-М. 1937,-С. 213.
3. Даўлетова У. Қарақалпақ тилиндеги әскерий лексика. Кон. Дис. -Нөкис 1994. 54-б.
4. Dosjanova G. Qaraqalpaq tilinde úy buyımları atamalarınıń semantikalıq hám morfologiyalıq ózgeshelikleri (monografiya) . -Nókis, «Ilimpaz», 2021, 49-b.
5. Хамидов Х. Ески карақалпақ тилинің жазба естеликleri. -Нөкис. 1985, 105-111-б.
6. Atabaeva, G. (2022). K. KARIMOVTIŃ «AǴABIY» ROMANINDA GÓNERGEN SÓZLERDIŃ QOLLANILIWI. *Research and education*, 1(8), 10-15.
7. Gózzal, A. (2022). Qaraqalpaq tilindegi frazeologizmlerde aralas qollanıǵan sanlıqlar. *Talqın va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(16), 147-150.
8. Gozzal, A. (2023). THE USE OF ARCHAIC WORDS IN THE NOVEL "AGABIY" BY K. KARIMOV. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 8, 65-67.

АТМОСФЕРА ҲАВОСИНИНГ ИФЛОСЛАНИШИ МУАММОСИ

Т.ф.н. **И.Мурадов**
катта ўқитувчи. **И.Файзуллаев**
ҚарМИИ Энергетика факултети.

АННОТАЦИЯ

Иссиқлик электр станцияларида ва йирик саноат корхоналарида ёқилаётган органик ёқилгиларнинг ёниши натижасида сўнги йилларда атмосферага карбонат ангидриднинг ажралиб чиқиши тўрт бараварга кўпайди. Улардан чиқаётган тутун газларининг ҳавога қушилиши техноген ифлосланишни келтириб чиқарди. Ушбу муаммолар куйидаги мақолада атрафлича ёритилган.

Таянч сўзлар: атмосфера, карбонат ангидрид, тажоввузкор, техноген ифлосланиш, углерод чиқиндилари, кислотали ёмғирлар, ўсимликлар дунёси, энгил учувчан олтингугурт.

АННОТАЦИЯ

В результате сжигания органического топлива, сжигаемого на тепловых электростанциях и крупных промышленных предприятиях, выброс углекислого газа в атмосферу за последние годы увеличился в четыре раза. Выбросы дымовых газов от них стали причиной техногенных загрязнений, эти проблемы подробно рассмотрены в статье.

ANNOTATION

As a result of the combustion of fossil fuels burned in thermal power plants and large industrial enterprises, carbon dioxide emissions into the atmosphere have quadrupled in recent years. Flue gas emissions from them have become the cause of man-made pollution; these problems are discussed in detail in the article.

Йирик саноат иншоатлари жойлашган Навоий, Олмалик, Чирчиқ, Ангрен, Фарғона, Бекобод шаҳарлари ҳавоси таркибида CO₂ нинг миқдори нормадаги 0,03% эмас, балки 0,05%га етганлиги ташвишли ҳолатлардан ҳисобланади. Соҳа мутахассисларининг маълумотларига қараганда ҳар йили республикада атмосфера ҳавосига 4 миллион тонна турли хил заҳарли модда ва элементлар қўшилмоқда. Жумладан, ушбу чиқиндиларнинг 50% и углерод

оксиди, 15% и углерод чиқиндилари, 14% и олтингугурт кўш оксиди, 9% и азот оксиди, 8% и турли хил қаттиқ моддалар бўлиб, қолган 4% и эса ўзига хос ўта кучли заҳарли моддаларга тўғри келади.[1].

Оддий қилиб айтадиган бўлсак, ҳавосиз 4-5 дақиқа, сувсиз 4-5 кундан ортиқ яшаш мумкин эмаслигини биз жуда яхши биламиз. Афсуски XXI асрга келиб инсониятнинг нотартиб кескин кўпайиши фан - техниканинг илдам ривожланиши оқибатида атмосфера ҳавосига ўн минглаб турли модда ва бирикмаларнинг кўтарилиши оқибатида ҳаво таркиби ифлосланмоқда, кислород миқдори сезиларли даражада камайиб, карбонат ангидрид миқдори сезиларли даражада ортмоқда. Масалан, тошкўмир даврида атмосфера ҳавоси таркибидаги кислороднинг миқдори 35% ни ташкил этган бўлса, XX асрга келиб бу кўрсаткич 20% га тушиб қолган. XX аср бошларида атмосфера ҳавоси таркибидаги карбонат ангидридининг миқдори 0,03% ни ташкил этган бўлса, аср охирига келиб бу кўрсаткич дунё атмосфераси ҳавоси таркибининг 0,04% ини, саноати ривожланган шаҳарлар атмосфера ҳавосининг (Навоий, Тошкент, Ангрен, Чирчиқ шаҳарлари ҳам) 0,05% ини ташкил этмоқда.[2]

Атроф-муҳитни ифлослантирувчи яна бир тармоқ иссиқлик электр станциялари бўлиб, электр қуввати ишлаб чиқарадиган қозонларда кокс, газ, мазут ва тошкўмир ёнади. Тошкўмир таркибидаги олтингугурт миқдори 1-8% бўлиб, ёнганда ундаги олтингугуртнинг 10-12% и тўлалигича ёнмайди. Ёнган 88-90% турли хил моддалар кимёвий жараёнларда ҳаво билан аралашиб, SO₂, SO₃ гази ҳолатида атмосфера ҳавосига кўтарилади ва ҳавода совиб ҳаво таркибидаги (H₂O) сув билан ўзаро таъсирлашиб сульфид ва сульфат кислоталарга айланади ва кислотали ёмғирлар шаклида ерга тушиб атроф-муҳитни ифлослайди: Бу моддалар эса, бутун жонли табиатни, жумладан, инсонни ва ўсимликлар дунёсини нобуд қилувчи тажоввузкор омиллардир. 1 кг тошкўмир таркибида 4% олтингугурт бўлса, ёқилғи ёниши учун 20 м³ ҳаво зарур бўлади, ҳаво таркибига 40 гр олтингугурт сингади ундан 36 грами енгил учувчан олтингугурт бўлиб, 72 грамм сульфат ангидрид ҳосил қилади. Бу дегани ҳар 1м³ атмосфера ҳавосида 7,2 грамм сульфид ангидрид (SO₂) мавжуд демақдир. Шунингдек тошкўмирнинг ёниш жараёнида 30-35% кул

ҳавога чиқади. Айнан Ангрен, Оҳангарон ва Ширин шаҳарларидаги ГРЭС лар борки бир кеча кундузда бир неча минг тонналаб кўмир ёқади. Масалан, АҚШдаги «электросите де франц» иссиқлик электростанция компанияси бир кеча кундузда 1,7-2,0 минг, бир ойда 51-60 минг тоннагача кўмир ёқади, оқибатда ундан ҳар куни 33 тонна сульфат ангидрид ва 250 тонна кул ҳавога кўтарилади. Саноат ишлаб чиқаришининг ривожланиши билан ишлаб чиқариш корхоналари мавжуд бўлган шаҳар аҳолиси катта азият чекмоқда. Жумладан Нью-Йорк шаҳрининг ҳар 1 км² майдонида бир ойда ўртача 20-25, Токиода эса 50 тоннагача курум ерга тушмоқда. [3].

Энг сўнгги илмий тадқиқот натижаларига кўра ҳаво ҳарорати ХХ асрда шимолий ярим шарда сўнгги минг йилликда энг кучлиси ҳисобланиб, энг иссиқ, ўн йиллиги сўнгги 15 йилга тўғри келди (1985-2000).

- □ Уларнинг ичида энг иссиқ йил 1998 йил бўлди. 1998 йилнинг ўзида рўй берган табиий офатлар 80-йиллар мобайнида юз берган барча табиий офатлардан кўпроқ талофат келтирди.

- □ Саноат ишлаб чиқариши салмоғининг кескин ортиши туфайли сўнгги 50 йилда карбонат ангидрид ажралиб чиқиши тўрт баробар кўпайди. Дунё қитъаларида ёғадиган ёғингарчилик миқдори 1% га кўпайди, денгиз сувларининг ўртача сатҳи 10-15 сантиметрга кўтарилди, 2100 йилга бориб 95 сантиметргача кўтарилиши башорат қилинмоқда, сўнгги 100 йилда иқлимнинг глобал исиши оқибатида жаҳонда ер юзининг ўртача ҳарорати фаренгейт бўйича 0,6-1,2⁰ С да исийди (БМТ нинг минг йиллик маърузасидан). БМТнинг иқлим ўзгаришлари доирасидаги конвенцияси ва унга 1997 йилда Киотода қабул қилинган протоколи, жаҳон давлатларининг мазкур муаммони бартараф этиш учун ўзаро тузилган сулҳлари бунга бир мисолдир.

Атмосферанинг ифлосланиши ҳавога ниҳоятда кўп миқдорда захарли ва зарарли моддалар: чанг-тўзон, тутун, микроблар, ўсимлик чанглари, углерод оксиди, водород сульфид, утлеводородлар, органик моддалар, сульфидлар, нитратлар, кўрғошин, темир, фтор бирикмалари, радиоактив моддалар, пестицидлар кўшилиши демакдир. Бу химиявий маҳсулотларнинг кўпчилиги атмосферада ўзгаришсиз қолмайди. Балки қуёш нури таъсирида атмосферада, озон «экрани»да ҳали тўлиқ ўрганилмаган химиявий реакциялар вужудга келтириб, яна ҳам зарарлироқ янги бирикмалар ҳосил қилиши мумкин. Ҳавога кўшилган аралашмалар атмосферанинг хусусиятига ва унинг табиий муҳитига,

шу жумладан, биосфера таркибини ҳам ўзгартиради.

Ёқилғи ва ёнилғиларнинг ёниши, саноат ишлаб чиқариши, транспорт ва бошқалар атмосферани ифлослайдиган асосий манбалар бўлиб, улардан чиқадиган маҳсулотларнинг ҳавога қўшилишига *техноген ифлосланиш* дейилади. Техноген ифлосликнинг катта қисми ёқилғиларнинг ёнишидан ҳосил бўладиган газсимон маҳсулотлардир; уларнинг миқдори йилдан-йилга кўпаймоқда. Газсимон маҳсулотларнинг асосий тури карбонат ангидрид гази (CO₂) ҳақида юқорида айтиб ўтилди. Ҳар йили атмосферага қўшиладиган CO₂ нинг миқдори ҳақидаги фикрлар ҳар хилдир. Баъзи олимлар атмосферага ҳар йили 14 млрд. тонна CO₂ қўшилади деса, бошқалари 23 млрд. тонна дейишмоқда. CO₂ дан бошқа газларнинг миқдори 500 млн. тоннадан кам эмас; шунинг 200 млн. тоннасини утлерод оксиди, 50 млн. тоннадан кўпроғини ҳар хил углеводородлар, 146 млн. тоннасини сульфат оксиди, 53 млн. тоннасини азот оксидлари, қолганини бошқа газлар ташкил этади. Масалан, 100 йил мобайнида бутун дунёда ёқилган 90 млрд. тонна кўмрдан ер шарининг ҳаво қобиғига аэрозоллар кўринишида 3 млрд. тонна кул, 1,35 млрд. тонна кремний, 1,5 млн. тонна маргумуш, 1 млн. тоннадан кўпроқ никель, 0,9 млн. тонна кобальт, 0,6 млн. тонна рух, 0,6 млн. тонна сурьма чиқариб ташланган. Олимларнинг маълумотларига кўра, Англияда да йилига 200 млн. тонна кўмир, 20 млн. тонна нефть ёқилиб, ҳар йили атмосферага 5,3 млн. тонна олтингугурт гази, 24 млн. тонна утлерод оксиди (CO), 2,1 млн. тонна тутун ва қурум (қорақуя) чиқариб ташланган. [2].

Кўмир ишлатадиган корхоналар орасида ҳавони ифлослаши жихатдан биринчи ўринда турадигани иссиқлик электр станцияларидир. Масалан, қуввати ўртача бўлган битта ГЭЦ бир суткада 2000 тонна кўмир ёқиб, ҳавога 400 тонна кул ва 120 тонна олтингугурт гази чиқаради.

Эътироф этиш керакки XX асрда аксарият саноат, қишлоқ хўжалиги ва барча соҳаларни ривожлантириш асосан экстенсив усулда ривожлантирилди. Жумладан, энергетика соҳаси ҳам худди шу йўлдан борди. Соҳа мутахассислари ва экспертларнинг электростанцияларнинг фойдали иш коэффициентини ўртача қиймати 30% бўладиган бўлса, сўнгги чиқитсиз серунум технологиялардан фойдаланиб, унинг фойдали маҳсулот коэффициентини икки баробар ошириш мумкин экан. Бунга эса, электр энергияси ва иссиқлик ишлаб чиқариш режимида ишлайдиган газ турбиналарига ўтишнинг ўзи кифоя қилади. Чунки бу янги моделнинг фойдали иш коэффициенти деярли 60% ни ташкил этди. Демак, ушбу усулни қўллаб, ушбу соҳадан сунъий иссиқхона эффекти ҳосил бўлиш жараёнидаги айни соҳа ҳиссасини икки баробарга, умумий иссиқхона

эффeкти ҳосил бўлиш улишини бўлса, шунга мос равишда қандайдир фоизда камайтириш мумкин бўлади. Яъни сўнги моделни қўллаб иссиқхона газлари чиқиндиларини камайтиришига имкон беради. Ер қаъридан қазиб олинадиган ёқилғи турларини қазиб олиш ва ташиш жараёнидаги йўқотишларни ҳам минимумга келтириш мумкин. Ҳозирга қадар нефть конларидан чиқаётган газлар ҳавони айни конлардан чиқаётган турли хил газлар билан ўта ифлосламаслик учун ёқиб юборилади. [4].

Янги яратилган технологияларга, асосан маҳаллий эҳтиёжлар учун электр энергияси ишлаб чиқаришга мўлжалланган кичик қурилмалар ўрнатиш ёки газни суюлтириб ундан транспорт воситаларида ёки яқин жойлашган саноат корхоналарида фойдаланиш мумкин. Энергия янада самарадор технологиялар уй-жой секторидан қўлланилиши мумкин. Бу секторда коммунал хизматлар (электр, газ ва иссиқлик таъминоти)га талаб ортаётганлиги учун иссиқхона газлари чиқиндилари ҳажми ўсмоқда. Лекин, энергия ва иссиқлик ишлаб чиқариш технологиялари эскилигича қолмоқда. Биноларнинг иссиқлик изоляцияси, иссиқлик тармоқларининг ҳолати ҳам янада яхшилашни талаб этади. Қозонхоналар самаралилигини кўтариш, бинолардан фойдаланишда назоратнинг янги турларини қўллаш, қуёш энергиясидан фойдаланишда янги ечимларни топиш, изоляция учун янги кимёвий моддаларни қўллаш, иситиш ва совитиш тизимларининг янада самарали бўлишини таъминлаш лозим. Иссиқхона газлари чиқиндиларини тикланадиган энергия манбалари, жумладан шамол, қуёш ва унча катта бўлмаган гидроиншоотлардан фойдаланиш ҳисобига ҳам камайтириш мумкин. Ҳозирги кунда дунё миқёсида шамол турбиналардан фойдаланиш йилига 25% дан кўпроқ ортмоқда. Қуёш энергияси ва биомассалар энергиясидан.[3].

Шуни очиқ эътироф этиш керакки, бугунги авлоднинг аксарияти ҳеч шубҳасиз шаҳарларда яшашни хоҳлайди. Урбанизациянинг кучайиб бориши объектив жараён, демак уни тартибга солиб туриш давр талабидир. Чунки шаҳарларнинг кўпайиши ва йириклашиб бориши ўз ўзидан қуйидаги бир қатор муаммоларни келиб чиқишига сабаб бўлади:

1. Авваламбор ушбу шаҳар ҳудудида азалдан яшаб келган ўтроқ халқ азият чекади, чунки улар деҳқончилик, чорвачилик билан шуғулланишдан маҳрум бўлади.

2. Шаҳарлар ҳудудининг кенгайиши билан унумдор тупроқлар шаҳар қурилишлари остига қолиб деҳқончилик муомуласидан чиқиб кетади.

3. Табиий ўсимликлар дунёси ҳайвонот олами мутлоқо йўқ бўлади.

4. Шаҳарлар атрофидаги сув ҳавзалари мутлоқо ифлосланади.

5. Шаҳар аҳолиси кўпроқ турли хил касб касалликлари ва юқумли касалликлар билан касалланади.

6. Саноат, транспорт ва хўжалик маиший чиқиндилари билан атмосфера ҳавоси атроф-муҳит қишлоқ жойларга нисбатан 20-25 марта кўпроқ ифлосланади ва шаҳарлар ҳавоси ҳарорати қишлоқлар ҳавоси ҳароратига нисбатан 2-3 даража иссиқ бўлади.

7. Сўнгги статистик маълумотларга кўра, шаҳар аҳолисининг аксарияти шовқинлар билан боғлиқ бўлган касалликлардан кўпроқ шикоят қилмоқдалар. Шаҳарлар атроф-муҳитини ифлосланишига асосий сабабчи бўлган омилларга қуйидагилар киради.

1. Уй-рўзғорлардан чиқадиган маиший чиқиндилар (ўртача ҳар куни бир кишига 3 кг.дан тўғри келмоқда)

2.Транспорт воситалари

3.Авиация воситалари

4. Саноат ишлаб чиқариш корхоналари ва ҳоказолар[4,5].

Табиат бойликларининг тикланиши унинг харажат сарфига нисбатан миллион-миллион йилларни ташкил этганлиги сабабли ҳам тез тугаб бормоқда. Шу сабабли ҳам бу каби табиат бойликларни авайлаб-асраш ва ундан оқилона фойдаланиш зарур. Минг афсуслар бўлсинки, ўтган мустабидлик йилларида, асосан, халқ, миллат бойлиги ҳисобланган қимматбаҳо буюмлар, олтин, кумуш, платина ва бошқа ноёб металллар турли боҳоналар билан марказга ташиб кетилди. Аслида эса, бу каби қимматбаҳо бойликлар халқ ва миллат бойлиги манбаи сифатида ҳар бир давлат ёки миллатнинг келажак авлодларга қолдирадиган миллий мероси бўлиб у давлатнинг ўз хазинасида сақланиши зарур эди.[1]

Адабиётлар.

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Резников М. И., Липов Ю. М. «Паровые котли тепловых электрстанций» М. Энергоатомиздат, 1981.
3. Резников М.И., Липов Ю.М. «Котелные установки электростанций» М. Энергоатомиздат, 1987г
4. Стырикович М. А., Катковская К. Я, Серов Е. П. «Парогенераторы электрстанций» М. – Л. Энергия 1966 г.
5. Мухиддинов Д.Н, Матжонов Э.К. Иссиқлик электр станцияларининг турбинали қурилмалари.-Тошкент,Шарк нашриёти. – 2007. -104 бет.

ЖАМИЯТ РИВОЖИДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ФЕНОМЕНИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ

Сапарова Гулбахар Айтбаевна

Нукус давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори (PhD), доцент

АННОТАЦИЯ

Мақолада инсониятни қизиқтирган вазифалардан бири бўлган ижтимоий меҳнат, ўз-ўзини англашнинг шаклланиши ва ривожланишининг бошланиши масалалари муҳокама қилинади. Жамият тараққиётида ўз-ўзини англаш ва маънавий қадриятларнинг ўзаро боғлиқлиги ёки концептуал вазифаларни ўрганиш жараёнида миллий, этник каби катégorик тушунчалар тафсифланади. Шунингдек, бугунги глобаллашув шароитида миллий ўзликни англаш эҳтиёжининг мунтазам ортиб боришида алоҳида ўрин тутади.

Калит сўзлар: жамият, маданият, маънавият, санъат, урф-одат, анъана, миллат, миллий ўзликни англаш, қадрият, диний эътиқод.

Кириш

Миллий ўзликни англаш феноменига назарий-фалсафий нуқтаи назаридан ёндашишдан шундай хулосага келиш мумкинки, биринчидан, индивидуал ва оммавий миллий ўзликни англаш онг ёки кундалик онг даражаларида ижтимоий-тарихий муносабатлар ва психологик жараёнлар таъсирида назарий даражага кўтарилиш имкониятига эга бўлиш мумкин; иккинчидан, оммавий ва кундалик онг даражасида миллий ўзликни англаш жараёнида сезги ва хиссиёт кучли бўлади ва бу даражадаги миллий психология фаол таъсир кўрсатади; учинчидан, миллий ўзликни англаш ривожидида маънавий ва маданий мерос ва муносабатларни билиб олинганлиги боис миллий ҳаётнинг бугунги ва истиқболи юзасидан фикр юритиб зарурий хулосаларга келиш қобилиятига эга бўлади; тўртинчидан, миллий ўзликни англаш тизим сифатида нафақат ўтмиш мероси, тарихий қадриятлар, диний қарашлар, шу билан бирга “миллатнинг манфаатлари, миллий тарққиёт эҳтиёжлари, ҳал этилмаган муаммолар, ниҳоят миллатнинг тарихий тақдири ҳақида қайғуриш”¹ юзага келади; бешинчидан,

¹ Межнациональные отношения: Термины и определения, словарь-справочник. – Киев, 1991. С.33-34.

миллий ўзликни англаш миллий онг ва миллатларнинг шаклланиши билан узвий боғлиқлигидан миллатлар ҳақидаги фикрларни ўрганишни тақозо этади.

Материаллар:

Миллий ўзликни англаш масаласи турли фан соҳаси мутахассисларининг анча вақтдан буён қизиқтириб келаётган тадқиқот объектларидандир. Қадимги дунё файласуфларидан тортиб, ҳозирги давр тадқиқотчилари бу масала билан шуғулланганлар.

Истиқлол йиллари халқимизнинг жаҳонга машхур аждодлари маънавий-маданий меросини тиклашга йўл очилиб, уни ўрганишга реал имкониятлар яратилди. Бундай бой маънавий мероснинг ижодкорлари Шарқ алломалари: Абу Али Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Абу Наср Форобий, Абу Ҳамид Ғаззолий, Азизиддин Насафий, Жалолиддин Румий, Бурҳониддин Марғиноний, Имом ал-Бухорий, имом Ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд, Алишер Навоий, Хўжа Убайдуллоҳ Ахрор ва бошқалар ҳисобланиб, уларнинг асарларида ўзликни англашга оид турли назарий ва амалий фикр ва хулосалар ўз ифодасини топган. Бу аллома олимларнинг кўпқиррали ижодида олам ва унинг мавжудлиги, уни идрок этиш, одам ва халқлар руҳиятига оид диққатга молик фикрларни учратиш мумкин. Жумладан, Форобийнинг «Фозил одамлар шаҳри» асарида одамлардаги психологик бирлик ҳақида фикр юритилади, олимнинг фикрича, бундай бирлик меҳр-оқибат, ўзаро келишувни шакллантирган уруғ-қабилла муносабатларига асосланади. Шу билан бирга бундай бирлик хулқий нормалар ва тил бирлигига таянади. Яна Форобий одамларнинг борлиққа муносабатида ва ўзлигини англашида жамоавийликка бирлашиши зарур деб тушунади.

Усуллари:

Ҳар бир инсон яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун бир ўзи бундай нарсаларни кўлга кирита олмайди «...уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёж туғилади».¹ Форобийнинг халқларни ўзига хос руҳий (психологик) бирлик ҳақидаги фикрлари улар ўртасидаги боғлиқлик хусусиятларини тушуниб етишга хизмат қилди. У ўзининг ижтимоий-фалсафий қарашларининг марказига инсонни, унинг орзу-умидларини, ахлоқий камолотга эришиш йўлларини кўрсатишни кўяди. Ахлоқий камолот деганда файласуф гўзал инсоний фазилатларни тушунади. Бундай фазилатларга инсон ўз-ўзини англаш ёки миллий ўзликни англаш орқали эришади. У бундай ёзади: «Ҳақиқатда ҳар бир борлиқ ҳеч сўзсиз ўз вужудига ўзига хос бўлган мартаба-энг юксак камолотга эришиш учун борлиққа келган. Инсон учун хос бўлган бу

¹ Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри». -Тошкент:А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. - Б.172.

камолотнинг номини энг етук бахт-саодат деб аталади».¹ Ўз-ўзини англаш инсоннинг камолотга эришишини муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Ҳар бир одам, миллат, элат, халқ ўз этник маданиятини, муайян этник гуруҳга мансублигини, кадриятлари, дини, урф-одатлари, анъаналарини билмай туриб комилликка эришиши қийин бўлади. Шунинг учун Форобийнинг қарашларида комилликка етишишга халақит қилувчи салбий омиллар: билимсизлик, нодонлик, дангасалик, онгсизлик кабиларни олдини олгандагина ўз-ўзини англашга, етукликка эришади деган фикрни илгари суради.

Беруний «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асарида халқларнинг тили, урф-одати, анъаналари, дини тўғрисида муҳим фикрлар билдирган. Олимнинг фикрича, одамга ташқи оламни, нарса ва ҳодисаларни, шу жумладан ўзи ҳақидаги билимларни идрок этиш учун ақл берилган. Инсоннинг ақлий қобилиятлари, фикрлаш, муҳокама қилиш, ўйлаб топиш, хотира оламини янада тиниқроқ тасаввур этиш учун инсонга берилган «Тангри тухвасидир». «Ақлий қобилиятлар туфайли инсон ташқи муҳитда содир бўлаётган ўзгаришларнинг бирини иккинчисига топширтиради, таҳлил қилади, ростни ёлғондан, адолатни адолатсизликдан, яхшини ёмондан, ҳақиқатни ноҳақдан ажратади».²

"Yashil iqtisodiyot" jamiyatni ekologik asosda rivojlantirish uchun likvid resurslarni saqlashni o'z ichiga oladi. "Yashil moliya" ham tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitning hozirgi holatini saqlash uchun vosita bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, "yashil moliya" hozirgi bosqichda jamiyat barqaror rivojlanishining zarur shartlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun ularga iqtisodiy barqarorlikni saqlash va rivojlantirish mexanizmining muhim elementi sifatida qaralishi kerak. "Yashil moliya" tushunchasi "inson - tabiat", "iqtisodiyot-ekologiya" tizimida likvid resurslarning aylanishiga ixtisoslashgan bo'lib, ularning predmeti mustaqil bilim sohasiga ta'luqli, ammo moliyaning umumiy rivojlanish qonunlari talablari asosida amalga oshadigan moliyaning o'ziga xos tizimidir. "Yashilmoliya"ning pirovard maqsadi atrof-muhitdan oqilona foydalanish, CO₂ chiqindilarini kamaytirish va past uglerodli iqtisodiyotga erishish hisoblanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik doimiy nazorat, qayta ko'rib chiqish va bartaraf etishni talab qiladigan ko'plab muammolarga duch keldi. Ular orasida, birinchidan, insonning iqtisodiy faoliyati ta'sirida CO₂ gazlarini normadan ko'payishi, atrof-muhitning buzilishi bo'lib, bu tabiiy muvozanatni tiklash uchun tegishli yashil moliyalash, davlat aralashuvi kabi g'oyat muhim choralar ko'rishni talab qiladi; ikkinchidan, iqtisodiyotni ekologik toza texnologiyalarga o'tkazish bilan bog'liq yangi imkoniyatlar va buning uchun suv va havodek zarur bo'lgan xorijiy investitsiyalardir. CO₂ gazlarining global chiqindilari xajmi 2016 yilga nisbatan 2020 yili tarixda birinchi marta 5,8 % ga qisqargan edi. Biroq, 2021 yilga kelib, energetika tarmoqlarida ko'mir, gaz va neftdan jadal foydalanilganliklari sabab CO₂ uglerod chiqindilari xajmi 4,8 % ko'paydi, ya'ni CO₂ uglerod chiqindilari 1500 Mt. ga ko'paydi. 2021 yil jahonda ko'mirni iste'mol qilish avvalgi (2018 y.) darajasiga ko'tarildi va CO₂ uglerod chiqindilarni global darajasi 640 mln. Tonna bo'ldi, bu esa ko'mirdan chiqayotgan CO₂ uglerod chiqindisi 14,8 gt. yoki 2019 yilga nisbatan 0,4 % yuqori bo'ldi.

Tabiiy gazni yoqishdan 2021 yili CO₂ uglerod chiqindilari 215 mln. Tonna bo'lib, rekord darajaga erishdi. Shuni ham aytish kerakki, 2021 yili global CO₂ uglerod chiqindilarining 65 % i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda CO₂ uglerod chiqindilari 2019 yilga nisbatan 600 million tonnaga ko'p bo'ldi. Xitoyda energetika sohasida ko'mirdan foydalanish 330 TBtr yoki 7 % ga oshdi. Hindistonda ham ko'mirdan foydalanish 2021 yili rekord darajada bo'lib, 2019 yilga nisbatan CO₂ uglerod chiqindilari 30 million tonnaga ko'paydi va 2022 yili CO₂ uglerod chiqindilari vaqtincha normallashti. AQSh da ham sanoat iqtisodiyoti ko'mir va gazga bog'liq bo'lib, CO₂ uglerod chiqindilari 2019 yilga

nisbatan 2021 ili 1,4 % ga ko'paydi. Yevropa davlatlarida CO₂ uglerod chiqindilari 2021 yili 2019 yilga nisbatan 80 million tonnaga kamaygan bo'lsada, bu davlatlarda ko'mir va gaz asosiy yoqilg'i sifatida qo'llaniladi.



Atmosferaga chiqaradigan CO₂ emissiyasi eng yuqori bo'lgan davlatlar infografikasi.[2]

Jahonda 2021 yili 859 milliard dollarlik “Yashil” va ijtimoiy obligatsiyalar chiqarildi va iqlim o'zgarishiga, ekologik muammolarga hamda yashil energetikaga sarflandi. 150 milliard dollarlik ijtimoiy obligatsiyalar aholi sog'ligini yaxshilashga, chuchuk suv bilan ta'minlashga, “Yashil” transportni rivojlantirishga sarflandi. Bunday ikki tomonlama yondashuv, bir tomondan, jamiyatning atrof-muhit yaxlitligi, hayotning davom etishi hamma uchun munosib mehnat sharoitini yaratish bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi “yashil” investitsiya istiqbollari ta'siri ostida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga olib keladi. Uchinchi tomondan, bugun jamiyat biosfera ishlab chiqarayotgan resurslardan 50 % ko'p iste'mol qilmoqda, ya'ni odamzod tabiat takror ishlab chiqarish qobiliyatidan ko'p iste'mol qilmoqda. Inson faoliyatining asosiy qismi uyda, ishxonada, maktabda, institutda, sport zalida, poliknikada, oshxonada, magazinda, ko'chada o'tadi. Ishxonada juda ko'p resurslar, energiya,

materiallar, jihozlar ishlatiladi va ulardan doimo uglerod gazlari, iflos changlar va chiqindilar chiqariladi. Buning natijasida atrof-muhitga ifloslanishi hech kimni qizirtirmaydi. Inson ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi. Ishlab chiqarayotgan texnologiyalarning ekologik sertifikatga egaligi va atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar ekologik normalar asosida malga oshirish muhim hisoblanadi hamda bu masalalar ilmiy tadqiqotlarda to'la o'rganilgan emas.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va biznesni rag'batlantirish, ayniqsa investitsiyalar va kreditlash nuqtai nazaridan, ko'pincha raqobatbardosh maqsadlar sifatida belgilanadi. Biroq, shu bilan birga, innovatsiyalarning yangi to'liqini tobora kuchayib borayotganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bu jarayon esa o'z navbatida tabiiy muhit va biznesning qo'shilishiga olib keladi. Bunday uyg'unlik natijasida iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladigan va yaqin kelajakdagi taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini belgilashga qodir bo'lgan sinergetik effekt yuzaga keladi. Ushbu rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan iqtisodiyotni quyidagi yo'nalishda qayta qurish bilan bog'liq: qayta tiklanadigan energiya manbalardan foydalanishga asoslangan energetika mustaqilligi uchun kurashdan tortib, "yashil" texnologiyalarni jadal joriy etishgacha bo'lgan ulkan doirani o'z ichiga olib, "Iqtisodiyotni yashillashtirish" "ish joylarini yaratish va "yashil" turmush tarzini butunlay qamrab oladi. Natijada iqtisodiyot barqarorligi oshib, insoniyat farovonlik darajasi oshadi, bu esa kelajakda barqaror taraqqiyotning muhim shartiga aylanadi.

Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3,6 martaga o'sgani holda, dunyo yalpi ichki mahsuloti miqdori 18 martadan ko'proqqa ortgan.[3] Shuni aytish kerakki, dunyo aholisining ko'payishi va iqtisodiy o'sishning muntazam ravishda atrof muhitga bo'lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So'ngi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000 yilda 1900 yilga nisbatan) oshdi, tropik o'rmonlarning yo'qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,5 martaga ko'paydi.[4] Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o'zgarishlari o'rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bo'yicha agentlik hisobotiga ko'ra, rivojlanish va ehtiyojlarni qondirish uchun sezilarli miqdordagi uglevodordlarni talab etuvchi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaning joriy holati o'zgartirilmasa 2050 yilda 2022 yilga nisbatan insoniyat 5 mln. kishini yo'qotishi mumkin.[5] Iqlim va global tabiiy tizimning o'zgarishi inson hayotining barcha jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatlar aholisi turmush darajasini yomonlashtiradi. Jahon yalpi iste'molining o'sishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Resurslarning cheklanganligi, yer kurrasi vamokeanda qancha miqdorda mavjudligi ularga xos xususiyat hisoblanadi. Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq muddatli

davrda intensiv ishlatish oqibatida tugashi mumkin. Yer kurrasidagi mavjud aksariyat resurslarning umumiy hajmi iste'mol qilinayotganidan minglab, millionlab marta ko'pdir. Misol uchun, 1990 yilda sanoat zaxiralarining o'rtacha yillik iste'molga nisbati temir rudasi bo'yicha 250 yilni, nikel bo'yicha – 76, alyuminiy bo'yicha – 280, kumush bo'yicha – 60, ko'mir, tabiiy gaz va neft bo'yicha – mos ravishda 400, 71 va 45 yilni tashkil etgan. Qazib chiqarish hajmining ortishi natijasida xom-ashyo zaxiralari miqdori kamayib bormoqda. Sanoat uchun ishlatiladigan xom-ashyodan samarali, tejamkorlik bilan foydalanish va yangi konlarni qidirib topish resurslarni ko'paytiradi.[6]

Tadqiqotlarga ko'ra jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050 yilga qadar har yili 2 trln. dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi. Bu davrda dunyo aholisi soni 28 % ga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71 %ga ortishi bashorat qilinmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qat'iy choralar ishlab chiqilmas ekan, metallar, biyoqilg'i, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste'moli 85 mlrd. tonnadan 186 mlrd. tonnagacha ko'payishi mumkin. Iqlim o'zgarishi va global isishni oldini olish uchun sarflanayotgan investitsiyalar aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot ulushining 3,7 % ga qisqarishiga olib kelgani holda resurslardan samarali foydalanish amaliyotini joriy etish ushbu yo'qotishni qoplab ketishi mumkin.

Mavjud vaziyatda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani tiklanadigan energiya resurslaridan foydalanishga o'tkazishning eng optimal yechimi, deb hisoblash mumkin. Dunyoning deyarli barcha mintaqalarida qayta tiklanuvchi energetika (quyosh, shamol, gidroenergetika va bioenergetika) sektoridan foydalanish bila bog'liq sezilarli salohiyat mavjud. Jumladan, Xalqaro tiklanadigan energiya agentligi ma'lumotlariga ko'ra, Kanada va AQSh tiklanadigan energiya resurslaridan mos ravishda 96 636 va 214 766 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni yaratdi. Rossiya o'zining sezilarli darajadagi salohiyati va xilma-xil iqlimi bilan tiklanadigan energiya resurslaridan yiliga 51 747 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yarata oldi. Braziliya va Xitoy qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan mos ravishda yiliga 122 951 va 545 206 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni ishga tushirdi. Bu borada Afrika mutlaqo autsayde hisoblanadi. Jumladan, butun Afrika mintaqasi tiklanadigan energiya resurslaridan 38 192 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatlariga ega.[7]

Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, "sof texnologiyalar" ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. Jumladan, BMTning 2014 yilda taqdim etilgan "An Action Agenda for Sustainable

Development” nomli hisobotida mamlakatlarning barqaror rivojlanish darajasini belgilab beruvchi quyidagi ko‘rsatkichlar keltirilgan: iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, atrof muhitni himoya qilish va saqlash, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash. Iqtisodiy o‘rta mamlakat barqaror rivojlanishining muhim jihati xisoblansa-da, bunda atrof muhit muvozanatining ta‘minlanishi, ekologik muammolar keltirib chiqaruvchi omillarning bartaraf qilinishi, aholi daromadlari darajasidagi tengsizlik, tinchlik kabi ko‘plab omillar inobatga olinadi.

Aksariyat mamlakatlar “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasida aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishadi. BMT Yevropa iqtisodiyot qo‘mitasi mutaxassislarining ta‘kidlashicha, “yashil iqtisodiyotga o‘tishdan ko‘zlangan maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga “yashil investitsiyalar”ni yo‘naltirishni rag‘batlantirish hisoblanadi. Ushbu investitsiyalar muhim iqtisodiy resurslar hisoblangan tabiiy kapital va ekotizimlardan nisbatan samarali usullar yordamida foydalanish yoki ularni tugab qolishi yoki degradatsiyalashuvi riski paydo bo‘lganda boshqa muqobil resurslar bilan almashtirishga yordam beradi. Investitsiyalar bir vaqtning o‘zida ijtimoiy adolat uchun sharoit yaratishi va fuqarolarga munosib ish o‘rinlarini barpo etishi zarur. Atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishni yaxshilash kabi vazifalar “yashil iqtisodiyot”ning vazifalariga kiradi.[8]

Jahon mamlakatlarida faoliyat yurituvchi “yashil” moliyalashtirish va kreditlash dasturlari, shuningdek, qo‘shma ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro mablag‘larni jalb qilish tajribasi qiziqtirib kelmoqda. Ma‘lum bo‘lishicha, iqtisodiy tanazzul, sanksiyalar va cheklangan byudjet resurslari sharoitida “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning yangi samarali mexanizmlarini izlash zarur. Buning uchun tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan texnologiyalarni moliyalashtirish jarayonini tashkil etishda xorijiy tajribadan keng foydalanilinish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Shu munosabat bilan tabiiy resurslardan, ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish faoliyatini moliyalashtirish, atrof-muhitning ifloslanishi monitoringi, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini baholash va iqtisodiyotni moslashtirish sohasida zamonaviy qonunchilikni shakllantirish zarur.

“Yashil” moliyalashtirish – texnologik yangilash bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish va to‘liqroq bajarish imkonini beradi. Shunday qilib, “yashil” moliyalashtirishning asosiy maqsadiga erishiladi: turli tarmoqlarda “katta ilg‘or” texnologiyalarga asoslangan yetakchi ilmiy-texnik zaxirani yaratish zarur. “Yashil” moliyalashtirish o‘zaro manfaatli innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishi, yuqori texnologiyali, innovatsion va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda istiqbolli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, shu bilan birga ekologik va

oqilona tabiatni boshqarish muammolarini hal etish imkonini berayotgani ham birdek muhimdir.

Shunday qilib, texnologik platformalar davlat siyosatining eng muhim vositasiga aylanmoqda, uning maqsadi “yashil” innovatsiyalar sohasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, “yashil” energiyani yaratish va yoqilg‘i-energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish muammolarini hal qilishdir. Texnologik platformalarni amalga oshirish mamlakatning yetakchi ilmiy maktablari, ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqaruvchi korxonalar, yoqilg‘i-energetika kompleksi korxonalarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Bizga ma’lumki, “yashil” loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy dasturlar xalqaro dasturlar bilan, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) bilan uzviy bog‘lanishi kerak. Ushbu dastur iqtisodiy o‘shish katalizatori bo‘lib, iqtisodiy farovonlik va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladigan, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan qator tarmoqlarga, jumladan, o‘rmon va qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Milliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha to‘g‘ri o‘yangan chora-tadbirlar korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga olib kelishi kerak. Bir vaqtning o‘zida davlat tomonidan korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlagan holda ekologik talablarning zaiflashishi raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi va milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Shu bilan bir qatorda, ekologik faoliyat uchun moliyaviy resurslar taqchilligini qoplashning mumkin bo‘lgan manbalaridan biri “yashil” obligatsiyalar, veksellar va aksiyalar chiqarish hisoblanadi.

“Yashil” o‘shish doirasidagi transformatsiyalarni moliyalashtirish XXI asr global iqtisodiyotining asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Ham davlat, ham xususiy investitsiyalarni moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, mamlakatlar investitsiyalarni moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslardan foydalanishda davom etishi, bunda xususiy sektor asosiy rol o‘ynashi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ham, “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish sezilarli darajada oshmoqda.

“Yashil” moliyalashtirish uchun mablag‘larni ustuvor yo‘naltirishga shart-sharoitlar yaratish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni tashkil etish kerak:

- kelajak avlodlar uchun dolzarb masalalarda oqilona davlat siyosatini shakllantirish;

- innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish (kapital bozori, moliya bozori vositalarining evolyusiyasi va boshqalar);

- davlat moliya institutlari, rivojlanish banklari va pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari ko'rinishida uzoq muddatli investorlar tomonidan nazorat qilinadigan mablag'larning aktiv fondlarini yaratish;

- qazib olinadigan yoqilg'iga subsidiyalarning eskirgan shakllarini olib tashlash va yashil soliqlarni joriy etish, bu esa yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun kapitalni qayta taqsimlash va kengaytirish imkonini beradi;

- moliya institutlari, banklar va boshqa institusional investorlarning jamoaviy "yashil" investitsiya tashabbuslarida, ayniqsa, ish o'rinlari yaratish va energiya, suv ta'minoti, transport, ta'lim sohalarini rivojlantirishga olib keladigan infratuzilma loyihalarida faol ishtirokini rag'batlantirish;

- moliya tizimining barcha tarkibiy qismlarida: vositachilar, kapital bozorlari, infratuzilma, reyting agentliklari va yakuniy foydalanuvchilar o'rtasida kapital taqsimotini belgilovchi meyorlar ishlab chiqaruvchi organlarda ekologik toza va ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv mezonlarini ishlab chiqish.

"Yashil" moliyalashtirishning muhim yo'nalishi chiqindilarni boshqarishni moliyalashtirish tizimidir.

Atrof-muhitni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri suv havzalarini muhofaza qilishdir. Suv ta'minoti va kanalizatsiya uchun amaldagi standartlarni takomillashtirish kerak. Ayni paytda ular korxonalarda mahalliy tozalash inshootlarini qurish, tasodifiy ofatlarni bartaraf etish bo'yicha rejalar ishlab chiqish, ekosug'urta muassasalaridan foydalanishga qaratilgan. Biroq, bu yondashuv vaziyatni yaxshilamaydi, ya'ni suv havzalari va tuproqlarning oqava suv bilan ifloslanish darajasini pasaytirmaydi.

So'nggi yillarda bioxilma-xillikni saqlash sohasida ma'lum bir yutuqlarga erishildi. Shunday qilib, keng jamoatchilik e'tiborini noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar turlarini himoya qilish muammosiga jalb qilish mumkin bo'ldi.

"Yashil" moliyalashtirish shakllarini yanada rivojlantirish milliy, va mintaqaviy tuzilmalar oldida davlatning bevosita ishtirokini qisqartirish orqali ham, o'zini-o'zi boshqarish va nodavlat moliyalashtirishni kengaytirish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Yashil moliya mexanizmini amalga oshirish uchun mumkin bo'lgan vositalar.

Tartibga solish vositalari	Izoh
Loyihani moliyalashtirish	Yirik loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri loyiha tomonidan ishlab chiqarilgan pul oqimlari hisobidan kredit orqali uzoq muddatli moliyalashtirish
Mas'uliyatli moliyalashtirish	Kreditlash va investitsiya jarayoni doirasida ekologik, ijtimoiy va axloqiy omillarni hisobga olish, shuningdek, tegishli talablarni taqdim etish
Aholining bepul mablag'lari Crowdfunding	Crowdfunding platformalaridan foydalangan holda ko'plab potensial investorlarga murojaat qilish orqali moliyalashtirish, "Crowdfunding" xizmatidan keng foydalanish.
Korporativ ijtimoiy javobgarlik	Korxonaning asosiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan va qonuniy minimumdan tashqarida ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalarda jamiyatning rivojlanishiga biznesning ixtiyoriy hissasi
Konsalting	Muammolarni hal qilishda keng doiradagi mutaxassislarni jalb qilish orqali tajriba to'plash
Maqsadli dasturlar	Shartnomalar bo'yicha, yashil loyihalar bo'yicha
Soliq imtiyozlaridan ozod qilish yoki stavkalarni pasaytirish soliqlar bo'yicha	Mulk solig'i (ushbu maqsadlar uchun foydalaniladigan mol-mulk bo'yicha); subyektning byudjetiga hisobga olinadigan stavka doirasidagi daromad solig'i uchun; Transport solig'i bo'yicha (ushbu maqsadlarda foydalaniladigan transport vositalari uchun).
Soliq qarorlari ijrosi	Tadbirkorlarga ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishda har bir holatda o'z huquqlari, majburiyatlari va soliq yuki darajasini oldindan aniqlash imkonini beruvchi soliq organining rasmiy tasdig'i.
Kechiktirilgan soliq to'lovlari (Soliqlarni oshirishni oliyalashtirish) TIF	Xususiy sherikchilik hisobidan investitsiya loyihasini moliyalashtirish Xarajatlar investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olingan soliq tushumlari hisobidan byudjetga qoplanadi.
Investitsion soliq krediti	Bir qator shartlarni hisobga olgan holda, ma'lum muddatga soliq to'lashda kechiktirishga ruxsat berish, soliq ta'tili berish
Ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari	Kommunal tarmoqlarga imtiyozli yoki bepul ulanish Kreditlar bo'yicha subsidiyalangan % stavkasi Loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda uslubiy va tashkiliy yordam

Nodavlat tartibga solish choralari orasida aholidan bo'sh mablag'larni jalb qilish katta qiziqish uyg'otadi, bu Crowdfunding xizmatidan foydalanish mumkin. Pul massasining katta qismi banklarda va uy xo'jaliklarida to'plangan jamg'arma

qismining kengayishi bilan resurslarni jalb qilish va ularni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik loyihalarga yo'naltirishning yangi shakllarining ahamiyati katta.

Craudsorsing imkoniyatidan foydalanishning eng muvaffaqiyatli moliyalash shakli ham muhimdir. Bunda mamlakatda ekologik ko'ngillilar pul resurs markazlari kabi "yashil" iqtisodiyot sohasidagi ko'ngillilar harakati doirasida yaratilgan loyihalar ishlab chiqiladi. Ushbu loyihaning faoliyat ko'lami kengligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, yashil energiya manbalarini ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkorligini ta'minlash uchun yashil texnologiyalarni 20 % ko'proq jalb qilish bo'yicha TDIU da "Yashil iqlim innovatsiyalari markazi" ochilgan va bu markazda yashil iqtisodiyot sohasida ishlaydigan professional kadrlar tayyorlanadi va malakasi oshirib boriladi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytamanki, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish siyosatini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarilishini ta'minlash kerak:

atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslar to'g'risidagi qonun hujjatlarini tartibga soluvchi huquqiy va meyoriy bazani ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

atrof-muhit, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va atrof-muhit to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish sohasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish;

maksimal ruxsat etilgan ekologik yuklarni ta'minlaydigan normalar va davlat standartlarini belgilash;

tabiiy resurslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, davlat kadastrlarini yuritish, shuningdek atrof-muhit obyektlarining holati va dinamikasini kuzatish;

atrof-muhit, mintaqaning iqtisodiy-ekologik tizimi holatini sifatli va miqdoriy baholash;

biologik xilma-xillikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan davlat dasturlarini moliyalashtirish;

milliy bog'larni va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni, noyob tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish, brakonerlik va atrof-muhit to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlariga yo'l qo'ymaslik.[9]

Mintaqaning iqtisodiy va ekologik tizimining innovatsion barqaror rivojlanishini ta'minlashning konseptual modeli qo'yidagi chizmada aks ettirilgan.

Mintaqaning iqtisodiy va ekologik tizimining innovatsion barqaror rivojlanishini ta'minlashda biznesning ishtiroki quyidagilardan iborat [10]:

modernizatsiya siyosatini olib borish;

jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, jahon texnik, ilmiy va gumanitar fikrlarining so'nggi yutuqlarini amalga oshirish; ishlab chiqish, amalga oshirish va ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish

atrof-muhit to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarilishini nazorat qilish;

xavfsizlik qoidalariga muvofiq ravishda tarmoqlar bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, atrof-muhitni muhofaza qilish,

ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va ekotizimlarga yetkazilgan zararni minimallashtirish, atrof-muhitga to'plangan atrof-muhit zararini o'tgan davrlarning ishlab chiqarish faoliyatidan olib tashlash³⁶;

tabiiy resurslardan foydalanishning bozor mexanizmlarini joriy etish, ekotizim tovarlari va xizmatlari bozorini rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishni rag'batlantirish.

Umumiy xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda mamlakat va mintaqalarda qonunda belgilangan tartibda atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy texnogen ta'sirini cheklash bo'yicha o'zaro o'rnatish;

atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari, davlat organlari, tijorat tuzilmalari, homiyar va jamoat birlashmalarining mintaqalarning dolzarb ekologik muammolarini birgalikda hal qilish bo'yicha say-harakatlarini birlashtirish;

sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlash va yo'q qilishning texnologik tizimlarini tashkil etish, ishlab chiqish va joriy etish hamda ekologik loyihalarni amalga oshirish, ushbu loyihalar uchun texnik hujjatlarni ishlab chiqish;

atrof-muhitning hozirgi holatini baholash, unda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarni tahlil qilish, shuningdek, uning o'zgarishi mumkin bo'lgan tendensiyalarni oldindan aniqlash maqsadida atrof-muhitni monitoring qilish;

ekologik texnologiyalarni tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish, yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq ishlarni xavfsiz bajarish, sanoat xavfsizligi, elektr va issiqlik moslamalari va tarmoqlarining xavfsizligini ta'minlash;

jamoatchilikning ekologik loyihalarni shakllantirishda ishtirok etish mexanizmlarini ishlab chiqish, ekologik ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, ta'lim va xalq ta'limi, ekologik bo'yicha o'qitishlar, jamoat tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ekologik dunyoqarashni ekologik xavfsizlikni asosi sifatida shakllantirish, ishtirok etish ekologiya sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

ekologik dasturlarni moliyalashtirishni tashkil etish.

Turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlar va korxonalar, ilmiy tashkilotlar, o‘quv yurtlari, xususiy tadbirkorlar, jismoniy va yuridik shaxslarning viloyat markazlaridagi say-harakatlarini birlashtirish orqali mintaqaning va butun mamlakatning ekologik muammolarini muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Shu sababli, bunday uyushmalar - notijorat sherikliklarni yaratish va ularning faoliyati mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlaydi, mintaqaning iqtisodiy –ekologik tizimining barqaror rivojlanish modeliga o‘tadi, global miqyosda boshqaruvni optimallashtirishning tuzilmalari, vositalari va usullarini belgilaydi, mintaqalarda qisqa va uzoq muddatli istiqbolni prognoz qiladi.[11]

Yuqoridagi Xorijiy mamalakatlar tajribalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston ham, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqib, amaliyotda qo‘llashi zarur.Hozirgi kunda atrof-muhit bilan bog‘liq ekologik soliqlar sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin.

- energiya soliqlari (yashil energiya iste'moliga o‘tish);
- yerdagi transport soliqlari;
- umumiy ovqatlanish shahobchalari solig‘i;
- g‘isht, sement, ohak, gips, metal ishlab chiqarish, qurilish soliqlari.

Masalani mohiyati shundan iboratki, ekologik soliqlarning maqsadi atrof-muhitga yetkazilgan zarar miqdori, uning qiymatini qanchaligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030" Janubiy Koreyadagi sammitda Sh.M.Mirziyoev so'zlagan nutqi.
2. <https://t.me/uzgidrouz>
3. Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015) http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls.
4. Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015) http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls.
5. UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>
6. <https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-andtherelated-objectives-of-green-economy.html>
7. IRENA (2017), Renewable capacity statistics 2017, International Renewable Energy Agency (IRENA), www.irena.org/Publications 37 UN. Report for the UN secretary-general "An action agenda for sustainable development". 2014. -P. 1-2. 38 United Nations Environment Programme and Intergovernmental Panel on Climate Change. Special Report on Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation. - P. 7.
8. <https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-andtherelated-objectives-of-green-economy.html>
9. Кудинова Г.Э. Инновационное устойчивое развитие экономико-экологических систем региона. Известия Самарского научного центра Российской академии наук. 2014. Т. 16. № 1-6. С. 1791-1796. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=23059102>
10. Алимов Сергей Александрович. Теоретические основы экологического аудита территориально-хозяйственных систем. Экономические и гуманитарные науки. 7 (246), 2012.- С. 22-26 (<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=17783882>)
11. <https://e.lanbook.com/book/93315>

AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVINING RAMZLARDA AKS ETISHI

Hamrayev Fazliddin Tojiddin o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti IV-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvida ehtiyotkorlik va adolat tamoyillariga amal qilganligi, “Temur tuzuklari” da davlat boshqaruviga oid qayd etilgan tartib-qoidalari hamda davlat ramzlari hamda ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Imperiya, surgun, feodal tarqoqlik, hokim, amr, pragmatik, hukmdor, qo‘shin, “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, “Husayn Boyqaroning sirli o‘limi”, “Piri Hirot”, “Shoh ovda”, “Sangi haft qalam”, “Xiroji olam”, “Sulton g‘oziy” diplomatiya, saltanat, din, shariat, tuzuk, sipoh, raiyat, tabaqa, toifa, kengash, sarhang, sipohsolor, vazir, arbob, kotib, munshiy, hakim, tabib, munajjim, muhandis, muhaddis, so‘fi, mashoyix, maktub, qilich, mulk, ustoz, pir, shayx, uzuk, nog‘ora, bayroq, yoqut, la‘l, javohir, ramz, sulola, nayza, geraldika, karat, xiroj, xazina, toj, saroy, maqbara, madrasa, gumbaz, minora, musavvir, zambarak, fiqh, millat.

XIV asrning II yarmi – XV asrning boshlarida Amir Temur o‘zining buyuk imperiyasiga asos soldi. Movarounnahrda uzoq vaqt hukm surgan feodal tarqoqlikka chek qo‘yildi hamda markazlashgan kuchli davlatga asos solindi. Davlat tepasida yakka hokim – amr turar edi. Davlat boshlig‘i amir cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan. Amir Temur davlatni idora qilishda adolat hamda qonun ustuvorligiga asoslanib ish ko‘rishga, fuqaro manfaatlarini ko‘zlab ish yuritishga a‘lohida ahamiyat berdi. Temuriylar davri davlat boshqaruvi haqidagi eng muhim hamda boy ma‘lumotlarni “Temur tuzuklari” dan olishimiz mumkin. Amir Temurga o‘z davri hamda o‘z xalqi talab-ehtiyojlarini to‘g‘ri anglagan pragmatik¹ hukmdor deb baho bersak o‘rinli bo‘ladi. Amir Temur mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, idora qilishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, tinchlik hamda osoyishtalikni ta‘minlash, buning uchun qo‘shinning qudratini oshirish singari masalalarga keng e‘tibor qaratdi. Sohibqiron faoliyati dunyo tarixchilari tomonidan ikki davrga ajratiladi:

Birinchi davri – 1360-1385 yillarni o‘z ichiga oladi, bu davrda Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzilib, o‘zaro urushlarga chek qo‘yildi;

¹ Pragmatika (yunoncha.pragma, pragmatos – ish, harakat, ya‘ni harakatchan degan ma‘noni bildiradi).

Ikkinchi davri – 1386-1405 yillarni o‘z ichiga oladi, bu davr Sohibqironning harbiy yurishlari davri hisoblanadi. Buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur mislsiz aql-idrok, o‘tkir zehn, ilohiy kuch-qudrat sohibi sifatida butun dunyoga tanildi. Uning mardligi, jasurligi, dovyurakligi, harbiy mahorati, tarix zarvaraqlarida muhrlandi¹. Bundan tashqari, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida hamda Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Mu’iniy” kabi asarlarida Amir Temurning olib borgan bunyodkorlik ishlari, diniy islohotlari hamda davlat boshqaruviga oid qilgan ishlari haqida keng ma’lumotlar beradi hamda Amir Temur shaxsi ulug‘lanib, “Sulton G‘oziy”² deb ham ataladi. Bundan tashqari, manbalardagi ma’lumotlarda Amir Temur qilgan har bir ishini Tangri Taoloning hohish-istagi bilan qilgani haqida aytiladi. Amir Temur davlatni “Kuch adolatdadir” shiori asosida boshqaradi hamda avlodlarga benazir ma’naviy meros qoldirdi.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” milliy davlatchiligimiz tarixiga oid eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. XIV asrning II yarmidan XV asrning boshlaridagi siyosiy jarayonlarni o‘zida ifoda etgan bu tarixiy asarda Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilm-u fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlari haqida bildirgan fikrlari, din-u diyonat va adolatni joyiga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va maslahat asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, xalq manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

“Temur tuzuklari” ning ikkinchi qismidan joy olgan “Mamlakat ishlari tuzuki” da Amir Temur: “Dinu shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan keyin saltanatim korxonasining tuzukini tuzishga kirishdim. Saltanat ishlarini qonun va qoidalar, to‘ra va tuzukka solib, saltanatim martabayu-e’tiborini saqladim”³, - deydi hamda saltanatni mustahkamlash, uning martabasini saqlash uchun quyidagi to‘rtta tuzukka asosan ish tutganligini bayon etadi. Ularning birinchisi – saltanatning qonun-qoidalarini islom dini, shariat qoidalariga asoslanib tashkil etilganligi. Bu xususida “Saltanatim martabasini to‘ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech kimsaning qurbi yetmasdi”⁴ – deb takidlaydi. Ikkinchi tuzukida – sipohu-raiyatni umid va qo‘rquv asosida saqlagan, do‘st-u dushmani murosa qilishga, kelishishga undaganligi haqida, uchinchi tuzukida – hech kimdan o‘ch olishga harakat qilmagan, unga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirgan. Atrofida har tomonlama sinalgan, shijoatli, ish ko‘rgan yigitlarni to‘plaganligi xabarini beradi. To‘rtinchi

¹ Davlatova SH. Davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi g‘oyalar. -Termiz: Surxon-nashr, 2022. –B. 137.

² Sulton G‘oziy - „din uchun kurashuvchi sulton” – Amir Temurning unvonlaridan biri bo‘lib, <<Muntaxab>>da ko‘proq shu shaklda, bir necha joyda <<Shohi G‘oziy>> shaklida yozilgan.

³ Temur tuzuklari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011 –B. 88.

⁴ Temur tuzuklari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011 –B. 88-89.

tuzukida – ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zi tomon og‘dirib olgan, adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intilganligi aks etgan.

Amir Temur “Tuzuklari” da davlat hokimiyati qanchalik keng ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga tayansa hamda jamiyat vakillari bilan kengashib, ularning fikr-u mulohazalari asosida davlat o‘z siyosiy faoliyatini tashkil etsa, davlat shu darajada kuchli va mustahkam bo‘lishi isbotlab berilgan¹. Amir Temur jamiyat a‘zolarini 12 toifaga bo‘ladi, ulardan har birining jamiyatdagi o‘rni davlat siyosatiga qay darajada ta’sir qila olishini tavsiflaydi va mamlakatni boshqarishda ularga suyanib ish tutganligini shunday e’tirof etadi: 12 tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatni qo‘limda tutib, saltanatimni boshqardim. Davlat, saltanat ustunlarini o‘shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim².

Bundan tashqari, “Temur tuzuklari” da Amir Temur ustoz Abubakr Toyobodiyning yo‘llagan maktubi haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Manbada ustoz tomonidan Amir Temurga yuborilgan maktubda Sohibqiron amal qilishi kerak bo‘lgan amallar sifatida quyidagilar keltirilgan:

1. *(o‘zing bilan) kengash.*
2. *(boshqalar bilan) mashvaratu maslahat ayla.*
3. *Hushyorligu mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar.*
4. *Ehtiyotkor bo‘l³.*

Amir Temur asarda: “Bu maktub menga yo‘l boshlovchi yanglig‘ rahnamolik qildi. U menga saltanat ishlarining to‘qqiz ulushi mashvarat, tadbir va qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini anglatadi”⁴ – deydi. Aynan yuqorida sanab o‘tgan 12 toifa vakillari orasidan yettinchi toifaga kiruvchi vazirlar faoliyati va kengashiga Amir Temur alohida e’tibor qaratadi. Bu haqida manbalarda keltirilishicha Sohibqiron shunday deydi: “Men o‘zimga adolatli va rahimdil to‘rt vazirni tanladim. Ulardan ikkisi Mahmud Shahob Xurosoniy va Nosiriddin Mahmud al-Aromiy erdi. Bu ikki vazirimga doimo meni kuzatib turishlarini va agar men adolatsizlik qiladurg‘on bo‘lsam, darhol meni to‘xtatishlarini, kimningdir yolg‘on so‘zlariga inonsam yoki begona kimsani mulkiga xiyonat qiladurg‘on bo‘lsam darhol meni ogohlantirishlarini ta’kidlab qo‘ydim. Va ularning o‘zlariga ham musulmonlarning moliga ta’ma qilmanglar dedim”⁵ – deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari, shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz joizki, Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi hamda undagi boshqaruv sohasidagi amalga oshirgan islohatlarida ustoz hamda pirlarining o‘rni ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bevosita Amir Temur e’tiqod qilgan va iroda yo‘lini

¹ Davlatova SH. Davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi g‘oyalar. -Termiz: Surxon-nashr, 2022. –B. 139.

² Temur tuzuklari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011. –B. 74.

³ Temur tuzuklari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011. –B. 14.

⁴ Temur tuzuklari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011 -B. 14.

⁵ Zafar yo‘li. -Toshkent: Nur, 1992. –B. 12.

bergan pir hamda ustozlari – Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toyobodiy hamda Mir Sayyid Baraka janoblari hisoblanadilar. Shayx Zayniddin Abu Bakr Toyobodiy Amir Temurga “Kuch – adolatda” so‘zlari o‘yib yozilgan tillo uzuk, Mir Sayyid Baraka esa uchrashuvdayoq saltanat timsoli bo‘lgan nog‘ora va bayroq tuhfa qilgan edilar. O‘zining ruhiy madadi, ko‘magi bilan hamisha Sohibqironga kamarbasta bo‘lgan Mir Sayyid Baraka to so‘nggi nafasiga Sohibqiron Amir Temur bilan birga umrguzaronlik qildi¹.

Amir Temur davlati boshqaruv sohasida davlat ramzlarining ham alohida o‘rni bor. Bizga ma‘lumki, Amir Temurga davlat ramzi hisoblangan dastlabki bayroq hamda nog‘orani yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, Amir Temurning piri hamda ustoz Mir Sayyid Baraka tomonidan Biyo qishlog‘ida Sohibqironga tortiq qiladi. So‘nggi vaqtlarda ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan temuriylar sulolasiga oid ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Juda ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan mavzulardan biri bu Amir Temur davlati ramzlari ya‘ni bayrog‘i, Amir Temurning yoquti hamda uzugidir. Jumladan “Shoh ovda” asari bilan tanishgan olimlar fikricha, bayroq dastasining uzunligi 5 metrdan kam bo‘lmay, uchiga nayza ko‘rinishidagi metall moslama, uning tagida esa musulmonlikning ramzi bo‘lmish yarim oy hamda turkiy xalqarda an‘anaga aylangan to‘zigan ko‘rinishidagi qo‘tos dumi, ularning tagiga esa uchburchak shaklli oq mato tortib biriktirilgan bo‘lib, unda geraldika holatida turgan sher va uning orqasida nur sochayotgan quyoshning bir qismi tasvirlangan. Bayroq haqida mulohaza yuritadigan bo‘lsak uning hajmi, rangi, tasvirlarning mazmuni kabi bir qator muammolarga duch kelamiz. Minatyuradagi bayroq uchburchak shaklda bo‘lib, bu shaklni boshqa manbalarda ham ko‘rish mumkin. Matoning oq rangda bo‘lishligi turkiylarda oq rang muvaffaqiyat, g‘alaba, omad ramzi, oq ko‘ylak motam belgisi. Temuriylar davri me‘moriy yodgorliklariga, kulolchilik san‘ati buyumlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tiniq moviy rangga bo‘lgan e‘tibor yaqqol ko‘zga tashlanadi. Keltirilgan misol va mulohazalardan kelib chiqib, ta‘riflanayotgan bayroq Temuriylar davlatining asosiy ramzlaridan biri – bosh bayroq vazifasini o‘tagan hamda harbiy to‘qnashuvlar davrida muhim rol o‘ynagan.²

Amir Temur yoquti haqida to‘xtaladigan bo‘lsak – Sohibqiron Amir Temurga tegishli bo‘lgan qimmatbaho tosh “Temur yoquti” dir. 361 karat (72 gramm) vaznga ega bo‘lgan bu tosh ko‘pchilik mutaxassislarining aytishicha, aslida yoqut emas, balki la‘l (javohir) sanaladi. U o‘z davrida juda yuqori narxlarga baholabgani uchun o‘rta asrlarda “Xiroji olam” ya‘ni dunyoning xirojiga teng tosh, deb ham nomlangan. 1398-yil Hindistonni zabt etgan Sohibqiron Amir Temur katta xazinalar qatori mazkur qimmatbaho javohirni ham qo‘lga kiritadi. Bu javohir Sohibqironga yoqib qoladi va

¹Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2008. –B. 15-16.

² O‘tkir Alimov. Amir Temur davlat bayrog‘i maqolasidan.

unga sayqal berib, o'z tojiga o'rnatadi. Toshga suls xatida "Amir Temur Ko'ragon" nomini yozdiradi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra ushbu javohir to umrining oxiriga qadar buyuk sarkardaning tojini bezab turgan. Bu qimmatbaho tosh 1407-yilda Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shoxrux Mirzoga o'tgan. Toshda uning ham ismi borligi ushbu ma'lumotni tasdiqlaydi. 1447-yilda esa, Movoronnahr va Xuroson hukmdoriga aylangan Ulug'bek ham bu toshga sohib chiqqan va unga "Mirzo Ulug'bek ibn Shohrux" so'zlarini o'yib yozdirgan.¹ Keyinchalik bu javohirga Shoh Abbos, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeb, Nodirshoh, Ahmadshoh, Temur, Zamon Mirzo, Mahmud, Shujomulk, Ranjit Singx hamda Qirolicha Viktoriyalar egalik qilishadi. Ayni paytda "Temur yoquti" Bukingem saroyidagi "Hindiston xonasi" da saqlanadi.

1965-yilda Hirot shahrida Xo'ja Abdulla Ansoriyning tavallud topganligi ming yilligini nishonlash munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro qo'lyozmalar ilmiy konfrensiyasida Sulton Husayn Boyqaro va Mir Alisher Navoiy qabrlari ochib, tegishli tadqiqotlar olib borish haqida qaror qabul qilindi. Shu qarorga asosan Rizo Moil Hiroviy, alloma Ustod Xalillo Xaliliy, akademik Salohiddin Saljuqiy va boshqa bir qancha xorijiy ekspertlar ishtirokida qabrlar ochilib, tadqiqotlar olib borildi. Shunda Husayn Boyqaro jasadining o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ida g'aroyib uzuk topiladi. Olimlar uni o'rganishni boshlaydilar. Ustod Xalillo Xaliliy bu noyob topilmani o'z qo'li bilan Muhammad Zohirshohga tuhfa qiladi.² Mazkur dalillarga asoslanib, shuni xulosa qilish mumkinki, bu ajoyib-g'aroyib topilma Sohibqiron Amir Temurdan uning avlodlariga meros bo'lib o'tgan. Sharqshunos Turg'un Fayziyevning "Husayn Boyqaroning sirli o'limi" asarida shunday yozadi: "Tarixchi Xondamirning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaroning jasadi o'zi qurdirgan madrasa gumbazi ostiga dafn etilgan. Madrasa Musallo yoniga qurilgan bo'lib, o'zining salobatli va muhtashamligi bilan kishini lol qoldiradi. Biroq XIX asrda Afg'oniston amiri Abdurahmonxon zamonida ingliz mushovirlari "Ruslar Hirotni zabt etmoqchi, binobarin baland va ulkan minoralar ularning zambaraklariga nishon bo'lishi muqarar" deb minoralarni buzib tashlashni maslahat beradilar. Shundan so'ng minora portlatiladi. Natijada bir nechta osori-atika yodgorliklar kultepaga aylantiriladi. Jumladan, Sulton Husayn Boyqaro qurdirgan madrasa ham vayronaga aylanadi. Sulton Husayn Boyqaro maqbarasi qoshiga qo'yilgan "Sangi haft qalam" marmar toshi haqida "Piri Hirot" asarida quyidagi jumlar yozilgan: "Sangi haft qalam" jahondagi xattotlik san'atining bebaho durdonalaridan bo'lib, Husayn Boyqaro tomonidan shaxsan o'z qabriga atab buyurtirilgan qabr toshi edi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining aytishicha, Amir Temur uzugi bugungi kunda Amerikada Nyu-York

¹ Ozod Mo'min. Buyuk Amir Temurning yoquti-Toshkent. Sharq yulduzi 1992.

² „Jahon adabiyoti“ jurnali 2-son.

shahridagi “Metropoliten” muzeyining “Islom bo‘limi”da saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sohibqiron Amir Temur o‘z siyosatida ham adolat, haqqoniylik hamda odillikka tayanib ish tutadi. Chunki o‘z siyosatida haq yo‘lini tanlagan Amir Temur bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emasdi. U nimaiki qilsa shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Amir Temur o‘z piri Abu Bakr Toyobodiyning “rosti-rasti” ya’ni “haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan” hikmatini o‘z tamg‘asiga muhr sifatida o‘rnashtirgan edi¹. Shunday qilib, Amir Temur ham adolat haqidagi o‘z qarashlarini diniy tamoyillar asosida bayon qiladi, shu sababli Amir Temur “Shoh G‘oziy” nomi bilan ulug‘lanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdig‘aniyevich Karimov: - Kimki o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak, - deganida naqadar haq edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Temur tuzuklari”
2. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”
3. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”
4. Muiniddin Natanziy “Muntaxab at-tavorixi Muiniy”
5. Davlatova SH. “Davlat boshqaruvi to‘g‘risida g‘oyalar”
6. “Zafar yo‘li”
7. Muhammad Ali “Amir Temur solnomasi”
8. Ibn Asar. “Ko‘rsatilgan asar” II-qism.
9. Ozod Mo‘min “Buyuk Amir Temurning yoquti”
10. O‘tkir Alimov “Amir Temur davlat bayrog‘i”
11. “Jahon adabiyoti” jurnali 2-son

¹Ibn Arabshoh. Ko‘rsatilgan asar, II-qism. –B. 65.

ОСОБЕННОСТИ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА МУКИ ИЗ МЕСТНЫХ СОРТОВ ПШЕНИЦЫ И РЖИ

Кураязов Зарипбай Раматович,

докторант Ургенчского Государственного университета

E-mail: kurayazovzarifboy@gmail.com

Ибадуллаев Базар Мамбетович,

доцент, Ургенчского Государственного университета

Атажонова Султонпошша Худайшукировна

магистрант, Ургенчского Государственного университета

***Аннотация.** В статье приведены основные результаты исследований качественных показателей пшеничной и ржаной муки.*

***Ключевые слова:** Ржаная мука, пшеничная мука, металломагнитная примесь, зараженность, загрязненность вредителями, пшенично-ржаной хлеб.*

***Abstract.** The article presents the main results of studies of qualitative indicators of wheat and rye flour.*

***Key words:** Rye flour, wheat flour, metallomagnetic impurity, contamination, contamination by pests, wheat rye bread.*

Хлебу и хлебобулочным изделиям принадлежит исключительное место в питании человека, поскольку эти продукты обеспечивают значительную часть физиологической потребности человеческого организма в пищевых веществах и энергии, являясь наиболее доступными.

Обычная технология приготовления ржано-пшеничных сортов хлеба предусматривает отдельную переработку зерна ржи и пшеницы с последующим смешиванием на хлебозаводах ржаной и пшеничной муки. Использование муки пшеничной, полученной при много сортном помоле, снижает питательную ценность хлеба по сравнению с хлебом, выработанным из муки одно сортного помола. Кроме того, сортовые помолы пшеницы отличаются сложностью, значительными энерго- и трудозатратами, а также требуют достаточно высокого качества перерабатываемого зерна [2,4,5,7,8].

В связи с указанными преимуществами, исследования по совершенствованию технологии производства сортовой ржано-пшеничной муки

из зерно смесей являются актуальными и имеют важное теоретическое и практическое значение [1,3,4,5,6,7]

Свойства и технологии переработки отдельно ржи и пшеницы достаточно подробно изучены. Однако вопрос о том, каким образом проявляются особенности каждой из этих культур при их переработке в смесях, до настоящего времени не исследовался. В связи с этим, в данной работе, кроме исследований отдельных этапов технологического процесса переработки ржано-пшеничных смесей, было уделено внимание проблеме взаимодействия их компонентов.

На мукомольные предприятия поступает зерно с значительным разнообразием природных и технологических свойств, в том числе проросшее. В стандарте на рожь и пшеницу предусматривается ограничение содержания проросших зерен до 3% [2,3,4,5,7,8].

Поэтому возникает необходимость разработки научно обоснованного метода расчета оптимальных помольных смесей, позволяющего рационально использовать зерновое сырье и регулировать хлебопекарные свойства вырабатываемой продукции.

До настоящего времени не рассматривался вопрос о том, при каких значениях увлажнения и отволаживания зерносмесь достигает своего технологического оптимума. Поэтому одним из направлений данных исследований являлась разработка рекомендаций по проведению процесса холодного кондиционирования для ржано-пшеничных смесей.

По размол-способности рожь и пшеница отличаются друг от друга вследствие особенностей структурно-механических свойств. В связи с этим, важное практическое значение имеет определение соотношения ржаной и пшеничной муки в мучной смеси, что до настоящего времени не проводилось. Также не изучен процесс формирования сортовой ржано-пшеничной муки из зерносмесей по качественным показателям и процентному содержанию компонентов, что является необходимым для выпуска продукции с заданными составом и свойствами [1,2,4,5,7,8].

The Wall Street Journal ma'lum qilishicha, Alphabet korporatsiyalari (Google kompaniyasiga tegishli), Facebook va Twitter radikal islomchilar targ'ibotiga qarshi turish uchun onlayn reklama texnologiyalaridan qo'llaydi.

3) Mahalliy ommaviy axborot vositalari, jurnalistlarini qo'llab-quvvatlash va axborot-kommunikatsiya infratuzilmalarini yaxshilash.

AQSHning Markaziy Osiyo mintaqada olib borayotgan siyosatini ijobiy tomonlarini ko'rsatishda, mamlakat imidjini oshirishda va raqamli diplomatiyani olib borishda mahalliy jurnalistlar faolligini oshirish va qo'llab quvvatlash hamda hududdagi ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Kerakli daraja rivojlanmagan axborot kommunikatsiya infrastrukturasi raqamli diplomatiyani ham olib borib bo'lmaydi.

Shu sababli mazkur sohada AQSHning xalqaro rivojlanish bo'yicha agentligi (USAID) faol ishlar olib boradi. Jumladan, ushbu tashkilot turli loyihalar orqali mintaqaga 1990-yillardan boshlab moliyaviy ko'mak berib kelmoqda. 2018-yil may oyida esa Markaziy Osiyoda mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun 15 mln dollar ajratdi. Undan ko'zlangan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: [7]

- muhim siyosiy va aholi manfaatlariga daxldor ijtimoiy masalalarni yoritishda ommaviy axborot vositalarni xolis va ochiqligini ta'minlash;

- yoshlar va o'rta yoshlilar o'rtasida axborotni qabul qilish didini oshirish.

Ularda tarqatilayotgan axborotga nisbatan tanqidiy qarashni shakllantirish;

- ommaviy axborot vositalari sohasidagi huquqiy asoslarni yaxshilash.

Bundan tashqari, USAID Internews bilan hamkorlikda 5 yilga mo'ljallangan (2018-yil 1-oktyabrdan 2023-yil 30-sentyabrgacha) 15 million dollarlik loyihani amalga oshirib kelmoqda. Dastur jurnalistlar malakasini oshirish, aholini muhim siyosiy va ijtimoiy yangiliklar xabardor bo'lib borishini ta'minlash, hamda ommaviy axborot vositalari faoliyati huquqiy asosini mustahkamlashga qaratilgan. [8]

AQSH tomonidan Markaziy Osiyoda ommaviy axborot vositalarni qo'llab-quvvatlashning boshqa yo'llari bu ularni o'qitish, turli grantlar taqdim etish va turli tadbirlar tashkillashtirish. Bu sohada ayniqsa AQSHning Internews Network nodavlat-notijorat tashkiloti ayniqsa faoldir. Bugungi kundan Internews Network Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda filiallariga ega bo'lib, ayniqsa mintaqada internet jurnalistika rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratmoqda. Buning uchun "Markaziy Osiyoda yangi mediani rivojlantirish", "Yangi reporter.org" va boshqa turli loyihalar ishlab chiqishgan. [9]

4) Qonun ustuvorligi, inson huquqlari va demokratik tamoyillarni keng targ'ib etish.

AQSH Markaziy Osiyodagi qonun ustuvorligi, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni ta'minlashga alohida ahamiyat qaratadi, hamda raqamli diplomatiya orqali mazkur masalalarga hukumat, davlat rahbari va mahalliy aholini e'tiborini jalb etishga harakat qiladi. Jumladan, ushbu yo'nalishda qo'yidagi amaliy harakatlarni olib boradi:

- inson huquqlari bo'yicha nufuzli xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlaridagi mamlakatning holatini AQSH o'zining elchixonasining rasmiy veb sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilib boradi;

- mamlakatdagi inson huquqlari buzilishi bilan bog'liq holatlarni elchi o'z rasmiy ijtimoiy tarmog'ida e'lon qiladi yoki video murojaat qiladi;

- inson huquqlari himoyachilari, jurnalistlar, yozuvchilar va ommaviy axborot sohasi boshqa xodimlari uchun grantlar, xorijda o'qish va malaka oshirish kurslarini tashkil etadi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda AQSH elchilari tomonidan inson huquqlari buzilishi bilan bog'liq holatlar bo'yicha mintaqadagi hukumat rahbarlari murojaat etish va ularning e'tiborini mazkur masalaga qaratish holatlar ancha sezilgan. Mazkur jarayon raqamli diplomatiya vositalari va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mintaqada kuchli ta'sirga ega bo'lib borayotganligidan dalolat bermoqda.

5) Ijobiy imidjni shakllantirish va o‘zaro hamkorlik rivojlantirishga ko‘maklashish.

AQSH raqamli diplomatiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy maqsadlaridan biri mintaqada AQSHning ijobiy imidjini shakllantirish, ikki va ko‘p tomonlama aloqalarning ijobiy tomonlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Xususan, agarda AQSHning Markaziy Osiyodagi diplomatik vakolatxonalarini rasmiy veb sayti va ijtimoiy tarmoqdagi xabarlar va yangiliklarni kuzatadigan bo‘lsak, eng ko‘p tilga olingan mavzu AQSH va mintaqa davlatlari bilan turli sohadagi hamkorliklar rivojlanib borayotganligi, ularning davlatlar uchun juda ijobiy ahamiyatga ega bo‘layotganligi va AQSH moddiy yordamlari bo‘yicha yangiliklardir (ayniqsa pandemiya davrida bu holat kuchaygan edi).

Shuningdek, AQSHning Markaziy Osiyo bilan hozirgi kundagi yagona yirik loyihalaridan biri S5+1 platformasidir. [10] AQSH raqamli diplomatiyaning asosiy vazifalaridan biri ko‘plab sohalarni qamrab oluvchi ushbu S5+1 platformasini Markaziy Osiyo davlatlari uchun ahamiyatli jihatlarini, mazkur loyiha doirasida olib borilayotgan ishlarining mintaqa aholisi uchun foydali tomonlarini yoritish va AQSHning mintaqa uchun asosiy hamkorlardan biri sifatida ko‘rsatishdan iborat.

XULOSA.

AQSHning Markaziy Osiyodagi raqamli diplomatiyasining asosiy jihatlari, yo‘nalishlari, mexanizmi hamda mintaqada siyosiy jarayonlaridagi o‘rnidan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, raqamli diplomatiya AQSH tashqi siyosiy manfaatlarini ilgari surish vositasi sifatida Markaziy Osiyodagi eng asosiy vazifalaridan biri mintaqada davlatlarining mustaqilligini mustahkamlash turadi.

Shuningdek, AQSH uchun mintaqadagi raqobatdosh davlatlar Rossiya va Xitoy hisoblanib, Markaziy Osiyo mintaqasiga ularning ta‘sirini kamaytirishga iniladi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi faoliyatida raqamli diplomatiyaning keng imkoniyatlariga ahamiyat qaratish. Raqamli diplomatiyani rivojlantirish, asosiy vosita va mexanizmlarini ishlab chiqishda AQSH tajribasini o‘rganish. O‘zbekistonni xalqaro imidjini oshirishda raqamli diplomatiyaga imkoniyatlaridan foydalanish. Shuningdek, tashqi siyosiy va diplomatik vazifalarni amalga oshirishda raqamli diplomatiyani asosiy vositalardan biriga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жураев Ф.С. Цифровая дипломатия во внешней политике национального государства: Монография. – Ташкент, Институт Стратегических и межрегиональных исследований при Президенте Республики Узбекистан, 2018. –с 80
2. Amerika Qo‘shma Shtatlari Markaziy Qo‘mondonligi (USCENTCOM) <https://central.asia-news.com/uz-Latn/archives>
3. AQSH Ўзбекистон чегара кўшинларига махсус ускуналар ҳадя этди // <https://uz.usembassy.gov/uz/united-states-presents-equipment-to-uzbek-border-troops-2-uz/>
4. Jihadist Networks Dig In on Social Media Across Central Asia. 11. November, 2020. <https://foreignpolicy.com/2020/11/11/online-extremism-central-asia-islamic-state-terrorism/>
5. Countering terrorism and violent extremism at Facebook: Technology, expertise and partnership. 27 august 2020. <https://www.orfonline.org/expert-speak/countering-terrorism-and-violent-extremism-at-facebook/>
6. Twitter заблокировал 235 тыс. аккаунтов за пропаганду терроризма. // <https://www.asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/society/20160822/twitter-zablokiroval-235-tys-akkauntov-za-propagandu-terrorizma>
7. CENTRAL ASIA MEDIA PROGRAM. <https://www.usaid.gov/central-asia-regional/fact-sheets/central-asia-media-program>
8. CENTRAL ASIA MEDIA PROGRAM. <https://www.usaid.gov/central-asia-regional/fact-sheets/central-asia-media-program>
9. Цифровая дипломатия США. <https://riss.ru/analytics/7003/> 2.12.2014
10. Перспективы Формата C5+1 и роль Казахстана // <https://www.caa-network.org/archives/8020>

OILAVIY ZO‘RAVONLIK O‘Z JONIGA QASD QILISHNING OMILI SIFATIDA

Rano Ismaylova

Nizomiy nomidagi TDPU “Amaliy psixologiya” kafedrasida dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari nomzodi, PH.D

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki qasd qilishga moyilligi bo‘lgan turli yoshdagi xotin-qizlarga yordam ko‘rsatishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish va idoralaro hamkorlikning samaradorligi haqida.*

***Kalit so‘zlar:** tazyiq va zo‘ravonlik, o‘z joniga suiqasd, qasd qilishga moyillik xotin-qizlar, psixologik yordam.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается эффективность межведомственного сотрудничества и учета региональных особенностей при оказании помощи женщинам разного возраста, подвергшимся притеснениям и насилию, совершившим самоубийство или склонным к суициду.*

***Ключевые слова:** преследование и насилие, самоубийство, суицидальные женщины, психологическая поддержка.*

***Annotation.** This article examines the effectiveness of interdepartmental cooperation and consideration of regional characteristics in providing assistance to women of different ages who have been subjected to harassment and violence, who have committed suicide or are suicidal.*

***Key words:** persecution and violence, suicide, suicidal women, psychological support.*

Kirish. Suitsid – o‘z joniga qasd qilish hodisasi O‘zbekistonda XX asrning oxirlarida keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Garchi, o‘z joniga qasd qilish muammosi hamma vaqt barcha millatlarda mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da. “O‘z joniga qasd qilish” atamasi shaxsning o‘z hayotini tugatishga qaratilgan mustaqil, ko‘p hollarda ixtiyoriy va qasddan amalga oshirishi tushuniladi.

O‘z joniga qasd qilish deviant xulq-atvor ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, subyektda o‘z joniga qasd qilish haqidagi fikrlarning paydo bo‘lishi, o‘z joniga qasd qilish va o‘z joniga qasd qilish rejasini ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan patologik fikrlash tarziga

ega ekanligini anglatadi. O'z joniga qasd qilish xulq-atvoriga bevosita o'z joniga qasd qilishga urinish ham kiradi.

Bugungi kunda o'z joniga qasd qilish hodisasi dolzarb mavzulardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti statistik ma'lumotlariga ko'ra, o'z joniga qasd qilish harakatlarining soni-yiliga o'rtacha sakkiz yuz ming holatni tashkil qiladi. 15 milliondan ortiq odam turli sabablarga ko'ra o'z hayotini tugatishga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshiradi. O'z joniga qasd qilish natijasida o'lim har-yili qayd etilgan barcha o'limlarning taxminan 1% ni tashkil qiladi. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har qirq soniyada sayyorada fojeali (tugallangan) o'z joniga qasd qilish harakati sodir bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, o'z joniga suiqaqd qilgan yoki qasd qilishga moyilligi bo'lgan turli yoshdagi xotin-qizlarga kompleks yordam ko'rsatishda idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirish usullari va yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida

turli yoshdagi xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va zo'ravonlikning oldini olish, o'z joniga suiqaqd qilish yoki qasd qilishga moyilligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash tartibini o'rganish uchun sotsiologik tadqiqotini o'tkazish va natijalarini miqdoriy va sifat tahlilini amalga oshirish;

ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va turli yoshdagi xotin- qizlarning zo'ravonlikka uchrashi, o'z joniga suiqaqd qilishi yoki qasd qilishga moyilligi darajaning o'sishiga qaysi omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi va tendensiyalarni shakllantirishi, omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish belgilandi.

Tadqiqot obyekti: tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqaqd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlar qo'llab quvvatlash va yordam ko'rsatish tizimi

Tadqiqotning predmeti: tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqaqd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga kompleks yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

O'zbekistonda o'z joniga suiqaqd yoki qasd qilish holati bo'yicha quyidagilar aniqlandi.

O'zbekistonda 2018-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda o'z joniga qasd qilish va suiqaqd harakatlarining umumiy soni 22,6 foizga kamaygan. Kamayish tendensiyasi o'z joniga qasd qilishlar, parasuitsidlar, psixiatrlarning maxsus hisobida turganlar, turmaganlar va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham kamayib borayotganligi kuzatilmoqda. Biroq ayrim – Andijon, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida shu davrda suitsidal holatlar ko'payganligi kuzatilgan.

O'ziga xosliklarni e'tiborga olgan holda, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi Mahalla va oila ilmiy tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot guruhi 2021-yil sentabr-dekabr oylarida "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga kompleks yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish" qisqa muddatli ilmiy loyihasi doirasida sotsiologik tadqiqot olib bordi. Tadqiqot reprezentativligini ta'minlash hamda barcha hududlarni qamrab olish maqsadida Xorazm, Surxondaryo hamda Namangan viloyatlari ajratib olindi va har birida 200 tadan anketa tarqatilib, tadqiqot o'tkazildi. Qayta ishlashda 3 dona anketa yaroqsiz deb topilib, 597 nafar respondentlarning javoblari qayta ishlandi. Tadqiqot ishtirokchilarning yosh tarkibi va oilaviy holati 2 va 3-rasmlarda ko'rsatilgan.

So'rovnomadagi "Ijtimoiy yoki ruhiy ko'mak berish markazlari faoliyati to'g'risida qayerdan ma'lumot olgansiz?" degan savolga javoblar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, aholi asosan "TV, radio, OAV" (21,9%), internet va ijtimoiy tarmoqlar (21,8%) hamda "targ'ibot tadbirlari" (21,4%) orqali markazlar faoliyatidan xabardor bo'lmoqdalar, respondentlarning har beshtadan biri (20,1%) "bunday markazlar borligidan" bexabar. Berilgan javoblardan ham ko'rish mumkinki, markazlar faoliyati targ'iboti haqidagi takliflar o'rinlidir.

Ishtirokchilarining deyarli yarmi (48,4%) Ijtimoiy-ruhiy ko'mak berish markazlari ish faoliyatlaridan qoniqishini ma'lum qilishgan. Ishtirokchilarning deyarli har beshinchisi (18,9%) ushbu markazlar faoliyatidan qoniqmasliklarini bildirganlar. "Ijtimoiy yoki ruhiy ko'mak berish markazlari faoliyati Sizni qoniqtirmasa, qaysi yo'nalishdagi faoliyati qoniqtirmaydi" degan savolga huquqiy (17,1%) yo'nalishdagi faoliyat qoniqtirmayotgani aytiladi, shuningdek, tibbiy (16,1%) hamda iqtisodiy (15,4%) yo'nalishdagi faoliyat ham ularni ko'proq qoniqtirmayapti. Javoblar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda markazlar hamkor tashkilotlar bilan birgalikdagi faoliyati qoniqarli emas.

E'tiborli jihati – 16,1% respondentlarning tibbiy xizmatlardan noroziligi bo'lib, ular xodimlarning qo'pol muomalasi, dori-darmonlar yetishmasligi, o'z vaqtida xabar olmasligini ma'lum qilishgan. Maishiy zo'ravonlikka duchor bo'lganlar bilan ish olib borayotgan tashkilotlar orasida sog'liqni saqlash tizimi faoliyati eng ko'p respondentlarni (17,3%) qoniqtirmayotganligi ma'lum bo'ldi. Bu borada ikkinchi o'rinda mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash (15,6%) hamda uchinchi o'rinda huquqni muhofaza qilish organlari (14,2%) qayd etilgan. Xotin-qizlar o'rtasida suitsidal holatlarning oldini olish maqsadida, aynan, ushbu organ vakillaridan zo'ravonlikka uchrayotgan ayollar bilan ishlash borasidagi o'z faoliyatlariga tanqidiy yondashishlari talab etiladi. "Turmush o'rtog'ingizning oilasida qaysi turdagi zo'ravonlikka uchragansiz?" degan savolga, kelinlarga nisbatan ko'proq (18,1%) kamsitish,

tahqirlash, kalaka qilish, urishish, ta'qib qilish kabi ko'rinishlarda namon bo'ladigan "ruhiy" zo'ravonliklar sodir etiladi. Navbatdagisi sodir etilayotgan "jismoniy" (9,4%) zo'ravonliklardir. Shuni ta'kidlash lozimki, bu ikkala ko'rinishdagi zo'ravonlik turlari oxir-oqibat jabrlanuvchida o'z joniga qasd qilish va qotillik kabi og'ir oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ularning (49,9%) nizoli vaziyatda o'zlarini jazolanishlaridan "qo'rqaman" degan bo'lsa, 27,3 % "hayiqaman" degan javob variantini belgilaganlar.

Respondentlarda o'zlariga tazyiq o'tkazishganda, "nafrat" (14,4%) qayd etilgan bo'lsa-da, oxir-oqibat suitsidga olib keluvchi "qo'rquv" (13,1%), "dunyo qorong'u bo'lib, nima qilishni bilmay qolish" (9,2%), "aybdorlik" (8,9%), "umidsizlik" (8,2%) kabi tuyg'ularning har o'ntadan birida yashirin o'z joniga qasd qilish xavfi mavjud.

Oilalarda suitsid (zo'ravonlik) ni yuzaga kelish holatlarining ko'rsatkichlarini Smart tahlili asosida quyidagicha aniqlandi:

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida shaxslarning o'z joniga qasd qilish harakatining ijtimoiy-psixologik determinantlarining empirik modeli ishlab chiqildi. Hisob-kitob natijalariga ko'ra (3-rasm) Qoraqalpog'iston respublikasi uchun Ijtimoiy ($K1=0,115$), Tibbiy ($K2=0,079$) va Iqtisodiy ($K5=0,13$) bloklar ustuvor ekanligi aniqlandi, bu esa o'z navbatida:

Ijtimoiy sohada:

- bepul psixologik markazlar tashkil qilish;
- mahalla xodimlarining xotin-qizlarda o'z joniga qasd qilishga moyilligini aniqlash bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini maxsus treninglar orqali oshirish;
- aholi bandligini ta'minlash markazlarining faoliyatini takomillashtirish (aholida mexnat motivatsiyasini shakllantira olish ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsion intervyu usulini o'zlashtirish).

Tibbiy sohada:

- mahalla (uchastka) shifokorlarining psixologik va psixoterapevtik yordam ko'rsatish sifatini oshirish;
- jabrlanganlarni bepul dori-darmon bilan ta'minlash;
- viloyat ruhiy-asab kasalliklari dispanserida o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan shaxslar reyestrini shakllantirish;
- o'z joniga qasd qilish xavfini baholash shkalalarini va aholini klinik ko'rikdan o'tkazish hamda tibbiy yordam ko'rsatishda ambulatoriya sharoitida tashvish va depressiyani aniqlash uchun anketalarni joriy etish.

Iqtisodiy sohada:

- tumanlarda ijtimoiy korxonalarini tashkil etish;
- tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish;
- banklardan kredit olish mexanizmini soddalashtirish.

Namangan viloyati uchun Huquqiy (K4=0,074) blok ustuvor ekanligi aniqlandi:

- ichki ishlar tizimi tomonidan Himoya orderi berishni takomillashtirish;
- bepul advokat bilan ta'minlash va huquqiy bilimni oshirishga yordam berish;
- ishonch telefoni orqali huquqiy maslahat berish tizimini rivojlantirish.

Surxondaryo viloyati uchun Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash (K3=0,148) blok ustuvor ekanligi aniqlandi:

- har bir MFYni psixolog va psixoterapevt xodimlar bilan ta'minlash;
- maktablarda muammoli oilalar farzandlariga ko'maklashishda maktab psixologlari rolini oshirish;
- Ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida "xavf guruhi" va ularning oila a'zolariga zarur psixologik yordamni tashkil etish;
- ruhiy va xulq-atvor buzilishlarini erta tashxislash, o'z joniga suiqasd qilishning oldini olish va boshqa dolzarb yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot rejasini ishlab chiqish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'z joniga suiqasd qilish jamiyatning jiddiy muammosi sifatida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish zarur.

Xususan:

- deviant xulq-atvor ko'rinishlaridan biri sifatida o'z joniga qasd qilish hodisasining o'rganishga doir sotsiologiya, psixologiya, huquqshunoslik, iqtisod yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni ko'proq olib borish va oldini olish metodologiyasini ishlab chiqish;
- suitsidal xulqning normal tarqalish xususiyatlaridan biri – erkaklar o'rtasidagi suitsid ko'rsatkichlarining ayollar suitsidan ko'p bo'lishi ekanligini e'tiborga olgan holda, ayollar suitsidi ko'rsatkichlarining yuqoriligini normadan tashqari holat sifatida baholash va uning oldini olish bo'yicha maxsus davlat dasturi ishlab chiqilib, unga qarshi kurash ishlarini maqsadli ravishda tashkil etish;
- o'z joniga qasd qilishlar ko'rsatkichlarida o'sish tendensiyasi kuzatilayotgan Andijon, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyat mutasaddilarining ushbu holatlarga kuchli e'tibor qaratishi;
- aholi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 5116-son Qarorining mazmun-mohiyati, ushbu qaror asosida tashkil qilingan rehabilitatsiya markazlari va "Ishonch telefonlari" faoliyati to'g'risidagi xabardorlik darajasining pastligini e'tiborga olgan holda, ommaviy axborot vositalari orqali olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, rehabilitatsiya markazlarining hamkor tashkilotlar, xususan, jabrdiyda ayollarning huquqiy muammolarini hal qilishda IIV va prokuratura organlari bilan,

iqtisodiy masalalarda jabrlanuvchi yashaydigan MFYlar, mahalliy hokimliklar o'rtasida hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

– MFY xodimlaridan ham norozilik yuqoriligini e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan alohida tadbirlarni amalga oshirish;

– xalqaro tajribalarga tayangan holda, jamiyatda fuqarolar o'rtasidagi zo'ravonliklarni bartaraf etish uchun ushbu jarayonning muhim elementi bo'lgan "zulm zanjiri"ni uzishga qaratilgan faoliyatni kuchaytirish kabilarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi va Konstitutsiyasi / <https://constitution.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi va Neft Kodekslari / <https://www.lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi Qonuni / <https://lex.uz/docs/-4494709>
4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni. / <https://www.lex.uz/>
5. "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-son Qonuni/ <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>
6. Ботиров Б., Ботирова С. Социцидал фаоллик ва уни прогнозлаш муаммолари./ Монография.-Тошкент.: "Фан ва технологиялар нашриёт уйи", 2021. 118 бет
7. Шоумаров Ғ., Соғинов Н.ва бошқалар. Суицид ҳолатларини тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлар. Услубий қўлланма. Тошкент.2020.141 бет

BACTERIAL SCREENING OF SALIVA FROM POSTOPERATIVE WOUNDS IN CHILDREN WITH CONGENITAL ANOMALIES

Khatamov Ulugbek Altibayevich,

Khatamova Shahlo Altibayevna

Tashkent State Dental Institute

hatamovulugbek@yahoo.com,

ORCID ID:0000-0001-8466-3036

ABSTRACT

Differences in the anatomical structure of the nose and oropharynx in this group of patients also determine the composition of the microflora of the oral cavity. The most important condition for non-invasive protection is the normal microflora. Due to the large concentration of lactic acid, many representatives of the autoflora (especially streptococci, lactobacilli) have a pronounced inhibitory effect on pathogenic microorganisms and conditions. After this, the composition of the autoflora changes, which can lead to the development of dysbiosis, which increases the release of opportunistic species such as S. aureus, Enterococcus, fungi of the genus Candida and the reduction of Lactobacillus and Streptococcus species, which can affect the treatment process.

Key words: congenital cleft lip and palate, dentoalveolar anomalies, prevalence, birth rate, children.

Bryzgalov, IA, et al. (2010) monitored patients with clefts of the alveolar process, hard and soft palate. We studied the qualitative and quantitative nature of changes in the composition of the microflora of the oral cavity before and after surgery. In the preoperative period, crops were taken from the edges of the cleft, in the postoperative period, from the wound surface in the area of the sutures for 3-4 and 10 days after surgical treatment.

The study of microbiological material was carried out by standard methods involving the isolation of the coccal group, enterobacteria, Candida fungi.

Streptococcus was detected in 80% of patients, 60% of peptostreptocock, fuzobakter, 40% of actinomycetes, Prevotella intermedia, Serrati marcescens, Haemophilus spp. Moreover, the bacteria were not isolated in the monoculture, but by communities in association from 3 to 6 species. For 3-4 days there was an increase in the growth of microflora. Streptococcus most commonly encountered sangrias (75%), Fusobacterium spp. (50%), Serrati marcescens (75%). Some species were not

identified at all (*Actinomyces* spp.). With a favorable postoperative course, epithelialization of the wound is noted by 9-10 days. At the same time, a tendency towards normalization of the specific and quantitative composition of the microflora of the oral cavity was noted. Thus, the elimination of anatomical disorders of the oral cavity characteristic of patients with cleft hard and soft palate leads to a gradual normalization of the quantitative and qualitative composition of the microflora of the oral cavity, which must be taken into account when prescribing anti-bacterial and anti-inflammatory therapy in the postoperative period. Today, complex treatment of dental diseases is generally recognized as a modern priority area. In this regard, the correction of oral microbiocenosis in individuals with various dental diseases is a necessary addition to the treatment regimen, providing a protective effect against the growth of opportunistic bacteria.

From the microbiological standpoint, it is of great interest to detect and study the factors that ensure persistence of conditionally pathogenic microorganisms, since the creation of persistent and unfavorable microbiocenosis poses the problem of searching for drugs aimed at reducing and eliminating these properties in cultures colonizing the oral cavity of people suffering from dysbacteriosis.

Interesting data was obtained (Rusyaneva, E.E. et al., 2002) after the operation of rhinochaeloplasty for congenital cleft lip and palate aged 12 to 18 years. Comparative analysis of the results obtained for the four biotopes showed that the growth of microorganisms is observed on all mucous membranes, with the exception of the oronasal mouth (8%).

Monocultures were isolated in 42% of cases from the nasal mucosa on the side without lesion and the mucosa of the oronasal fistula, while in the monoculture pharynx was absent in 100% of cases, and on the mucosa from the lesion side, every fourth patient. Among the associations, the leading were two-component on the mucous membranes of the nose and threecomponent on the mucous membranes of the oronasal fistula and pharynx.

Thus, microflora dysbiosis defining studied habitats are: *St. aureus*, *Str . D, E* group. *faccalis*, yeast-like fungi of the genus *Candida*. The listed microorganisms were more often and in large quantities met on the mucous membrane of the oronasal tract and the nasal mucosa from the side of the lesion.

In the same work the analysis of the obtained immunological research is done.

The results show that the most significant violations are determined in the phagocytic function of neutrophils. These disorders were manifested in a significant decrease in the phagocytic activity of neutrophils, their digesting capacity, and the level of serum lysozyme.

Interesting data is given in the work of L.N. Rogov. et al., 2015; Thus, these data have shown that congenital cleft lip and palate in children create favorable conditions for increasing colonization of endotoxic microorganisms and nasal microflora in the periodontal 3-4 teeth, as well as in the region of the cleft palate. The level of enterotoxic bacteria along the cleft is almost 6 times higher than in children without pathology. In the oral mucosa, the basement membrane is thin and undifferentiated, the amorphous substance is more permeable, which creates favorable conditions for the spread of conditionally pathogenic microflora.

The emerging phenomenon and —mouth breathing” leads to hypo-salivation and reduced production of mucin, lysozyme, lactoferrin, IgA and other factors that protect the oral mucosa. Also, against the background of a decrease in local immunological reactivity, the magnesiumcalcium balance, which is involved in the mechanisms of nosi resistance and regeneration of the oral mucosa, is changing. It is quite obvious that all these changes determine the appearance of the overgrowth syndrome of microbes.

The most interesting data are presented in the work of Azimov A.M. (2007). So, the results of microbiological and immunological studies showed that the inclusion of IRS-19 in combination with drug treatment before and after sky plastics have a significantly positive effect on the microbiocenosis and local protection factors of the oral cavity from the very first day after application, optimizing the course of the wound process.

In recent years, of particular interest is the revision of the microbiological concept of exposure to the microflora of the oral cavity justifies the use of probiotics - drugs of microbial or non-microbial origin that inhibit the growth of pathogenic and conditionally pathogenic microflora and their associations.

Nevertheless, a promising direction in the complex treatment of oral pathology is the use of bacterial preparations, the active principle of which are strains of representatives of normal microflora with high antagonistic, enzymatic and immunostimulating properties.

To date, there is a sufficient choice of means to maintain and maintain the balance of the normal microflora of the oral cavity, so a more urgent task is their rational and targeted use, taking into account the individual characteristics of a particular microbiocenosis of a particular patient.

The healing of postoperative wounds after uranoplasty depends on many reasons of a clinical nature (error in the choice of the procedure, technical failures, errors of postoperative management, etc.), the presence of general somatic diseases. All this ultimately affects the features of metabolic and structural changes in the tissues of the sky, which directly affect the course of postoperative regeneration and healing.

Based on modern ideas that energy metabolism occupies one of the central places in the metabolism of organs and tissues and can act as a decisive factor determining the direction and nature of the development of pathological processes, in the opinion of N. A. Kolesova (2012) it is appropriate to study its features in case of various types of palate defects, since these indicators, in combination with changes in the structure, can reveal the main factors that cause the low effectiveness of surgical interventions. The peculiarity of the energy metabolism of the mucous membrane of the palate during congenital non-adhesions is the predominance of glycolysis in the epithelial and connective tissue cell elements, which can be regarded as assign of the development of compensatoryadaptive processes under conditions of impaired trophic support of tissues in this pathology, for which tissue respiration prevails. With residual defects, there is a tendency to increase the signs of tissue hypoxia, which is confirmed by a decrease in the activity of enzymes of all metabolic cycles, from scientists. Amplified and microcirculatory disturbances that cause deterioration in oxygen Incoming tissue buildup of tissue hypoxia that stimulates proliferation and higher functional activity of fibroblasts, which leads to fibrosis and impaired mucosal regeneration and healing of postoperative wounds. The mechanism of these violations may be due to increased trophic changes in connection with the operational intervention in the soft palate .

In the case of secondary defects of the hard palate, there is a significant decrease in the energy processes of all the cycles studied, both in the epithelium and in the cellular connective tissue elements. This is combined with the progression of dystrophic and destructive changes in the surface epithelium, signs of acanthosis. Own plate of the mucous membrane sclerotic changed, compacted. Microvessels are clamped between collagen fibers, the walls of many of them are thickened, sclerosed. In general, this indicates an aggravation in secondary defects of trophic disorders in the palatal tissues and an increase in the signs of tissue hypoxia, which needs therapeutic correction.

Children with CLP - often ill children mostly in the first year of life (65%) with a peculiar predominance of gram-negative microflora in the oral cavity. A favorable postoperative course is possible during surgery in the early stages - on the 3-8th day - and discharge on the 14-21st day of hospitalization. To prevent the development of complications is recommended microbiological examination, complete blood count, and the early stages - before entering or the first days of hospitalization.

The same opinion is shared by the American experts Sosso J. F. et al. (2010), which in a comparative study of differences in the microbial environment in children with a cleft palate and in children with a cleft lip in In order to determine the changes occurring in the microbial flora before and after surgery to restore the hard palate and upper lip showed that patients with a hard palate cleft had a significantly higher

frequency of colonization by staphylococcus, but not a resistant strain to methicillin *Staphylococcus aureus* ($p = .0298$; chi - square test). The closure of the hard palate cleft coincided with a significant decrease in the prevalence of *Klebsiella* genera and *Enterobacter* ($p < .05$; McNemar test). The authors find that, despite the high prevalence of significant pathogenic and intestinal flora after surgery during primary reconstruction of the palate, wound infection after surgery rarely occurs during a prospective population study. However, the presence of beta-hemolytic streptococci was associated with a higher risk of wound discrepancy during surgical treatment; therefore, they consider justified routine screening for streptococci before surgery.

The success of the treatment of this category of children in practice will largely depend on the above conditions of care and treatment.

REFERENCES

1. Амануллаев, Р. А., Икрамов, Г. А., Насриддинов, Ж. Х., & Хатамов, У. А. (2020). КЛИНИКО-МИКРОБИОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОЛОСТИ РТА У ДЕТЕЙ С ВРОЖДЕННОЙ РАСЩЕЛИНОЙ ВЕРХНЕЙ ГУБЫ И НЕБА ДО И ПОСЛЕ УРАНОПЛАСТИКИ. *Stomatologiya*, (1), 48-50.
2. ХАТАМОВ, У. А., AND Д. М. ТУЙЧИБАЕВА. "ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ВРОЖДЕННЫХ РАСЩЕЛИН ВЕРХНЕЙ ГУБЫ И НЕБА В РАЗНЫХ СТРАНАХ МИРА (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)." *RESEARCH AND EDUCATION* 1.9 (2022): 404-411.
3. Khatamov, Ulugbek Altibayevich. "MICROBIOLOGICAL ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF THE TREATMENT OF PATIENTS WITH CONGENITAL CLEFT LIP AND PALATE BEFORE AND AFTER URANOPLASTY." *Educational Research in Universal Sciences* 1.7 (2022): 343-351.
4. Ikramov G. A., & Khatamov U. A. (2022). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF AEROSOL "HEXORAL" AND DENTAL ADHESIVE PASTE "SOLCOSERYL" IN CHILDREN WITH CONGENITAL CLEFT LIP OF THE PALATE AFTER URANOPLASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(9), 273–281. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/XYQTJ>
5. Икрамов, Г., У. Хатамов, and М. Уринов. "Improving the prevention of inflammatory complications after uranoplasty in children." *Дни молодых учёных* 1 (2022): 9-12.
6. Икрамов, Г., and У. Хатамов. "Изучение чувствительности микрофлоры полости рта к некоторым лекарственным препаратам." *Stomatologiya* 1.1 (2022): 22-25.

7. Икрамов, Г. А., and У. А. Хатамов. "Клинико-цитологическая характеристика течения раневого процесса после уранопластики у детей с врожденной расщелиной верхней губы и неба." Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия 1.1 (2022): 39-42.

8. ИКРАМОВ, ГА, and УА ХАТАМОВ. "ИНТЕГРАТИВНАЯ СТОМАТОЛОГИЯ И ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВАЯ ХИРУРГИЯ." ИНТЕГРАТИВНАЯ СТОМАТОЛОГИЯ И ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВАЯ ХИРУРГИЯ Учредители: ООО "Scientific Innovations" 1.1 (2022): 39-42.

9. Ikramov, G. A., U. A. Khatamov, and G. Olimjonov Sh. "PREVENTION OF INFLAMMATORY COMPLICATIONS AFTER URANOPLASTY IN CHILDREN WITH CONGENITAL CLEFT PALATE." CUTTING EDGE-SCIENCE (2020): 39.

10. Икрамов, Г., and У. Хатамов. "ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЙ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АНТИОКСИДАНТНОЙ СИСТЕМЫ В СЛЮНЕ У ДЕТЕЙ ПОСЛЕ УРАНОПЛАСТИКИ С ПРИМЕНЕНИЕМ АКТОВЕГИНА." Stomatologiya 1.2 (75) (2019): 30-32.

11. Амануллаев, Р., Юлдашев, А., Икрамов, Г., & Хатамов, У. (2019). МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕЧЕНИЯ РАНЕВОГО ПРОЦЕССА ПОСЛЕ УРАНОПЛАСТИКИ У ДЕТЕЙ ВРОЖДЕННОЙ РАСЩЕЛИНОЙ ВЕРХНЕЙ ГУБЫ И НЕБА. Stomatologiya, 1(2 (75)), 44-46.

12. Khatamov, Ulugbek Altibayevich, and Shahlo Altibayevna Khatamova. "EPIDEMIOLOGISCHE MERKMALE ANGEBORENER LIPPEN-KIEFERGAUMENSPALTEN BEI KINDERN." RESEARCH AND EDUCATION 2.5 (2023): 210-215.

13. Буриев, Н. З., Пулатова, Б. Ж., Абдухаликзаде, Н. Ш., & Хатамов, У. А. (2023). ЭУБИОТИКИ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ПЕРЕЛОМОВ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ В СОЧЕТАНИИ С ДИСБИОЗОМ КИШЕЧНИКА. RESEARCH AND EDUCATION, 2(5), 216-223.

14. Khatamov, U. A. (2022). ANALYSIS OF COMPLICATIONS AFTER URANOPLASTY IN CHILDREN WITH CONGENITAL CLEFT LIP AND PALATE BASED ON CLINICAL AND CYTOLOGICAL STUDIES. Проблемы биологии и медицины, 6, 225-229.

15. Ikramov G. A., & Khatamov U. A. (2022). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF AEROSOL "HEXORAL" AND DENTAL ADHESIVE PASTE "SOLCOSERYL" IN CHILDREN WITH CONGENITAL CLEFT LIP OF THE PALATE AFTER URANOPLASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(9), 273-281. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/XYQTJ>

16. Икрамов, Г., & Хатамов, У. (2022). Изучение чувствительности микрофлоры полости рта к некоторым лекарственным препаратам. *Stomatologiya*, 1(1), 22-25.

17. Икрамов, Г. А., and У. А. Хатамов. "ИЗУЧЕНИЕ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ МИКРОФЛОРЫ ПОЛОСТИ РТА К НЕКОТОРЫМ ЛЕКАРСТВЕННЫМ ПРЕПАРАТАМ."

18. Икрамов , Г., & Хатамов , . У. (2023). Изучение чувствительности микрофлоры полости рта к некоторым лекарственным препаратам. *Stomatologiya*, 1(1), 22–25. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/stomatologiya/article/view/20485>

19. WHO [webpage on the Internet] Birth defects surveillance. A manual for program managers. Geneva: World Health Organization; 2020. License: CC BY-NC-SA 3.0 IGO <https://apps.who.int/iris/handle/10665/337425>.

«ILIK», «QO‘L» KOMPONENTLI SOMATIK FRAZEMALAR (“MAHBUB UL-QULUB” ASARI MISOLIDA)

Hamroqulova Marjona Nabijon qizi

tadqiqotchi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

marganapendragon7@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llangan “ilik” va “qo‘l” komponentli frazemalar tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “ilik” komponentli frazemalar, “qo‘l” komponentli frazemalar, frazeologik birliklarning lingvo-kognitiv tahlili.*

Kishining dunyoni anglashi, bilishi hamisha ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular hamrohligida kechadi. Shu bois insonning emotsional faoliyati, ruhoniyat doirasining sifati hamisha kognitiv xarakterga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra, insonning fikrlash jarayoni bilan bog‘liq holatini o‘zida aks ettiradigan “qo‘l” komponentli frazeologik birlik (FB)larning lingvo-kognitiv tahlili haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Ana shunday iboralarni shakllantiruvchi tayanch so‘z sifatida qo‘l somatizmi leksemalar bilan birikib, turli leksik-grammatik guruhlarga mansub frazemalarning shakllanishida ishtirok etadi. Somatik komponentli frazemalar paradigmasini aksariyat hollarda ikki komponentli ot+fe‘l tuzilishiga ega bo‘lgan fe‘l iboralar tashkil etadi: qo‘l bermoq, qo‘lga olinmoq, qo‘lga kirmoq, qo‘lga olmoq, qo‘lga tegmoq, qo‘lga tushmoq, qo‘ldan bermoq, qo‘ldan ketmoq, qo‘ldan chiqmoq kabi. Bunda fe‘l grammatik tayanch komponent vazifasini o‘tasa, qo‘l so‘zi semantik tayanch komponent bo‘lib, frazemalarning mantiqiy asosini belgilaydi.

Qo‘l komponentli iboralar paradigmasida «ot+sifat» yoki «sifat+ot» modelidagi sifat iboralar faoldir: *qo‘li baland, qo‘li band, qo‘li bo‘sh, qo‘li gul, qo‘li yengil, qo‘li kalta, qo‘li ochiq, qo‘li egri, qo‘li qisqa* kabi. So‘zlashuv nutqida keng qo‘llanadigan, ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo‘lgan, insonning bir necha sifatlarini aks ettiruvchi *qo‘li siniq* va *qo‘li shirin* sifat FBlari negadir lug‘atlarda o‘z aksini topmagan.

Umumturkiy “Qo‘l” so‘zining etimologiyasi haqida Sh.Rahmatullayev lug‘atida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Qo‘l odamning barmoq uchigacha bo‘lgan a‘zosi. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma‘noni anglatgan bu ot qo:l tarzida talaffuz qilingan (DS. 454: qo:l «ruka», qo:lichaq “ruchonka”, qo:llug‘ “imeyushiy ruki”); o‘sha davrlardayoq o: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan (Devon, III, 148-b.): qo:l>qol (O‘TIL, 584-b.). Bu so‘z ko‘p ma‘nolidir. O‘TIL da uning o‘n ma‘nosi ko‘rsatilgan. “Qo‘l” komponentli frazeologizmlar Alisher Navoiy asarlarda ham faol qo‘llangan. Jumladan, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” (ANATIL)ning guvohlik berishicha, shoir asarlarida “qo‘ldin bermak” (qochirmoq, o‘z ixtiyoridan chiqarib yubormoq), “qo‘ldin solmoq” (qo‘ldan chiqarmoq), “qo‘l sunmak” (qo‘l uzatmoq) kabi frazeologizmlar qo‘llangan. “Qo‘l” so‘zi Alisher Navoiy asarlarida uch ma‘noga ega bo‘lgan:

1. Qo‘l, kishining qo‘li. 2. Ko‘chma. Qo‘lida, ixtiyorida, qaramog‘ida: Dedi Jobir: “Ey qo‘limda asir...” (S.S.)

2. Tomon, taraf, tog‘ aro yo‘llar: Ba‘zi o‘ldi, ba‘zi itti yo‘l aro, Ba‘zi avvora bo‘lub har qo‘l aro. (L.T.)

3. Muzikada bir kuy nomi¹.

Sh.Rahmatullayevning “O‘TIFL”da “qo‘l” komponentli 70 ga yaqin ibora ma‘nosi izohlangan. Ularning ayrimlari insonning idrok etishi bilan bog‘liq bo‘lgan, uning ruhiy olamini, his-tuyg‘ularini ifodalaydigan iboralar sirasiga kirsam, ba‘zilari milliy dunyoqarash normasiga borib taqaladi. Navoiy asarlarida, jumladan, “Mahbub ul-qulub”da “qo‘l” komponentli juda ko‘p frazemalar qo‘llangan.

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da “**qo‘l(i)ni yuvib qo‘ltiqqa urmoq**” iborasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: Ixlosi qaytib, ishonmay qo‘yib, diqqat-e‘tibordan soqit qilmoq. Varianti: qo‘l(i)ni yuvib qo‘ltig‘iga artmoq. Qo‘lini qo‘ltig‘ig‘a urmoq.

«Mahbub-ul qulub»da bu iboraning Navoiy davridagi varianti «*ilik yuvmoq*» shaklida uchraydi. Buning ma‘nosi ANATILda «umid uzmoq, kechmoq» deb izohlangan. Misoliga:

*Navoiy, emdi o‘zungdin ilik yuvkim, o‘lgung,
Ki zohir ayladi shakki, qiyomat ul qomat.*

Insoning bir qancha harakatlarini bildiruvchi tilimizda fe‘l xarakterdagi “qo‘l” komponentli iboralar mavjud: *qo‘l tort-*, *qo‘l (imzo)qo‘y*, *qo‘l ur-*, *qo‘lga tush-*, *qo‘ldan ket-* boshqalar. “Mahbub ul-qulub”da ularning ko‘pi uchraydi, faqat *qo‘l* o‘rnida asosan *ilik* leksemasi qo‘llangan: *ilik tort-*, *ilik ur-*, *ilikka tush-*, *ilikdan bor-*, *ilik tebrat-* va sh.k. Misollarga murojaat qilaylik:

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, - Б. 747-748

1. Dono ilikdin borg'ondin so'z aytmas.

Dono *qo'ldan ketgan* (chiqqan) narsani gapirmas.

2. Quloq karligidur molo, ya'ni masmu'otdin **ilik tortmog'lig'dur** barcha nomashru'otdin.

Va quloqni barcha eshitiladigan narsalardan *qo'l tortmog'i* (ya'ni, berkitmog'i) va barcha nosha'riy so'zlarni eshitmasligidir.

3. Hunarmand qoshida behunar **ilik tebratmasa**, ayb tuhmatin anga taqar.

Buni hozirgi tilimizda shunday ifodalashimiz mumkin:

Hunarli, qo'lidan ish keladigan odam oldida behunar – qo'lidan ish kelmaydigan odam ish qilolmasa, aybini unga to'nkaydi.

Bu frazema hozirda tilimizda ishlatilmasligi bilan ajralib turadi. *Ilik tebrat – biror ishga mashg'ul bo'lmoq* (ANATIL, 4 j., 27-b.). Demak, *ilik tebratmasa – qo'lidan ish kelmasa, ish qilolmasa..* Bu o'rinda Navoiy tomonidan individual ibora yaratilgan deb hisoblaymiz.

4. Pas o'zni yaxshilar orasida yashurg'on va alar **etagiga ilik urg'on** yaxshiroqdur.

Bas, o'zni yaxshilar orasiga yashirgan (olgan) va ular etagiga *qo'l urgan* (etagidan tutgan) yaxshiroqdir.

Hozirda bu bora *etagini tutmoq* yoki *etagini ushlamoq* shaklida qo'llanadi. O'TILda bu ibora shunday izohlangan:

1) ish-faoliyatda biror kimsaga mahkam suyanib, undan qolmaslik.

2) biror ish, kasb va sh.k.ning payidan bo'lmoq¹

Lekin bu Sh.Rahmatullayev lug'at kitobida uchramadi.

5. Bu nav' juft kishiga qovushsa, balki mundaq komgorliq **ilikka tushsa**, nihoniy g'am-u mehnatda hamroz va hamdaming bo'lg'ay.

Bu nav' juft kishiga qovushsa, iqbolli xotin *qo'lga tushsa* u yashirin g'amingga sherikdir.

6. Qamar qursig'a **ilking yetmasa**, qo'g'lama, o'tmak ham mag'namdur. (134-b.)

Oy kulchasiga *qo'ling yetmasa*, qayg'urma, oddiygina non ham g'animatdur.

7. Oziqib chiqqan, aytibdur, bu sirot istiqomati anga **dast berdi** (101-b.).

Adashib chiqqanlar yana tavba qilib, shu sunnat yo'li bizga *qo'l keldi* (foйда berdi) dedilar.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, Биринчи жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 60.

Shoir g‘azaliyotida *qo‘l ni jondin yuv* (jondan umid uzmoq), *qo‘l sun* (kirishmoq), *qo‘l tut* (qo‘llab-quvvatlamok), *qo‘l qovushtur* (odob ko‘rsatmoq, tavozelik bo‘lmoq) frazemalaridan unumli foydalanilgan (ANATIL, 4 j., 89-b.)

Tilimizda cheklangan imkoniyatga egalik ma‘nosida “qo‘li kalta” iborasi mavjud. Bu iboraning “qo‘li qisqa” varianti ham mavjud bo‘lib, o‘z navbatida “qo‘li uzun” iborasi bilan antonimlik hosil qiladi. «Mahbub-ul qulub»da buning «ilgi kutoh» shakli uchraydi. Kalta sifati o‘rnida, uning forsiycha muqobili qo‘llangan: *Qisosi tig‘idin o‘g‘ri ilgi el molidin kutoh* (7-b.).

Navoiy g‘azaliyotida ham *ilik* komponentli frazemalar ko‘p uchraydi. Masalan, turkona frazeologizmlardan biri “*qo‘ldan ixtiyorini bermok*” iborasidir. Bu turg‘un birikma bugungi kunda faol iste‘molda. Quyidagi uchta baytda mazkur ibora qo‘llangan:

*Biravni, eyki, sevmak orzu qilding, havosinda
Iligtin ixtiyorining bermagil zinhor men yanglig¹.*

Birovni sevmokni orzu qilsang, men kabi ko‘yida ixtiyorini zinhor qo‘ldan bermagin. Oshiq – ishqda bandi bo‘lgan shaxs. Bandi bo‘lgan kishining qo‘lida esa erki bo‘lmaydi. Quyidagi baytda esa elning inon-ixtiori butunlay (yaksar) qo‘ldan chiqishi mazkur ibora orqali berilgan:

*El inoni ixtiori chiqti yaksar ilgidin,
Po‘yada har sari ul chobukki qaytardi jilav².*

A. Navoiy hamd g‘azallarida ham mazkur iboraning qo‘llangiligini ko‘rish mumkin. Shoir mazkur ibora orqali insonning bu dunyoga kelib-ketishi uning ixtiyorida emasligi tufayli uni o‘z holiga tashlab qo‘ymasligini Yaratgandan so‘rab, munojot qiladi. Buning uchun Qur‘oni karimning “Anbiyo” surasidagi

*“Ey Robbim, meni yolg‘iz tashlab qo‘yma,
Sen O‘zing vorislarning eng yaxshisidan”* degan muborak oyatiga murojaat qiladi.

*O‘z ilgida chun hech yo‘q ixtiori,
O‘ziga ani qo‘ymag‘aysen, xudoy³.*

Har uchala misolda “qo‘l” so‘zining qadimiy shakli “ilig” qo‘llangan. Bu bilan, bir tomondan, davr ruhini berish nazarda tutilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, she‘riy vazn “ilig” so‘zining qo‘llanishini talab qiladi. Shoir “qo‘ldan ixtiyorini bermok” iborasining “qo‘li ixtiori bor” shaklidagi antonimidan ham o‘z maqsad-muddaosini ifodalash uchun foydalangan.

Fig‘onni zabt qilurmen, valek ul qotil

¹ Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-васат. –Т.: Фан, 1990.-Б.221

² O‘sha asar, -B.356

³ O‘sha asar, -B.5

*Chu jilva ayladi, ilgimdin ixtiyor borur*¹.

Shunday qilib, “qo‘l” komponentli iboralarning kognitiv tahlilidan quyidagi natijalarga erishdik:

1. “Qo‘l” – umumturkiy so‘z. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham keltirilgan bu so‘zning umumturkiy so‘z ekanligi ta’kidlangan. Ko‘p ma’noli xarakterga ega bu so‘zning O‘TIL da o‘nta ma’nosi ko‘rsatilgan.

2. “Qo‘l” komponentli frazeologizmlar Alisher Navoiy asarlarida ham faol qo‘llanilgan va ular turli ma’nolarni ifodalaydi.

3. “Qo‘l” komponentli iboralarning ayrimlari insonning idroki bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy olamini, his-tuyg‘ularini ifodalasa, ba’zilari milliy dunyoqarash me’yorlariga borib tutashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. И-Р. Э.И.Фозилов таҳрири остида. Т.: Фан, 1983.
2. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-васат. –Т.: Фан, 1990. –Б 221.
3. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. XIV жилд. – Т.: Фан, 1998.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи. 1976.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, Биринчи жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹ O‘sha asar, -B.110

ENCOURAGING STUDENTS TO CREATIVE THINKING THROUGH ADAPTATION TO THE LEARNING PROCESS

Muqumova Dilrabo Inatovna,
associate professor of National Research University "TIQXMMI",
Temirova Zohida Ilkhomjon qizi assistant,
Rizaeva Shakhnoza Ashurovna, independent researcher

ANNOTATION

O'zbekiston SSR KP Markaziy Komiteti hamda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1970-yil 2-oktabrda «Respublikada maktabgacha ijtimoiy tarbiyaning hozirgi ahvoli va kelgusidagi rivoji haqida» qaror qabul qildi. Bu hujjatda maktabgacha tarbiya muassasalari qurilishi va ularni zarur vositalar bilan ta'minlash, kadrlar tayyorlash, korxonalar, qurilishlar, kolxoz va sovxozlarning bog'chalarini otaliqqa olishi kabi masalalar ilgari surildi. Bu qarorning ijrosi hamma oblastlarda birdek bajarilmagan. Xususan, Farg'ona va Buxoro oblastlari, O'zSSR energetika va elektrlashtirish ministrligi, Sanoat ministrligi, Qurilish materiallari ministrligi, Qishloq xo'jaligi ministrligi, «Uzglavvodstroy» tashkilotlari maktabgacha tarbiya muassasalari qurish yuzasidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida amalga oshirmagan. Shuningdek, qurilish tashkilotlari «O'zkolxozstroy», «O'zbekgidroelektrostroy», «Glavtashkentstroy» tashkilotlari maktabgacha tarbiya muassasalari qurish rejalarini bajarmagan. Natijada 1971-1975-yillar davomida ayrim viloyatlarda maktabgacha tarbiya muassasalari qurish uchun ajratilgan mablag'larning qariyb 20 million so'mi o'zlashtirilmay qolgan [5.].

Bundan tashqari, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan ayrim bino obyektlari o'z vaqtida bitkazilmagan. Buning sababi, binoning qurilish materiallari bilan ta'minlanmagani, qurish mashina mexanizmlarining yetishmovchiligi, obyektlardagi og'ir ishlar asosan qo'lda bajarilishi kabi muammolar mavjudligi edi. Masalan, 1977-yilda Andijon oblastida 11 ta obyektning 6 tasi, jumladan, Marhamat rayonidagi «Paxtakor» kolxozida qurilishi ko'zda tutilgan bolalar bog'chasi belgilangan muddatda qurib bitkazilmagan.

1980-1985-yillarga kelib Farg'ona vodiysida yangi bog'cha binolarini barpo etish birmuncha jadallashgan. 1980-1985-yillarda Farg'ona oblastida 13 ming o'rinli bog'cha va yasli qurilib foydalanishga topshirilgan [6.]. Shuningdek, 1980-1985-yillarda Andijon oblastida 18710 o'rinli 129 ta bog'chalar qurilgan. Bular jumlasiga mahalliy hokimiyatga qarashli tashkilotlar tomonidan 6350 o'rin, kolxozlar tomonidan 5850 o'rin, sovxozlar tomonidan 2640 o'rin, otaliq tashkilotlar tomonidan 3860 o'rinlar yaratilgan. Mazkur davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'cha va yasli'larga qamrovi 37,1 foizdan 41,8 foizga oshgan. Shuningdek, mazkur maktabgacha

tarbiya muassasalarining moddiy texnik bazasi kengaygan. Xususan, mazkur yillar oralig'ida Farg'ona oblastidagi 393 ta maktabgacha tarbiya muassasalari sport maydonchalariga va 308 tasi cho'milish havzasiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, «Promenergomontaj» tashkiloti Andijon shahridagi 33 va 44-son bolalar bog'chalari uchun sport zali qurib berdi [7.].

Biroq, 1989-1990-yillarda bog'cha va yasli binolarini qurish ishlari yana orqaga keta boshlagan. 1989-yilda respublika bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan qurilayotgan maktabgacha tarbiya muassasalarini ishga tushirish rejasi 45 foizga bajarilmagan. Shuningdek, 1990-yil birinchi yarim yilligida davlat kapital qo'yilmalari hisobidan qurilish ishlari rejasi faqat 18 foizga bajarilgan. 1990-yil hisobotlariga ko'ra, O'zbekiston SSRda 4700 o'rinli bolalar bog'chalari qurish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, shoshma-shosharlik bilan, oz mablag'lar hisobiga qurilgan obyektlarning ko'pi uch yilga bormasdan yaroqsiz (avariya) holatiga kelib qolgan.

Bu davrda maktabgacha tarbiya muassasalariga bola qatnagani uchun ota-onalar tomonidan to'lanadigan badal puli bolalar bog'chalarining turiga qarab har xil bo'lganligi ko'zga tashlanadi. 1970-yilda kolxoz bolalar yaslilaridagi badal puli kolxozlar imkoniyatidan kelib chiqib, turlicha hisoblangan. Xususan, Namangan oblast Pop rayonidagi «Kommunizm» kolxozida 1 nafar bolaning 1 kunlik ta'minoti 40 tiyinni, Yangiqo'rg'on rayoni «XXII partiya syezdi» kolxozida 28-35 tiyin, «Telman» kolxozida 30-40 tiyinni tashkil etgan [8.]. 1970-yilda bolalar bog'cha va yaslilarida bir nafar bola uchun bir yilda o'rtacha 450-500 so'm sarflanib, uning 80 foizi davlat tomonidan to'langan bo'lsa, 1983-yilda har bir bolani boqish jamiyatga 428 so'mga tushgan. Shu harajatning 83,4 foizini davlat o'z zimmasiga olgan [9.].

1982-yilda respublika maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar oziq-ovqat ta'minoti uchun badal puli to'lovlari ota-onalar ish haqidan kelib chiqib to'langan. Bundan tashqari, bog'chalarning turlariga qarab ushbu raqamlar har xil bo'lganini guvohi bo'lamiz. Agar ota va onaning umumiy ish haqi 60 so'mga yetmasa, 9-10,5 soatlik bolalar bog'chasiga oylik to'lov 5 so'm 50 tiyin, 12 soatlik bog'chada 6 so'm 90 tiyin, 24 soatlik bog'chada 8 so'm 30 tiyinni tashkil etgan. 9-10,5 soatlik yaslarga 4 so'm, 12-24 soatlik yaslarga 5 so'm miqdorida to'lanishi belgilangan. Agar ota-onalar umumiy ish haqlari 60 so'mdan 75 so'mgacha bo'lsa bog'chalar uchun 7 so'm, yaslilar uchun 5 so'm to'lov to'langan. Ota-onalar umumiy ish haqlarining o'sib borishi bilan maktabgacha tarbiya muassasalari bolalar ta'minoti uchun to'lov ham oshib borgan. 125 so'mdan 200 so'mgacha ish haqi olgan ota-onalar farzandlari uchun 8-10 so'm badal puli to'lagan.

XULOSA

Ko'rib o'tilgan yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy texnik bazasi qoniqarli holatda emas edi. SSSR Maorif ministrligiga qarashli maktabgacha tarbiya muassasalari binolarining texnik holati tahlil qilinganda, bolalar bog'cha va yashilardagi 5,9 million nafar bolalarning 1,4 millioni (23%) mukammal ta'mirtalab binolarda, 0,2 millioni (4%) buzilish (avariya) holatidagi binolarda tarbiyalangan. Qishloqlarda yangi namunaviy binolar qurilgan, lekin bog'cha binolari loyihasining o'sha joyga mosligi hisobga olinmagan. 1970-yillarda O'zbekiston SSRning qishloq joylarida ham 2 qavatlik «tipovoy» bog'cha binolari qurish ommalashgan. Lekin, suv, kanalizatsiya, issiqlik tizimi mavjud bo'lmagan joylarda bunday «tipovoy» binolardan foydalanish imkoni yo'qligi sababli tez fursatlarda ta'mirga muhtoj holatga kelgan. Xususan, bu kabi 2 qavatlik binolarning tomi shifer yoki tunuka bilan yopilmay, qoraqog'oz va bitum bilan suvalgani uchun uning tomidan chakka o'tib turgan, shu sababli ham binolarning ikkinchi qavatidan deyarli foydalanilmagan.

Mazkur yillarda qator bolalar bog'chalari moslashtirilgan turli binolarda joylashgan. O'rganilayotgan davrda maktabgacha tarbiya muassasalari uchun maxsus binolar qurilgan bo'lsa-da, ular mavjud bolalar bog'chalarining faqat oz qismini tashkil etgan. Manbalar tahlili ko'rsatadiki, bu davrda foydalanishda bo'lmagan binolardan bolalar bog'chasi sifatida foydalanish odat tusiga kirgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi qishloqlarida joylashgan ayrim masjid binolaridan maktabgacha ta'lim muassasasi sifatida foydalanilgan. Shuningdek, ayrim hollarda ma'lum tashkilot, korxonalar yoki kolxozga qarashli bolalar bog'chalari o'sha tashkilotda mehnat qilgan xodimlarning uyida tashkil etilgan va faoliyat yuritgan. Ko'pgina bog'chalarda jihozlar bo'yicha mavjud kamchiliklar yillar davomida bartaraf etilmagan. Shuningdek, bolalar soniga qarab binolar qurish muammosi ham hal etilmay kelingan. Zarur jihozlar uchun ajratilgan mablag'lar yetarli bo'lgani holda, bu mablag'larning o'zlashtirilmay qolish holatlari ko'p kuzatilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Пленум Ферганского Горкома партии. (1945). *Правда Востока*, 15.08.1945
2. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘uxat, 5490-ish, 14-varaq.
3. Ишанходжаева О. (1990). *Педагогическое основы становление и развитие общественного дошкольного воспитание в Узбекской ССР (1924-1980 гг)*. Дисс. на соиск. уч. степ. докт. пед. наук – Ташкент, 1990. – С. 97.
4. Farg‘ona VDA, 1-fond, 10-ro‘uxat, 32-ish, 21-varaq.
5. Шермухаммедов С. (1976). Таълим ва тарбия ишларини такомиллаштиришнинг муҳим масалалари. *Совет мактаби*. 09 (76), 3.
6. Умаров Х. (1985) Болалар боғчалари. *Ўзбекистон коммунисти*, 09(85), 20.
7. Andijon VDA, 1-fond, 2-ro‘uxat, 1903-ish, 152-varaq.
8. Namangan VDA, 111-fond, 1-ro‘uxat, 834-ish, 152-varaq.
9. Саидов Х.(1985). Шахсий истеъмол структурасини шакллантириш. *Ўзбекистон Коммунисти*, 07 (85), 48.

SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH UCHUN MAHALLIY XOM ASHYOLARDAN OLINGAN SORBENTLARNING MEXANIK MUSTAHKAMLIGINI ANIQLASH

Oljayev Dilshod Nurmurodovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

oljayevdilshod@mail.ru

Xurshida SHodievna Urunova

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

xurshidashodiev@mail.ru

Bozorov Lochin Azamatovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti doktoranti

bozorovlochin@mail.ru

Barakayev Muxriddin Bobosherovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

barakayevmuxrid@mail.ru

***Annotatsiya:** Dunyoda toza suvning dolzarbligi, ishlab chiqarish korxonalarini, qishloq xo'jalik yer maydonlarining kengayib borishi va aholi sonining jadal o'sib borishi natijasida suvga bo'lgan talab ortib bormoqda. Sanoatda suvni xomashyo va energiya manbai sifatida, sovitguvch yoki isituvchi, erituvchi va ekstragent sifatida ishlatib, oqova suvlarni tozalash inshootlarida muayyan tozalanib, ularni yana suv xavzalariga oqiziladi. Shuning uchun, suvni muxofaza qilishda iflos suvlarni tozalashdagi muxandislik ishlarini yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarining barcha tsexlarida suv asosiy manbalaridan o'rin olgan. Yuqoridagi soxalarda xar xil jarayonlarda ishlatish uchun yaroqsiz oqova suvlarni tozalab, ishlab chiqarish soxalariga qaytarish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida ishlatilib bo'lgan oqova suvlarini oqar suvlarga oqizishi natijasida oqar suvlarning ifloslanishi nafaqat oqar suvlarni, atrof muhitni, hamda gidrosferani ham ifloslanishiga sabab bo'lmoqda.*

***Kalit so'zlar:** Sanoat oqova suvlar, erituvchi, termik tozalash, isituvchi, gidroliz, kimeviy, fizik-kimyoviy, biologik, membranali tozalash, gidroliz ultra filtr, sanoat suvlari, xomashyo.*

KIRISH

Texnologik va boshqa jarayonlarda hosil bo'ladigan oqova suvlar hajmi odatda suv iste'moli hajmiga nisbatan katta bo'ladi. Konchilikda ayniqsa drenaj suvlari ko'p hosil bo'ladi va ularni tozalamasdan turib, texnologik jarayonda foydalanib bo'lmaydi. Suv tozalash inshootlari bo'lmagan joylarda bu suvlar ochiq suv havzalariga tashlanib, ulardagi suvni ham ifloslaydi. Bu esa, pirovard natijada, o'sha joyning ekotizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Suvning ifloslanishi ayniqsa ko'mir konlarida kuchli bo'ladi. Ko'mir konlarining drenaj suvlarida odatda ko'mir va yo'ldosh elementlar zarralari, xlorli birikmalar, sulfat kislotasi, temir sulfati, fenol, kalsiy, magniy, natriy, kaliy va boshqalarning birikmalari uchraydi. Shuning uchun ham bunday shaxta suvlarini tozalab zararsizlantirmasdan turib ulardan hatto texnik maqsadlarda ham foydalanish mumkin emas. Bulardan tashqari, kon suvlari o'zida mis, rux, marganes, nikel, simob, qo'rg'oshin, uran va boshqa og'ir metallarning tuzlarini saqlaydi. Bunday suvlar yer usti yoki yer osti suvlariga qo'shilganida ulardagi ifloslovchi moddalar tabiiy modda aylanish doirasiga kirib, ekotizimlarga zarar etkazishi mumkin. Tuproqqa cho'kib, yer osti suvlariga aralashgan ifloslovchi moddalar yer osti suv oqimlari bilan uzoq masofalarga tarqaladi. Bunday holatda kon korxonasi atrof muhitga lokal ta'siri regional ta'sirga aylanadi.

USULLARI

Olingan namunaning mexanik faolligini aniqlash D.A.Muchnik metodi bo'yicha olib borildi buning uchun 500 g sholi qipig'i namuna sifatida o'lchab olindi, 80^oS haroratda quritildi. 1,0 va 0,5 mm diametr o'lchamga ega bo'lgan elakdan elab olindi. 1,0 mm li elakdan o'tgan va 0,5 mm li elakda qolgan maxsulotlardan 200 g o'lchab olinib va 200 ml suv solingan kolbada 10 soat mobaynida maxsus qurilmada aylantirib, chayqatib turildi. Belgilangan vaqt tugagandan keyin olingan namuna quritildi va diametri 0,5 va 0,25 mm bo'lgan elakda elab olindi. Bunda o'lchami 0,5 mm li elakdan o'tgan va o'lchamli 0,25 mm li elakdan o'tmay qolgan namuna miqdori xomashyoning maydalanganlik darajasini bildiradi. Biz olib borgan tajriba natijalarimiz miqdor 62 % ni hosil qilgan bo'lsa. Namunalar 0,5 mm li elakdan o'tgan xom ashyolar miqdori 16 % ni va 0,25 mm li elakdan o'tgan tayyor holda olingan sorbent namuna miqdori 22 % ni tashkil etdi. SHolipoya qipig'idan olingan mahsulotning solishtirma yuzasi va g'ovaklik holatini aniqlandi. Olingan mahsulotning solishtirma yuzasi va yuzaga keluvchi zarralarning 65 o'lchami, donador granula bo'laklarda o'zaro o'rnashish holati va donador bo'laklarning g'ovakligi bilan aniqlanadi.

NATIJARLAR

Olingan namunalarimizning g'ovakliklari xomashyolarimizga adsorbentga natriygipoxlorid yuttirib, o'lchash va standart adsorbentga taqqoslashga asoslangan

holda BET usulida aniqlandi. 1-jadvalda tabiiy xomashyolar yani sholi qipig'idan olingan namunalarining: solishtirma yuzasi kattaligi, g'ovaklarning umumiy hajmi, va ularning 30-110 nm intervaldagi radiuslar bo'yicha o'rnashishi holati ko'rsatilgan.

**Sorbentlarning solishtirma yuzasi va g'ovakligi
(1-jadval Natriy gipoxlorid 10soat shimdirilganda)**

	Namuna turi	Solishtirma yuzasi, m ² /g	Mikrog'ovaklar hajmi sm ² /g	G'ovaklarning diametri bo'yicha joylashishi %		
				5-50 n.m.	50-100 n.m	>100 n.m
1	SHoli qipig'i	48,6	0,048	38	25	43
2	Bentonit					
3	Soponit					
4	Vermikulit					

**Sorbentlarning solishtirma yuzasi va g'ovakligi
(2-jadval 1% li vadorad peroksidga 10 soat shimdirilganda)**

	Namuna turi	Solishtirma yuzasi, m ² /g	Mikrog'ovaklar hajmi sm ² /g	G'ovaklarning diametri bo'yicha joylashishi %		
				5-50 n.m.	50-100 n.m	>100 n.m
1	SHoli qipig'i	44,5	0,043	37	23	42
2	Bentonit					
3	Soponit					
4	Vermikulit					

Olingan namunalardan quydagicha xulosa chiqarish mumkinki, yaxshi ko'rsatgichga ega bo'lgan va 10-80 nm o'lchamdagi g'ovakliklar miqdori ko'p miqdorda ekanligi aniqlandi, lekin uning boshqa reogentlarga shimdirilga namunalardan farqi 15 % dan oshmaydi, shuning uchun ika namunaning sirt yuzalari tavsifi, mikrog'ovakliklari bir-biriga yaqin deb hisoblash va kelajakda sanoat miqiyosida foydalanishga tavsiya qilish mumkin. Maxalliy xomashyolardan olingan komponentni qo'shimcha bog'lovchilarsiz granulalash jarayoni quyidagi bosqichlarda olib boriladi: konsentratni mexanik faollashtiriladi, gomogenlanadi, granulalanadi va o'lchamlariga qarab saralanadi. Oingan namunani mexanik faollashtirish jarayoni zo'ldirli tegirmonda olib boriladi, bu jarayon granula olish uchun mayda dispers yarim mahsulot olish uchun qo'llaniladi. Bu jarayonda shuningdek, maxsulotning solishtirma

yuzasi va faol markazlarning soni ortadi, natijada o'z-o'zidan uning sorbsion xususiyatlari yaxshilanadi. Bunda zarralarning maydalanish darajasi 25-50 mkm oralig'ida bo'lishi kerak. Chunki 50 mkm dan katta bo'lsa, disperslik darajasi etarli bo'lmaydi, plastikligi past bo'ladi va granula xolatiga keltirish qiyinlashadi. Agar mkm dan mayda bo'lsa kristall panjaralari buzilib 25 ketadi, amorf struktura hosil bo'ladi, hamda komponentning muhim xossalari bo'lgan solishtirma yuzasi va g'ovaklar sonining kamayib ketishiga olib keladi. SHuning uchun maxalliy xomashyolardan olingan konpanenlarni keyingi qayta ishlash jarayonlari uchun ulchamlari 25-50 mkm oralig'idagi ekspluatatsion va sorbsion xususiyatlari optimal bo'lgan fraksiyalarini ajratib oldik. Gomogenizatsiya bosqichida maydalangan komponentga 30 % miqdorda suv qo'shib, aralashtirgichda yaxshilab aralashtirdik. Suvning bu nisbati tajribada aniqlangan bo'lib, granula hosil qilish uchun komponent massaning optimal konsistensiyasini olishga imkon beradi. Olib borilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatdiki, agar suv taklif qilingan miqdordan kam bo'lsa, u komponent tarkibida notekis tarqaladi va to'liq granula hosil bo'lmaydi. Qo'shiladigan suvning miqdori ortiqcha bo'lsa, mineral massa oquvchan bo'lib qoladi va granula hosil qilib bo'lmaydi. Mineral massani suv bilan to'liq gomogenlash uchun 15 minut to'xtovsiz aralashtirish etarli bo'ldi. Granulani shakllantirish bosqichida mineral massaga kerakli o'lchamda shakl beriladi. Granulalash jarayoni quvvati 50 kg/soat bo'lgan FSH-004 markali laboratoriya granulyatorida olib borildi. Bu uskunada granulalash jarayoni shundan iboratki, qayta ishlanadigan tayyor mineral massani shnekli uskunada o'lchami 1,0 mm bo'lgan panjaradan bosim ostida siqib chiqarishdan iborat. Granula holiga kelgan komponent massasini quritish uchun 150-200⁰S xaroratda, 1 soat davomida quritish shikofida quritdik. Quritilib, bir xil keltirilib og'irlikka keltirilgan namunalarni kattaligi 3,0 va 1,0 mm bo'lgan elakda elab oldik. Olingan namunaning diometri 3,0 mm dan katta bo'lgan fraksiyadan olingan komponentni qaytadan maydalashga tegirmonga jo'natildi, 1,0 mm dan kichik bo'lgan fraksiyani esa qayta gomogenlash jarayoniga berildi. Talab qilingan o'lchamdagi, yani 1,0-3,0 mm oralig'idagi granulalar esa keyingi bosqich bo'lgan termik faollashtirishga jo'natildi. Granulalangan sorbsion komponentni termik faollashtirish. Granula holatidagi yarim mahsulot termik faollashtirish natijasidan keyin tayyor sorbentga aylanadi. Kuydirish vaqtida granulalar zichlashadi va mustahkamligi oshadi, bu holat esa sorbentning ishlash muddatini uzaytiradi. Termik faollashtirish jarayonida xarorat, qizdirish vaqti kabi parametrlar oxirgi mahsulotning xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Maxaliy xomashyolaridan olingan granulalarini termik faollashtirish SNOL-1.6/1100 markali mufel pechida olib borildi. 150-200⁰S da hosil bo'lgan endoeffektlar adsorbsion suvlarning yo'qotilishini ko'rsatadi. SHuning uchun kuydirishni 500-700⁰S oralig'ida olib bordik, bunda sorbsion komponentlarning

kristall panjarasida yo‘naltirilgan o‘zgarishlar ketadi, ya’ni tartibliliği yaxshilanadi, natijada sorbsion komponentlar mustahkamligi ortadi. Maxaliy xomashyolardan olingan granularining maydalanishi, emirilishi kabi mexanik ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuydirishning optimal texnologik parametrlarini aniqlash natijalari keltirilgan. 3-jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, 750⁰S xaroratda 1,0 soat kuydirilgan maxaliy xomashyolardan olingan konpanenlarli granulari namunalari mexanik mustaxkamligi jihatidan o‘rnatilgan talablarga javob beradi va ularni oqova suvlarni tozalashda qo‘llaniladigan sorbent yuklanadigan filtrlarda qo‘llash mumkin. Kuydirishni 1,0 soatdan oshirish granularning mustahkamlik holatini sezilarli natijada oshirmaydi, faqat energiya sarfining oshishiga olib keladi.

3-jadval mahaliy xomashyolardan olingan granulari mexanik ko‘rsatkichlarining termik qayta ishlash sharoitlariga bog‘liqligi

Olingan namunaning termik qayta ishlash jarayonlari		Tayyorlangan mahsulotning mustahkamligi	
Harorat ⁰ S	Kuydirish vaqti, soat	Maydalanish darajasi % Me‘yor<4	Emirilish darajasi % Me‘yor<4
550 ⁰ S	0,5	5,6	0,7
	1	5,3	0,8
	1,5	5,1	0,7
	2	5,0	0,6
	3	4,9	0,6
600 ⁰ S	0,5	5,4	1,0
	1	5,2	1,0
	1,5	5,1	0,9
	2	5	0,8
	3	4,9	0,7
650 ⁰ S	0,5	4,5	0,9
	1	4,4	0,8
	1,5	4,3	0,7
	2	4,2	0,7
	3	4	0,6
700 ⁰ S	0,5	4,2	0,7
	1	3,8	0,5
	1,5	3,8	0,5
	2	3,7	0,4
	3	3,6	0,4

Shunday qilib, granulalangan komponentni termik faollashtirishning optimal harorati 700⁰S, kuydirish vaqti esa 1,0 soatni tashkil qildi. Quyida keltirilgan 4-jadvalda granulalarning emirilish darajasining kuydirish parametrlariga bog‘liqligi keltirilgan bo‘lib, kuydirish vaqti muddati 1,0 soat optimal deb topilgan.

4-jadval Granulalarning yemirilish darajasining kuydirish parametrlariga bog‘liqligi.

Kuydirish xarorati, ⁰ S	Ma‘lum kuydirish vaqtlarida granulalarning emirilish darajasi, %			
	0,5 soat	1,0 soat	1,5 soat	2,0 soat
550	0,92	0,88	0,76	0,76
600	0,87	0,76	0,75	0,,74
650	0,64	0,60	0,55	0,49
700	0,52	0,39	0,35	0,38
750	0,31	0,28	0,24	0,20

Granulalangan komponentdan iborat sorbsion materialni kimyoviy regeneratsiyalash ma‘lumki, minerallardan iborat granula holdagi filtrlovchi materiallarning adsorbsion xususiyatlarini oshirish uchun ularni kimyoviy reagentlar bilan regeneratsiya qilinadi. kislotalar, ishqorlar, tuzlar kabi reagentlar qo‘llaniladi. Sorbsion materiallarni kimyoviy qayta ishlash qatlamlar orasidagi masofaning ortishiga, kationlar ajralib chiqishining yaxshilanishiga, solishtirma yuzaning ortishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida adsorbsion hajmning ortishiga olib keladi. Komponentlarni 0,1 % natriy gipaxlorid bilan regeneratsiya ilinganda komponent strukturasi samarali ta‘sir qiladi va sorbsion minerallarning kristall panjaralarida defektlar hosil qilib, faolligini oshiradi. Bundan tashqari kislotali faollantirilganda mineral strukturasi anchagina o‘zgarishlar kuzatiladi komponentni 0,1% vadorod peroksid yordamida qayta ishlanganda undagi ishqoriy va ishqoriy er metallari siqib chiqariladi va ularning o‘rniga vodorod kationlari joylashadi, natijada mineralning solishtirma yuzasi faollashtirishdan oldingiga qaraganda deyarli 2 marta ortadi. Mahsulotimiz regeneratsiyalangan granula xoldagi konpanenlarning eritma tarkibidagi ba‘zi metall ionlarini maksimal yutishi ustida tajribalar olib borildi, Bu sorbent namunasi avval 2 soat davomida 1 % li NaCl eritmasida 1 soat davomida qayta ishlangan. Komponentlarning bu usulda regeneratsiya qilinganda birinchidan sorbent inatriy gipoxlorid ta‘sirida faollashadi, uning yuzasida notekisliklar hosil bo‘lib, ba‘zi g‘ovaklar ochiladi, ikkinchidan unga o‘tirgan Na⁺ ionlari ion almashinishda qatnashib, sorbentni qo‘shimcha faollashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Boriyev S., Maxkamova D. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. 2020y.
2. Avazov Sh, Saydamatov F. Ekologiya va atrof – muhit muhofazasi. 2017y.
3. Ergashev T.A., Ergashev A.E. Gidroekologiya. 2020 y.
4. Xujanazarov va boshqalar. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. 2018y.
5. Buriyev S.S. va boshqalar. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. 2019 y.
6. Климов Е.С. Очистка поверхностных вод от нефтепродуктов природными сорбентами / Е.С. Климов, А.А. Лукьянов, В.В. Дубровина, М.В. Бузаева, О.А. Давыдова // Современные наукоемкие технологии. 2010.
7. Боковикова, Т.Н. Использование сорбционных, электрофизических, газожидкостных и микробиологических способов очистки сточных вод пищевых предприятий / Т.Н. Боковикова, Д.Е. Занин и др. // Наука. Техника. Технологии. – 2014.

UDK 615.9:61:616.594.9

ПСИХОТРОП ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИ СОЧЛАРДА АНИQLАSH

Z.A. Yuldashev, N.O'. Abduxaliqova

Toshkent Farmatsevtika instituti, Toshkent sh. O'zbekiston

abduxalikova-n@mail.ru

Inson tanasining ajralmas qismi sanaluvchi soch tolalarida shu organizmga tegishli ko'plab elementlar saqlanadi. Shu bois soch tolalaridan sud-tibbiy ekspertiza jarayonlarida keng ko'lamda foydalaniladi. Bugungi kunda ommalashib borayotgan psixotrop moddalar suiiste'molini aniqlash uchun ham soch tolalari tahlil qilinadi. Xususan, soch tolalarida bir necha oy bir marta oldin qabul qilingan preparatni ham aniqlash mumkin. Ayni masalada soha olimlari bir qancha izlanishlar olib borgan va tadqiqotlar davom etmoqda. Mazkur maqolada psixotrop dori vositalarini soch tolalarida aniqlashning bugungi kungacha yaratilgan turli xil uslublari, ularning afzalliklari hamda kamchiliklari bo'yicha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixotrop, kimyo-toksikologik, sud-kimyo ekspertizasi, soch, GC-MS usuli, CTL, MDMA, kreatin, gidroliz.

ОБНАРУЖЕНИЕ ПСИХОТРОПНЫХ ПРЕПАРАТОВ В ВОЛОСАХ

Многие элементы, принадлежащие этому организму, сохраняются в волокнах волос, которые являются неотъемлемой частью человеческого организма. Поэтому волокна волос широко используются в медицинских и экспертных процедурах. Волосы – это тот же термин, обозначающий потребление психотропных веществ, которые сегодня становятся популярными. В частности, в волокнах волос можно обнаружить препарат, принятый один раз несколько месяцев назад. Ученые отрасли провели и проводят ряд исследований по этому вопросу. В данной статье подробно описаны различные методы обнаружения психотропных препаратов в волокнах волос, их преимущества и недостатки.

Ключевые слова: психотропные, химико-токсикологические, судебно-химические, волосы, токсические, ферментативные, метод ГХ-МС, ЦТЛ, MDMA, креатин, гидролиз.

DETECTION OF PSYCHOTROPIC DRUGS IN HAIR

Many elements belonging to this organism are stored in hair fibers, which are an integral part of the human body. Therefore, hair fibers are widely used in medical and expert procedures. Hair fibers are the same term for determining the consumption of psychotropic substances, which are becoming popular today. In particular, it is possible to detect the drug taken once a few months ago in the hair fibers. Scientists of the field have conducted and are conducting a number of researches on this issue. In this article, the various methods of detecting psychotropic drugs in hair fibers, their advantages and disadvantages, are described in detail.

Key words: *psychotropic, chemical-toxicological, forensic-chemical, hair, toxic, enzymatic, GC-MS method, CTL, MDMA, creatine, hydrolysis.*

Kimyo-toksikologik tekshiruv va sud-kimyo ekspertizasi tadqiqotlarning asosiy maqsadi biologik obyektlarda giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa toksik moddalarni aniqlashdir. Bugungi kunda nafaqat giyohvand vositalar iste'moli, balki psixotrop va boshqa toksik moddalarni qabul qilish hollarini aniqlash, ularni qabul qilish muddati, chastotasi va saqlanish muddatini aniqlash masalasi ham dolzarbdir. Qolaversa, sochlardan kimyo-toksikologik tahlil va sud-kimyo ekspertizasi tajriba va tahlillar obyekti sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa toksik moddalarning uzoq muddatli "ombori" shaklida foydalanishning muqobil usullarini aniqlash va ularni aniqlash usullarini qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Sochlar oqsillardan tarkib topgan biologik material bo'lib, ularning funktsional guruhlari o'zaro toksik moddalarning bog'lanishini ta'minlaydi.

Bugungi kungacha ko'plab xorijiy hamda yurtimiz olimlari sochlardan toksik moddalarni ajratishga oid tadqiqotlarni amalga oshirgan. Jumladan, A.M Baumgartner (1979), G.L.Xenderson (1993), P.Kintz (1996, 2007), Y.Nakahara (1998, 1999), E.A.Simonov (2000), B.N.Izotov (2000, 2014), S.A.Savchuk (2014)lar shular jumlasidandir. Ularning amalga oshirgan tadqiqot usullari hamda natijalari turlicha va o'ziga xosdir. Ayrim o'rinlarda uyg'unlik kasb etganini ham ko'rish mumkin.

Jumladan, P.Knitz hamda E.A.Simonovlarning tadqiqotlarga ko'ra Boshqa a'zolarga (peshob, so'lak va qon) qaraganda, sochlarni tahlil qilish toksik moddalarni qabul qilishning davomiyligi va muddati haqida nisbatan to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi. Xususan, uning rivojlanishi vaqtida sochlar ularni metabolizmsiz o'z tarkibida yig'ishi mumkinligi ushbu toksik moddalarni, uzoq vaqtdan so'ng ham aniqlashga imkon beradi. Soch namunalari tanlash, tashish va saqlash uchun maxsus sharoitlarni talab qilmaydi va takroriy tekshiruvlarda ishlatilishi mumkin [27,38].

Bir qator dori vositalarini qon plazmasidan ajratib olish maqsadida o'rganilgan proteolitik fermentiv gidroliz usullaridan foydalanish istiqbollari ilk bor 2013-yilda N.A.Chuvina tomonidan tadqiq etilgan va tasdiqlangan [37].

Shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan O.YU. Strelovaning ilmiy izlanishlari natijalari ahamiyatlidir. U ilk bor laboratoriya hayvonlarining yungida saqlangan dorivor moddalarni uzoq muddat davomida ishlatish va yig'ish modelini ishlab chiqqan. Giyohvand vositalar, psixotrop va boshqa toksik elementlarni ayirish uchun yung (soch) oqsillarining kislotali va gidroksidi gidrolizidan foydalanish mahalliy toksikant molekulasi yo'q qilinishiga olib kelishi o'z tasdig'ini topgan. Dastlabki marta yung (soch) leykotsitlaridan giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa toksik moddalarni ajratib olish uchun fermentativ gidroliz (tripsin, ximotripsin, ximopsin va papain)larni qo'llash imkoniyati o'rganildi va gidroliz jarayoniga fermentning o'ziga xosligi va inkubatsiya paytida ta'sir qilishi aniqlandi [34].

Dastlab jonivorlarning oq va qora yunglari namunalaridan eksperimental dorivor moddalarni ajratish uchun o'rganilayotgan fermentlar orqali fermentativ gidroliz usullarining samaradorligini nisbiy baholash o'tkazildi va ularning ekstraksiyasi ishqoriy gidroliz usullariga nisbatan 1,5-2 baravar ortganligi aniqlandi. Fermentativ gidrolizning tadqiq qilingan usullari giyohvand vositalar, psixotrop va boshqa toksik moddalarni ajratib olishga, ishonchli identifikatsiyani amalga oshirish va agar zarur bo'lsa, ularning miqdori kam bo'lgan hollarda, mass-spektroskopik aniqlash (GC-MS) bilan gaz xromatografiyasi yordamida miqdoriy aniqlash mumkinligi isbotlangan.

GC-MS usuli bilan dorivor moddalarni miqdoriy aniqlashning usullari ishlab chiqilgan. Enzimatik gidrolizning ishlab chiqilgan usullari konvergentsiya va laboratoriya ichidagi takrorlanuvchanlikni baholashda tegishli natijalarni ko'rsatdi, bu ularni kimyo-toksikologiya laboratoriyasi (CTL) va sud-tibbiyot ekspertizasi byurosining sud-kimyo bo'limlari ishining sud amaliyotida ishlatishga imkoniyat yaratadi [34].

Yu.F. Zuyevning "Invert mikroemulsiyada tripsinning substrat immobilizatsiyasi va katalitik faolligi xususiyatlari" nomli asarida keltirilishicha sochlar teri epidermisining natijalaridir. Ular terining keratinlashtirilgan filamentli epiteliy qo'shimchalari bo'lib, soch follikulasi hujayralarining uzluksiz bo'linishi oqibatida muntazam o'sishi bilan ajralib turadi [13]. Barcha sochlarni 3 guruhga bo'lish mumkin: uzun, tukli va paxmoq. Uzun sochlar bosh, soqol, mo'ylov, teri hosilasini o'z ichiga oladi. Kirpiklar, qoshlar, burun teshiklarining sochlari tuk deb tasniflanadi [13].

T.L. Malikovaning "Sud-toksikologik tadqiqotlar sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari" nomli asarida Zuyevning xulosalari bilan hamfikrlik kuzatiladi. Jumladan, anatomik ravishda sochlar ikki qismga bo'linishi, teri yuzasidan chiqadigan

novda va terining qalinligida joylashgan va qalinlashuv bilan tugaydigan ildiz – xaltacha mavjudligi, uzun va tukli sochlarning poyasi va ildizi uchta qatlam: yadro, kortikal va kutikuladan tashkil topganligini har ikkala olim ham ta’kidlaydi. Ma’lumot o’rnida aytish joizki, kutikula – soch follikulasining kambiy hujayralaridan ajralib turadigan keratinlangan, pigmentsiz hujayralar orqali hosil bo’lgan tashqi soch qobig’idir. Kutikula sochlarning elastikligini ta’minlaydi, uni tashqi muhitning zararli ta’siridan himoya qiladi, parchalanishi va sinishining oldini oladi [13,25].

Shuningdek, Yu.F. Zuyevning ta’kidlashicha kortikal qatlamda granulali pigment melanin mavjud bo’lib, u och sariqdan jigarrang va qora ranggacha tus beradi. Keratinizatsiya vaqtida ildizning yuqori qismidagi hujayralar epidermisning yumshoq keratinidan va sochlarning boshqa qatlamlaridan sistein aminokislotasining yuqori miqdori va katta kuchi bilan ajralib turadigan qattiq keratinni o’z ichiga olgan qismga aylanadi. Yadro sochlarning markazini egallaydi [13]. Ushbu xususiyat, boshqa xususiyatlar bilan bir qatorda, inson va hayvonlarning nozik sochlarini farqlash uchun ishlatilishi mumkin [7].

Ingliz olimi E. Begg ham o’zining “Klinik farmokologiya” nomli asarida sohaga oid bir qancha qimmatli fikrlarni bergan. Jumladan uning fikricha hayvonning yung qoplarni tashkil qiluvchi sochlar – bu ikki qismdan iborat terining filamentsimon, shoxsimoni shakllanishi bo’lib ikki qismdan iborat: novda va ildiz. Dermisning biriktiruvchi to’qimasidan paydo bo’lgan tashqi membranalar soch xaltasi, epidermal kelib chiqadigan ichki membranalar esa ildiz qobig’i deb nomlanadi [7].

Aksariyat hollarda, yungning soch tolasi uch qatlamdan iborat: tashqi tomondan joylashgan qobiq qatlam yoki kesikula, kortikal qatlam uning ichki qismiga tutashgan, yadro esa o’rta qismini egallaydi. Har bir qatlam o’ziga xos tuzilishga ega. Soch millari uzunligi, qalinligi, shakli, rangi va mikroskopik tuzilishi jihatidan farqlanadi. Eng nozik sochlarning qalinligi 10-12 mikron, eng qalinlari esa 100 mikrondan ziyod bo’lishi mumkin. Odatda silindrsimon, konusning, fusiform va lansolat shaklidagi novdalar farqlanadi [7].

Shuningdek bir qator soha vakillari, jumladan, M.D. Mashkovskiyning ta’kidlashicha, bosh sochlari mavjud bo’lmagan hollarda toksik moddalarni aniqlash uchun manbalar sifatida yuz sochlari (soqol va mo’ylov), qo’llar va qo’ltiq sochlari ishlatilishi mumkin. Ilgari o’tkazilgan tadqiqotlar, xususan, M.D. Mashkovskiyning ilmiy izlanishlari natijasiga ko’ra tuklar va bosh sochlari o’rtasidagi toksik moddalar konsentratsiyasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi [26]. Metadon, kokain, morfin va fenobarbital konsentratsiyasini o’zaro taqqoslash shuni ko’rsatdiki, toksikantlarning eng yuqori miqdori sochlarda, so’ngra qo’ltiq ostidagi sochlarda aniqlangan. Konsentratsiyadagi farqlar qon aylanishining kuchayishi, apokrin bezlarning ko’pligi, telogen / anagen fazalarining mutlaqo o’zgacha nisbati va soch o’sishining turli

sur'atlari (qo'ltiq ostidagi sochlar kuniga 0,40 mm, sochlar kuniga 0,30 mm) bilan izohlandi. Yuz sochlari (soqol) kuniga taxminan 0,27 mm o'sadi va bosh terisi bo'lmagan taqdirda mos alternativ hisoblanadi, chunki uni har kuni elektr ustara bilan yig'ish va dori-darmonlarni qabul qilish tezligini o'lchash maqsadida foydalanish mumkin [13,25,26].

Shuningdek, Yu.F. Zuyevning sochlarning kimyoviy tuzilishi haqidagi fikrlari ham ahamiyatlidir. Kimyoviy tuzilish nuqtai nazaridan sochlar asosan oqsillar, lipidlar, fermentlar va xolesteroldan tarkib topgan murakkab biologik tuzilishga egadir. Teri epidermisining shoxli hosilasi bo'lgan sochlar asosan keratindan tarkib topgan. Keratin – oltingugurtni o'z ichiga olgan aminokislota sistein ishtirokida hosil bo'lgan ko'p miqdordagi disulfid bog'lanishlari sababli mexanik kuchga ega bo'lgan fibrillar oqsillar oilasi bo'lib, ular molekula ichidagi vodorod aloqalari natijasida keratinga qo'shimcha kuch va elastiklik beradi [13].

Soch tarkibidagi keratin haqida ham bir qancha olimlar yakdil fikr bildirishgan. Xususan, Ya.A. Dubrovskiy, M.V. Krisko, A.V. Lavrentiyeva, I.E. Lyuban va boshqalar fikricha sohdagi keratin oltingugurtni o'z ichiga olgan aminokislotalarga boy, aminokislotalar ham mavjud: sisterin – 14% leytsin – 14%, glutamik kislota – 12%, tirozin – 3%. Sochning asosiy moddasi bo'lgan qattiq keratin yuqori zichlikka ega, suvda kam eriydi, ko'plab kimyoviy moddalarga, shuningdek, kislotalar va ishqorlarga bardoshli [12,17,22,23,25].

So'nggi yillar ichida O'zbekiston Respublikasida psixofaol moddalarni suiiste'mol qilish jiddiy tibbiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy muammoga aylanmoqda. Respublikada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qiluvchilar soni oshib bormoqda. Shuningdek, bugungi kunda psixotrop preparatlarning asosiy iste'molchisi yoshlar ekanligi jiddiy xavfga aylanmoqda.

Yuqoridagi muammoni hal qilishning asosiy bosqichlaridan biri psixofaol moddalardan foydalanish yoki passiv aloqa qilish faktini aniqlash, ulardan foydalanish muddati, chastotasi va saqlanish muddatini aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazishdir. Bunday tekshiruv natijalari ko'p jihatdan tadqiqotlariga bog'liqligi E.A.Simonov tadqiqotlarida o'z aksini topgan [27]. Shu munosabat bilan, juda sezgir va o'ziga xos skrining usullaridan foydalangan holda monitoring tizimini joriy etish, shuningdek, ushbu maqsad uchun o'rganilayotgan biologik ob'ektlar doirasini kengaytirish dolzarb vazifadir.

S.A. Kutsenkoning ilmiy qarashiga ko'ra zaharlanishni tashxislashda eng ko'p axborot beruvchi suyuqlik qondir. Bu ma'lum bir paytda tanadagi toksik moddalarning borligi va dozasi aniqlashga imkon beradi. Hozirgi vaqtda sud-kimyoy va kimyotoksikologik tahlil amaliyotida qon kamdan kam holatlarda qo'llaniladi, chunki u bilan ishlash hajmi cheklangan. Ushbu biofluid tarkibida oqsillar, shakllangan elementlar,

gormonlar, lipidlar, bufer tizimi va elektrolitlar bor bo'lib, ularning mavjudligi zarur matritsa ta'siriga olib keladi va keyingi tahlilga xalaqit beradi. Chunki, Qondagi toksik moddalar oqsil bilan bog'langan, erkin va metabolitlar shaklida bo'ladi [20, 21].

E.V. Suchkova sochning tahlil uchun afzalliklari haqida bir qancha fikrlar bildirgan. Unga ko'ra biologik suyuqliklar (peshob, qon va so'lak)da analitik laboratoriyalarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar mavjudligini tekshirish odatda 1-3 kundan keyin yoki ba'zi hollarda moddani iste'mol qilgandan keyin 12 hafta o'tgach salbiy natijalar beradi. Soch-bu ma'lum bir organizmning o'ziga xos xususiyatlarini (sochlarning oqarishi, inson kasalligi, uning qon guruhi va boshqalar) ko'rsatadigan ekspertizaning alohida moddiy obyekti. Sochni o'rganishning asosiy ustunliklari toksikantlarni uzoq vaqtdan keyin, ularni qabul qilish tugagandan so'ng, keng konsentratsiyalarni o'rganish qobiliyatidir. Biologik to'qimalarning chirigan parchalanishi bo'lsa, sochlar mumkin intoksikatsiya holatida o'lim sabablarini aniqlash uchun yagona ob'ektdir. Qolaversa, soch namunalari tanlash, tashish va saqlash uchun maxsus sharoitlarni talab qilmaydi va takroriy tekshiruvlarda ishlatilishi mumkin [37].

Giyohvand vositalar, psixotrop va kuchli dorivor moddalar mavjudligi uchun sochlarni o'rganishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, ushbu mavzuning dolzarbligi va sochlardagi turli xil moddalarni aniqlash bo'yicha ko'plab ma'lumotlarga qaramay, sochlarni o'rganishda yakdil uslubiy yondashuv, shuningdek natijalarni talqin qilishda tizimli yondashuv mavjud emas.

Sud-kimyo va kimyo-toksikologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan birinchi va eng muhim narsa biologik obyektlardan toksik moddalarni ajratib olishdir. Keyingi aniqlash jarayonlari: toksik moddalarni miqdoriy aniqlash natijalari va olingan natijalarni to'g'ri talqin qilish ushbu bosqichga bevosita bog'liq. Sud-kimyo va kimyo-toksikologiya laboratoriyalari amaliyotida qo'llaniladigan toksikantlarni dorivor moddalar guruhidan ajratish usullari XX asrning so'nggi choragida ishlab chiqilgan. Olingan ekstraksiyaning unumdorligi va sifati (biologik matritsa ta'siri) bo'yicha ular zamonaviy analitik diagnostika uslublariga to'g'ri kelmaydi. Qon va sochni namuna sifatida olish nafaqat infuziya yoki ekstraksiyani, balki ba'zan qattiq gidrolitik usullarni yoki qimmat usullarni (masalan, superkritik ekstraksiya) qo'llashni talab etadi. Bu kabi yondashuvlar yengil gidrolizlanadigan toksik moddalarning yo'qolishiga va oqibatda noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu tufayli, ushbu kamchiliklardan qochadigan fermentativ gidroliz usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda sochni o'rganish va sun'iy bo'yoqning melanina ta'siriga bag'ishlangan xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud: P.Kintz (2007), E.A.Simonov

(2000), S.A.Savchuk (2014), Noriaki Shima (2017, 2019), tabiiy rangdagi sochlardan moddalarni ajratish uchun proteoliz usullarini qo'llash istiqbollari V.Slustovskaya (2018) tomonidan isbotlangan, bo'yash protsedurasi va retrospektiv tadqiqotdan so'ng sochlar uchun tadqiqot usullari M. V. Krysko (2020) tomonidan yaratilgan.

Sochlardan toksik moddalarni ajratib olishning birmuncha rivojlangan usullari rus olimasi O.Strelova tomonidan ishlab chiqildi.

Xususan, ilk marta toksik moddalarni ajratish uchun yuqorida sanalgan obyektlarni namuna tayyorlash uchun qon va sochlarning fermentativ gidrolizidan foydalanish imkoniyati va qonuniyatlari isbotlandi.

Ilk marta proteazlar (pepsin, tripsin, ximopsin, ximotripsin va papain) va gialuronidaza orqali toksik moddalar bilan qonning asosiy transport oqsili (albumin) kompleksining gidroliz natijalari aniqlandi va nisbatan o'ziga xos proteazlar (ximopsin, ximotripsin va papain) ushbu kompleksning peptid bog'larini gidrolizlash orqali maqsadli toksikantni olish darajasini 1,5-2 barobar oshirishga imkon yaratildi. Shuningdek, u birinchi bor fermentativ gidroliz bilan namuna tayyorlash va tadqiqot natijalarini talqin qilish bilan tabiiy va sun'iy bo'yalgan sochlarni o'rganishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirdi. Proteazlar (tripsin, ximopsin, ximotripsin, papain) va soch oqsillarining gialuronidaza tomonidan gidroliz naqshlari aniqladi va substratning o'ziga xosligi sust bo'lgan proteazlar (ximopsin, ximotripsin va papain) biologik jismlardan olingan maqsadli toksikant miqdorini 2,5-3 baravar oshirishga imkonini berishini isbotladi.

Laboratoriya hayvonlarining yunglarida (terisida) toksik moddalarning to'planishi modelida birinchi marta tizimli tadqiqotlar amalga oshirildi va ularning soch to'qimalaridagi tarkibi, birinchi navbatda, lipofillikka, hayot davomiyligiga, metabolizm faolligiga va toksikantdan foydalanish muddatiga bog'liqligi isbotladi.

U laboratoriya hayvonlarining yunglarida dorivor moddalarni to'plash modelini taklif qildi. Bu kislota gidrolizi, ishqoriy gidroliz, metanol va fermentativ gidroliz bilan to'g'ridan-to'g'ri ekstraktsiya qilish orqali namuna tayyorlash usullarining samaradorligini baholashga imkon berdi va shu bilan birgalikda, ushbu obyektida toksikantlarning to'planish qonuniyatlarini aniqladi. Ushbu modeldan o'tkir, shu jumladan o'limga olib keladigan zaharlanishni tashxislashda toksikantlarning keng doirasini yig'ish xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, kuchli va psixotrop moddalarni farmakologik bo'lmagan hollarda qo'llash uchun foydalanish mumkin.

Qolaversa, olimasi tomonidan kislota gidrolizi, ishqoriy gidroliz, metanol bilan to'g'ridan-to'g'ri ekstraktsiya va fermentativ gidroliz usullari yordamida sochlardan namuna tayyorlash usullarining samaradorligini aniqlashga oid tizimli tadqiqotlar o'tkazildi.

Shuningdek olimlar sinov muddatini (8 haftagacha) aniqlash maqsadida retrospektiv va segmentatsiya tahlilini o'tkazish uchun ximotripsin, ximopsin va soch papainini fermentativ gidroliz qilish usulini qo'llash samaradorligi va imkoniyati, shuningdek toksikantlarni terapevtik va toksik dozalarda bir martalik qo'llash mumkunligini isbotladi. Fermentativ gidrolizning ishlab chiqilgan usuli keyinchalik giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli moddalarni tadqiq qilish uchun ishlatilishi mumkinligi tadqiqot natijalarini ahamiyatini yanada oshiradi. Birinchi marta biologik obyektlarda tropikamidni retrospektiv aniqlash bo'yicha ma'lumotlar olinganligi ham izlanish istiqbollaridan biridir (peshobda 10 kungacha va sochlarda 4 haftagacha muddatda) [35].

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki hozirgi kunda noqonuniy psixotrop moddalar savdosiga qarshi kurashishning eng samarali yo'llaridan biri kimyo-toksikologik izlanishlar asosida sud-tibbiy ekspertiza ishlarini olib borishdir. Sud-kimyoviy va kimyoviy toksikologik izlanishlarda psixotrop moddalarni aniqlashning bir necha obyektlari bor. Masalan, biologik suyuqliklar(siydik, qon, so'lak) va ichki organlar(oshqozon, jigar, buyrak, o't pufagi). Ushbu tekshirish obyektlari orqali narkotik modda iste'mol qilinganligi 1-3 kun va ba'zi hollarda bir yoki bir necha manfiy natija ko'rsatishi mumkin. Soch tolasini tekshiruv obyekti sifatida qo'llash boshqa o'byektlarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi va bu bir necha ustunlarni o'z ichiga oladi:

- inson organizmidagi toksik moddalarni ular qabul qilingandan so'ng bir necha hafta, oy va hatto bir yildan so'ng ham aniqlash imkoniyati;
- moddalarning organizmga qabul qilingan "tarixini" aniqlash imkoniyati;
- konsentrasiyaning keng ko'lamlı diapazonda o'rganish imkoniyati;
- o'rganilayotgan soch tolası ortiqcha qiyinchiliklarsiz saqlanadi. Ularnı oddiy qog'ozda ham xona haroratida saqlash mumkin.

Sochda narkotik moddalar va ularning metabolitlari to'planishining o'rganish dinamikasi narkotik va psixotrop moddalarni ikkiga ajratadi: soch tarkibiga yuqori effek bilan singuvchi moddalar(kokain va fensiklidin), o'rta darajada singuvchi moddalar(metilendioksiamfetamin yoki MDMA, metilendioksimetamfetamin yoki MDA), lizegrin kislota hosilalari, 6-monoatsetilmorfin, amfetamin va boshqalar), hamda sust singuvchi moddalar(kokain va amfetamin metabolitlari, kannabiodlar metabolitlari). Melanin-qoramtir rangdagi pigment hisoblanib sochga tabiiy beradi va ko'pchilik fiziologik faol moddalar bilan bog'lanish xususiyatiga ega. Sochning izoelektrik nuqtasi 3,14 ga teng. Qon va sochning ichki qismini ajratib turuvchi membrana pH muhitga ega. Shu sabab kation holatdagi moddalar uning izoelektrik qiymatidan sochning manfiy zaryadi bilan yuqori pH muhitda bog'lanadi. Bunday holda, nuqtaning o'zi, asosan, sochlardagi melanin va kislotali oqsillarning tarkibiga

bog'liq. Bugungi kunda psixotrop moddalarni qabul qilingandan so'ng yuz tuklarida (soqol) 2-3 kun, sochda 5-7 kun, siydik va teri bezlarida 30 daqiqa ichida aniqlash mumkin. Psixotrop moddalarning sochga singishini bosqichma-bosqich sistemalashtirish mumkin. Masalan, kodein sochning birinchi segmentida 12 soat ichida o'zakdan 1 sm uzoqlikda joylashgan bo'ladi. Besh haftadan so'ng esa moddaning konsentratsiyasi ikki barobar ortadi. Ikkinchi segmentda esa bir hafta muddat ichida kodein teridan 3 sm uzoqlikda joylashgan bo'ladi. Uchinchi segment(sochning o'zi)da esa o'n haftadan so'ng moddani aniqlab bo'lmaydi.

Psixotrop moddalar soch tolasi ichida to'planadi va ichkariga kirgandan so'ng, sochlar yo'q bo'lgunga qadar u erda qoladi. Preparat sochni kesib tashlaganidan keyin uzoq vaqt o'tgach saqlanib qoladi. Sinov uchun bemorning boshidan bir tutam soch kesiladi. Soch teriga yaqin joydan olinadi. Boshdagi soch o'sishi tezligi oyiga taxminan 1 smni tashkil qiladi. Shu sabab, soch qancha uzun bo'lsa, o'rganish uchun vaqt shuncha ko'p bo'ladi. Agar boshda soch bo'lmasa, tananing boshqa qismlaridan soch namunalarini olish mumkin, bu sochlardan foydalanib, test yordamida foydalanish faktini aniqlash mumkin. Har bir namuna alohida-alohida qog'ozga o'raladi, sochning ildiz tomondan marker bilan belgilanadi va konvertga solinadi. Sinovdan oldin namunalar raqamlanadi. Sochlarga maxsus erituvchilar bilan ishlov beriladi va namunaladan psixotrop moddalar ajratiladi. Olingan eritma o'rganiladi va maxsus suyuqlikda bo'lgan giyohvand moddalar aniqlanadi. Butun sochni qayta ishlashda giyohvand moddalarning mavjudligi va miqdori aniqlanadi. Foydalanish vaqti va muddatini aniqlash uchun sochlar bo'laklarga bo'linadi va har bir bo'lak alohida tekshiriladi [35].

Psixotrop moddalar tanaga kirgandan so'ng qon aylanish tizimiga so'riladi. Har bir sochning o'ziga xos qon aylanish tizimi mavjud va qonda bo'lgan moddalar, shu jumladan, psixotropolar uning struktura tuzilishiga kirishi mumkin. Moddalar sochga kirgandan so'ng qayta qon tomirlariga o'ta olmaydi va soch tolasida qolib ketadi. Sochlar oyiga o'rtacha 1-1,2 sm tezlikda o'sadi va odam qabul qilgan barcha moddalar yozib olinadigan o'ziga xos "magnitofon lentasi" bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 3 sm uzunlikdagi sochni olsak va uni har biri 1 sm uzunlikdagi 3 qismga bo'lsak, u holda ildizga eng yaqin bo'lgan qism odamning o'tgan oy davomida qabul qilgan barcha giyohvand moddalari haqida ma'lumot beradi. Ikkinchi segmentda esa undan oldingi oy davomida tanaga kirgan moddalar haqida ma'lumot beradi. Uchinchi segmentda esa 3 oy oldin tanaga kirgan moddalar haqida ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Shunday qilib, uzoq vaqt davomida giyohvand moddalarni iste'mol qilish davrini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida barcha uch segmentni tahlil qilish orqali odamning oxirgi 3 oy ichida giyohvand moddalarni iste'mol qilgan yoki qilmaganligini aniqlash mumkin. Psixotrop moddalarni qabul qilish muddatini aniqlash soch

uzunligiga bog'liq - sochlar qanchalik uzun bo'lsa, unda ko'proq ma'lumot mavjud [34].

Sochlarni tozalash jarayoni ma'lum bir faktlarga asoslangan bo'lib, psixotrop moddalar sochning yuzasi tushganda uning ichki qismiga kuchsiz ravishda singib, oqsillar bilan kuchsiz bog'lar hosil qiladi. Sochlar, ko'pchilik kosmetologiya va narkologiya sohasida ishlovchi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, o'tkazuvchanlik darajasiga ko'ra uchta zonalarga bo'linadi. Birinchi zona sochning yuza qismini tashkil qilib, tashqi muhitdan keladigan moddani erkin o'tkazadi. Sochning ushbu qismi suvsiz etanol va izopropil spirit kabi erituvchilari yordamida oson qayta ishlanishi mumkin. Hamda sochning tashqi qismi bilan kuchsiz bog'langan giyohvand moddalarni yuqorida keltirib o'tilgan erituvchilar bilan yuvish mumkin.

Sochning ikkinchi o'tkazuvchi zonasi sochning ichki qismida joylashgan bo'lib, amalda tashqi muhit bilan hech qanday bog'lanish hosil qila olmaydi. Ya'ni tashqaridan kelgan psixotrop moddalar (masalan, bug' holatda) bilan bog' hosil qilmaydi. Biroq suvli eritma holatdagi moddalar ushbu zonaga o'tishi va undan esa qon plazmasiga kirishi mumkin. Ikkinchi zonadan olingan moddalar ko'p martalab suv, metanol, suv va etanol aralashmasi yoki izopropanol kabi erituvchilarda yuviladi. Sochning ushbu zonasi uchun suv eng yaxshi erituvchi sanaladi. Sochning oxirgi zonasi katta bo'lib, unga normal sharoitda narkotik moddalarning suvli eritmalari kira olmaydi. Baquvvat sochlarda bu zona sochning 90%ni egallashi mumkin. Biroq bunga saliy ta'sir qiluvchi sochni bo'yash, shalikini o'zgartirish, kuydirish kabi bir necha omillar bor. Ushbu zonaga tushgan narkotikni suv bilan yuvib bo'lmaydi. Undan preparatni faqat sochlarning tuzilishi buzilganda chiqarish mumkin [36].

Soch namunalariidagi yangi psixotrop moddalar va ularning metabolitlarini tahlil qilish uchun analitik usul ishlab chiqilgan va sinovdan o'tgan. Usul bosim ostida suyuqlik ekstraksiyasiga, so'ngra qattiq fazali ekstraksiya va yuqori samarali suyuqlik xromato-mass-spektrometriya bilan tozalashga asoslangan. Ekstraksiya samaradorligini va usulning qo'llanilishini baholash uchun giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarning sochlari uchun yaxshi surrogat olish uchun soch namunalari namlash orqali kuchaytirildi; kiritilgan dorilar soni ularning lipofilligi bilan bog'liq bo'lib, invivopreparatni qo'llashga o'xshaydi. Ma'lumki, bu bitta ekstraksiya jarayoni va xromatografik yugurish yordamida sochlardagi katinonlarni va sintetik kannabinoidlarni tahlil qilishga imkon beradigan birinchi usul. Dezinfektsiya, inkubatsiya, tozalash va suyuqlik xromatografiya-mass-spektrometriya (LC-MS) taxminan 45 daqiqada amalga oshirildi. Usul sud toksikologiyasi bo'yicha ilmiy ishchi guruh va sochlarni sinash jamiyati tavsiyalariga muvofiq to'liq tasdiqlangan. Miqdoriy aniqlash chegarasi qiymatlari katinonlar, fenetilaminlar va piperazinlar uchun 8 dan 50 pg/mg gacha va sintetik kannabinoidlar uchun 9 dan 40 pg/mg gacha (metoksetamin

uchun 10 pg/mg) ekan. Matritsa effektlari barcha tahlil qilingan moddalar uchun 15% dan past bo'lib, tozalash bosqichining samaradorligini namoyon etdi. Xatolik chegarasi 9% dan past chiqqan.

Turli pigmentga ega 10 ta ko'ngillilar (8 ta ayol va 2 ta erkak) ustida benzodiazepinlarning sochlarda to'planishi yuzasidan izlanish olib borilgan. Izlanishlar natijasida flunitrazepamning bir martalik dozasida sochlarda flunitrazepam va uning metaboliti 7-aminoflunitrazepam aniqlangan. Soch namunalari ko'ngillilar moddalarni qabul qilishmasidan oldin yig'ib olingan. Modda iste'mol qilingangan keyin esa 1,3,5,14,21 va 28 kunlari namunalari olingan. 5 ta ko'ngillida 24 soatdan so'ng flunitrazepam metabolite topilgan. Benzodiazepinga bog'liq boshqa tajribalar, masalan, bromazepam va klonazepam turli natijalar ko'rsatgan. Moddalarning bir martalik qabul qilinishida bir oydan so'ng soch tolasida bromazepam aniqlangan, klonazepam esa yoq.

Galdagi tadqiqot sochlardagi amfetamin preparatlarini aniqlash tartibi natijalari haqida. Jarayon oddiy va nozik. Kichik hajmli ekstraksiyadan foydalangan holda protsedura natijalari derivatizatsiya usulidan foydalanganda yoki ion monitoringi (SIM) yordamida aniqlashda natijalarga to'g'ri keladi. Biz amfetamin, pervitin, metilendioksiamfetamin va metilendioksipervitin, shu jumladan, to'rt xil omin dorilar yordamida bizning usuli sinovdan o'tkaziladi. Ushbu dorilarni aniqlash chegarasi taxminan 50 +/-7.5 kun davomida va kunlar orasida pg/mg sochlar va takrorlanuvchanlik preparatning ko'p konsentratsiyasida 15% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, amfetaminni iste'mol qiluvchilardan olingan haqiqiy soch namunalari tahlil qilishda protseduraning foydaliligini aniqlandi va bu usul sochdagi amfetaminlarning oz miqdorini tahlil qilish talablariga javob berishini ko'rsatdi.

Laboratoriyada qo'llaniladigan tahlil usullari yaxshi laboratoriya amaliyoti qoidalariga muvofiq tasdiqlash tartibidan o'tishi kerak. Shu sababli, giyohvandlik va psixotrop moddalarni tashxislash uchun sochlarni o'rganish usullarini tasdiqlash kimyoviy-toksikologik va sud-kimyolaboratoriyalarini amaliyotga joriy yetish uchun juda muhimdir.

Biologik va biologik bo'lmagan namunalarda yangi psixotrop moddalarni aniqlash sud toksikologlari uchun qiyin vazifadir. Ularning katta kimyoviy xilma-xilligi va yangi psixotrop moddalarni sintezlanishi va tarqalish tezligi ularni ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda aniqlash uchun ilg'or vositalarga shoshilinch ehtiyoj tug'diradi [33].

Aniqlanishicha, sochlarda yangi psixotrop moddalarni topish ularning hozirgi aholi orasida tarqalishi va ushbu sintetik giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarning ijtimoiy xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishni talab etmoqda. Shuning uchun UHPLC-MS / MS usuli soch namunalari 31 ta psixotrop moddalar

o'rnini bosuvchi feniletaminlar va dissotsiatsiya qiluvchi dorilarni aniqlash uchun ishlab chiqilgan. Usul oddiy, tezkor, o'ziga xos va sezgir bo'lib chiqdi. Matritsa interferentlarining yo'qligi, ushlab turish vaqti va diagnostik o'tishlarning nisbiy sonining yuqori takrorlanishi bilan birga, sinovdan o'tgan barcha tahlil qilinadigan moddalarni to'g'ri aniqlashga imkon berdi. Usul 10-1000 pg/mg oralig'ida optimal chiziqlikni ko'rsatdi, korrelyatsiya koeffitsientining qiymatlari 0.9981 va 0.9997 oralig'ida o'zgarib turdi. Miqdoriy chegaralar 4-metoksifensiklidin (4-MeO-PCP) uchun 1,8-6 pg/mg, 2-aminopropil (6-APB) uchun 35 pg/mg gacha bo'lgan. Usul MDMA va ketaminni iste'mol qilganlardan olingan 23 ta haqiqiy namunaga va haydovchilik guvohnomasini tiklashda muntazam dori tekshiruv paytida salbiy sinovdan o'tgan 54 ta haqiqiy soch namunasiga nisbatan qo'llanilgan. Oltita namuna kamida bitta maqsadli analitga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Metoksetamin (MXE) uchta holatda topilgan (konsentratsiya diapazoni 7,7-27 pg/mg); mefedron (4-MMC) topilgan. Ikki holatda (50-59 pg/mg), bitta namunada 28 pg/mg da metilon uchun ijobiy test o'tkazildi. Boshqa ijobiy natijalarga 4-metiletkatinon (4-MEC), alfa-pirrolidinovalerofenon (α -PVP), 4-floramfetamin (4-FA), 3,4-metilen dioksiptirovaleron (MDPV) va difenidin kiradi. Ushbu tadqiqot spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi ishchi guruhi o'rtasida rag'batlantiruvchi faolligi oshgan yangi dori vositalarining tobora ko'payib borayotganini tasdiqlaydi.

LC-MS-MS asosida kokain, amfetaminga o'xshash birikmalar, opiatlar va psixotrop moddalarga mansub dori vositalarini qabul qilgan bemorlar sochlardagi 14 xil giyohvand moddalarni aniqlash tartibi ishlab chiqilgan. Sinovdan o'tgan barcha analitiklarni miqdoriy tahlil qilish uchun foydali bo'lgan bosimli suyuqlik ekstraksiya jarayoni ishlatilgan. Noto'g'ri musbat namunalardan qochish uchun amalga oshirilgan oddiy zararsizlantirish bosqichi bilan birgalikda ushbu jarayon barcha tahlil qilingan moddalarni 1,8 dan 16 pg/mg oralig'ida va 85 dan 111% gacha aniqlikda aniqlash imkonini berdi. Ushbu jarayon SOFT/AAFS ko'rsatmalariga muvofiq tasdiqlangan va sochlardagi sinovdan o'tgan dorilarni muntazam ravishda aniqlash uchun mos keladi.

Psixotrop moddalarni qo'llash o'z joniga qasd qilishning yuqori intensivligi yoki chastotasi uchun xavf omili ekanligini hisobga olib, eng ko'p ishlatiladigan psixotrop moddalarni (opiat, amfetamin stimulyatorlari, mariyuana, kokain va heroin) o'rganish uchun soch tahlili o'tkazildi. O'z joniga qasd qilishga uringan va o'z joniga qasd qilishga shoshilinch yordam olgan bemorlar guruhi tanlab olindi. Soch namunalari metanol yordamida olingan va qizdirilganda ultratovush bilan ishlov berilgan, so'ngra suyuq xromatografiya-mass-spektrometriya tandemi yordamida tahlil qilingan. Tekshirish davomida usul 0.0025 dan 0.05 ng/mg gacha aniqlash chegaralari va 0.1 dan 4 ng/mg gacha pervitin, 3,4-metilenedioksiametamin (MDMA), morfin, amfetamin, 6-atsetilmorfin, 3,4-metilenedioksiamfetamin (MDA), fenproporex,

dietilpropion va kodein uchun xalqaro tavsiya etilgan mezonlarga javob berdi; Tetragidrokannabinol (TGK), benzoilekgonin va kokaetilen uchun 0,025 dan 1 ng/mg gacha hamda kokain va mazindol uchun 0,25 dan 10 ng/mg gacha. Jami 109 ta soch namunasi tahlil qilindi va 404 qismga bo'ldi. Barcha tahlil namunalari orasida 30.3% kamida bir psixotrop uchun ijobiy edi ($n = 33$), bunday narkotik sifatida (90.9%), kodein (12.1%), morfin (3.0%), MDMA (3.0%) va TGK (3.0%). Ijobiy kokain namunalarni segmental tahlil qilishda ($n = 30$), namunalarning 17,7% yaqinda kokain ta'sirini ko'rsatdi (<1 oy). Xuddi shu natijalar kodein ($n = 4$) va morfin ($n = 1$) tahlilida kuzatilgan. TGK bilan ijobiy namunalar 4 oy oldin ta'sir qilish sanasini ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, usul Braziliyada eng ko'p iste'mol qilinadigan 12 ta psixotrop moddalar, shuningdek aniqlangan ikkita eng keng tarqalgan metabolit bo'yicha xalqaro tavsiyalarga muvofiq tasdiqlandi [36].

Yangi psixotrop moddalarning paydo bo'lishi global miqyosda jiddiy muammo hisoblanadi. Shu sababli, laboratoriyalar rivojlanayotgan dori bozoriga qarshi kurashda katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Tadqiqotda soch namunalarida 14 xil psixotrop moddalarni uchun SX-MS/MS analitik usuli aniqlash ishlab chiqilgan. Xromatografik ajratish usuli ishlab chiqildi va har bir tahlil qilingan modda uchun mass-spektrometrning ish parametrlari tanlandi. Usul tasdiqlandi va natijalar quyidagicha edi: ishlab chiqilgan usulni miqdoriy aniqlash chegarasi 0,025 dan 1,25 ng/mg gacha. Sinovdan o'tgan analitiklarning o'rtacha ekstrakti 80 dan 120% gacha. Erishilgan aniqlik o'zgarishining koeffitsienti 1,05 dan 19,99% gacha bo'lgan.

Psixotrop moddalarni mikroto'lqinli ekstraksiya va xromatografiya-mass-spektrometriya yordamida aniqlash ustida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Izlanuvchilar tomonidan taklif qilingan sochlarni tahlil qilishning yuqori samarali usuli namunani tayyorlash va tahlil qilish uchun 50 daqiqa vaqtini talab qiladi. Ushbu usul giyohvand moddalar hamda ularning metabolitlari-metamfetamin (MA), amfetamin (AMP), metilendioksiamfetamin (MDMA), metilendioksimetamfetamin (MDA), ketamin(K), norketamin (NK), 6-asetilmorfin (6-AM), morfin (MOR) va kodein (COD)larning tahlili uchun qo'llaniladi. Bunda daslab soch tolalari namuna sifatida inson tanasidan kesib olinadi. Keyin 700 vatt kuchlanishga ega mikroto'lqinlar yordamida triftorsirka kislota bilan inkubatsiya qilinadi. Gradient parchalanish 1 ml/min oqim tezligida 8 daqiqa davomida amalga oshirildi. Turli manbalardan olingan o'n to'rtta soch namunalarida tahlil qilingan moddalarning hech biriga xalaqit beradigan signal aniqlanmagan. Aniqlash va miqdor chegaralari 0.5 pg/mg va 2.0 pg/mg, o'z navbatida, MA, AMP, MDMA, MDA, K, NK va DHNK uchun 2.0 pg/mg va 6-AM, MOR va COD uchun 5.0 pg/mg tashkil qilgan. Chiziqli diapazon LOQ va 1000 mkg/mg orasida joylashgan hamda korrelyatsiya koeffitsientlari 0,999 dan oshgan. Bu usul yordamida mashhur giyohvand iste'mol qiluvchi insonlarning sakkizta

soch namunalari ustida qilingan analiz muvaffaqiyatli natija ko'rsatdi. MAE usuli yordamida namunalarni tahlil qilish moddalarni sochlardan olishning ishonchli protsedurasi bo'lib chiqdi, hamda boshqa usullarga qaraganda ancha oson va tezroq natija ko'rsatdi [34].

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda psixotrop moddalarni inson organizmida mavjudligini, uning miqdorini, saqlanish davomiyligini aniqlash global masalalardan biridir. Shu bois, yuqorida ko'rib o'tganimizdek bir qancha olimlar tomonidan organizmning turli elementlari: qon, peshob, so'lak va boshqa biologik obyektlar yordamida aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki ushbu moddalar yordamida tajriba o'tkazish birmuncha qiyinchilik hamda cheklovlarni paydo qilgan holda, eng maqbul yechim sochlardan tadqiqot obyekti sifatida foydalanish ekanligini isbotladi. Sochlarda psixotrop moddalarni aniqlashning bugungi kungacha ma'lum bir qancha uslublari mavjud bo'lib, ularni umumlashtirish hamda tizimlashtirish soha vakillari zimmasidagi dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адаскевич, В.П. Кожные и венерические болезни / В.П. Адаскевич, В.М. Козин - М.: Медицинская литература, 2013. - 142 с.
2. Бабаханян, Р.В. Наркотические средства, психотропные и сильнодействующие вещества. / Р.В. Бабаханян, Е.С. Бушуев, Ш.А. Вартамян, В.В. Афанасьев - СПб.: Изд-во Ренеме, 2008. - 217 с.
3. Барсегян, С.С. Методические рекомендации по валидации аналитических методик, используемых в судебно-химическом и химико-токсикологическом анализе биологического материала / С.С. Барсегян, Е.М. Саломатин, Т.В. Плетнева, Т.В. Максимова, А.О. Долинкин - М.: ФГБУ «РЦСМЭ» Минздрава России, 2014. - 74 с.
4. Банникова, Г. А. Определение тропикамида в крови методом газовой хроматографии с масс-селективным детектором / Г. А. Банникова, А. Б. Мелентьев, А. В. Лаврентьева // Проблемы экспертизы в медицине. - 2011. - № 1-2. - С. 16-18.
5. Балан, В. Е. Возможности применения препаратов, содержащих гиалуроновую кислоту/ В.Е. Балан, А.С. Журавель // Эффективная фармакотерапия. Акушерство и гинекология. - 2014. - № 2. - С. 50-54.
6. Балабанова, О.Л. Химико-токсикологическая диагностика отравлений современными синтетическими наркотическими средствами диссертация ...

канд. мед. наук 14.03.04 и 14.03.10 / Балабанова Ольга Леонидовна. - СПб., 2020 - 124 с.

7. Бегг, Э. Клиническая фармакология, пер с англ. Т.П. Молосовой // Э. Бегг. - М.: Из-во Бином, 2004. - 173 с.

8. Белоусов, Ю.Б. Клиническая фармакокинетика / Ю.Б. Белоусов, К.Г. Гуревич. - М.: Из-во Литтерра, 2005. - 288 с.

9. Березов, Т.Т. Биологическая химия / Т.Т. Березов, Б.Ф. Коровкин. - М.: Из-до Медицина, 2008. - 704 с.

10. Бехтерев, В. Н. Использование экстракционного вымораживания для решения фармакологических и биохимических задач / В.Н. Бехтерев, С.Н. Гаврилова, Е.В. Кошкареева // Химико-фармацевтический журнал. - 2008. - № 42(2). - С. 44-46

11. Бехтерев, В.Н. Применение экстракционного вымораживания на этапе предварительной подготовки биопроб в ГХ-МС химико-токсикологическом анализе / В.Н. Бехтерев, С.Н. Гаврилова, И.Н. Шипанов // Судебно-медицинская экспертиза. - 2019. - № 62 (6). - С. 53-57

12. Дубровский, Я.А. Идентификация алкилированных аддуктов глобина крысы методами масс-спектрометрии / Я.А. Дубровский и др. // Научное приборостроение. - 2010. - №4(20). - С. 77-83.

13. Зуев Ю.Ф. Особенности иммобилизации субстрата и каталитическая активность трипсина в обращенной микроэмульсии / Ю.Ф. Зуев // Вестник Московского университета Серия 2. Химия. - 2003. - №1 (44). - С.13-15.

14. Катаев, С.С. Применение твердофазной экстракции в исследовании крови на наркотические и лекарственные вещества / С.С. Катаев, О.Н. Дворская // Судебно-медицинская экспертиза. - 2012. - №4. - С. 38-42.

15. Кислякова, Я. Ю. Разработка методик хроматомасс-спектрометрического определения наркотических средств, психотропных веществ и лекарственных препаратов в биообъектах: дис. .канд. хим. наук: 02.00.02: / Кислякова Яна Юрьевна. - М., - 2017. - 237с

16. Крысько, М.В. Сравнительная характеристика белых и природно окрашенных волос для целей химико-токсикологического анализа / М.В. Крысько, О.Ю. Стрелова // Материалы IV Международной научной конференции молодых ученых и студентов «Перспективы развития биологии, медицины и фармации». г. Шымкент, Республика Казахстан, 2016 г, .Шымкент.; Из-во ЮКГФА, - 2016. - С. 110-112.

17. Крысько, М.В. Обнаружение лекарственных средств в окрашенных волосах для целей химико-токсикологического анализа. / М.В. Крысько, О.Ю. Стрелова, Д.Ю. Родионова // Сборник материалов IV Всероссийской научно-практической

- конференции с международным участием «Инновации в здоровье нации», Санкт-Петербург, 2016 г. - СПб.: Изд-во СПХФА, 2016. - С. 383-386
18. Крысько, М. В. Апробация методики ферментативного гидролиза на природно и искусственно окрашенных волосах для изолирования лекарственных веществ / М.В. Крысько, В.Ю. Слустовская, О.Ю. Стрелова, В.Н. Куклин // Научные Ведомости. Серия Медицина. Фармация. - 2018. - № 4(41). - С. 659-141
19. Крысько, М.В. Возможности определения токсических веществ в волосах при проведении химико-токсикологического анализа / М.В. Крысько., А.М. Орава, О.Ю. Стрелова // Сборник материалов VII Всероссийской научно-практической конференции с международным участием «Инновации в здоровье нации», Санкт-Петербург, 2019 г. - СПб.: Изд-во СПХФУ, 2019 - С. 589
20. Куценко, С.А. Основы токсикологии / С.А.Куценко - СПб: Из-во Фолиант, 2004. - 720 с.
21. Куценко, С.А. Белки плазмы крови/ С.А. Куценко // Российский биомедицинский журнал. - 2003. - Т. 4. - 119 с.
22. Лаврентьева, А. В. Определение тропикамида в крови методом газовой хроматографии с масс-селективным детектором / А. В. Лаврентьева, Г. А. Банникова, А. Б. Мелентьев // Проблемы экспертизы в медицине. - 2011. - №2 12. - С. 16-18.
23. Лобан, И. Е. Судебно-медицинское выявление фенобарбитала в моче / И.Е. Лобан [и др.] // Вестник судебной медицины. — 2016. — № 2 (5). — С. 45-48
24. Лужников, Е.А. Медицинская токсикология. Национальное руководство / Е.А. Лужников — М.: Из-во ГЭОТАР-Медиа, 2012. — 928 с.
25. Малкова, Т. Л. Основные направления повышения качества судебно-химических исследований / Т.Л. Малкова, В.А. Клевко // Судебно-медицинская экспертиза. - 2009. - № 6. - С. 28-32.
26. Машковский, М. Д. Лекарственные средства / М. Д. Машковский. — 16-е изд. — М.: Изд-во Новая волна, 2010. — 1216 с
27. Симонов, Е.А. Наркотики: методы анализа на коже, в её придатках и выделениях / Е. А.Симонов, Б. Н. Изотов, А. В. Фесенко. - М.: Из-во Анахарсис, 2000. — 130 с.
28. Стрелова, О.Ю. Изолирование кофеина из крови с применением ферментативного гидролиза на примере модельного вещества / О.Ю. Стрелова, Н.А. Чувина // Судебно-медицинская экспертиза. - 2008. - №4 (51) (51). - С.28-30.
29. Стрелова, О.Ю. Методологический подход к исследованию волос как объекта химико-токсикологического анализа/ О.Ю. Стрелова, Ю.В. Слустовская, М.В. Крысько, В.Н. Куклин - М.: Из-во Кнорус, 2019.- 168 с.

30. Стрелова, О.Ю. Результаты апробации методики ферментативного гидролиза крови на экспертном материале Стрелова О.Ю., Чувина Н.А., Слустовская Ю.В. Сборник научных трудов, материалы научно-практической конференции «Джанелидзе-ские чтения - 2021», Санкт-Петербург) 2021 г. ГБУ Санкт-Петербургский НИИ скорой помощи им. И.И.Джанелидзе. - СПб.: СПб НИИ скорой помощи им. И.И.Джанелидзе, 2021. - с. 159-163.
31. Стрелова, О. Ю., Лабораторная диагностика немедикаментозного применения тропикамида / О. Ю.Стрелова, Ю. В. Слустовская, А. Н. Гребенюк // Разработка и регистрация лекарственных средств 2021 - № 10(4-1). - С. 188-196.
32. Стрелова, О. Ю. Применение методики ферментативного гидролиза для пробоподготовки крови с целью лабораторной диагностики отравлений производными гамма-аминомасляной кислоты/ О. Ю. Стрелова, М. В. Крысько, А. Н. Гребенюк// Вестник ВГУ, Серия: Химия. Биология. Фармация, 2021, № 4 - С.68-74.
33. Стрелова, О.Ю. Исследование волос с применением методики ферментативного гидролиза и интерпретации результатов анализа/ методические рекомендации/ Стрелова О.Ю., Крысько М.В., Слустовская Ю.В. // ФГБУ РЦСМЭМ. - 2021. - 39 с.
34. Стрелова, О.Ю. Исследование крови с применением методики ферментативного гидролиза / методические рекомендации// Стрелова О.Ю., Крысько М.В., Слустовская Ю.В. // ФГБУ РЦСМЭМ. - 2021. - 31 с.
35. Сулейменова, Г. М. Идентификация волос: варианты тактики и составление выводов при судебно-медицинской биологической экспертизе сходства-различия волос: учебное пособие для врачей / Г. М. Сулейменова. - СПб:Из-во Фолиант, 2015. - 131 с.
36. Сучкова, Е. В. Судебно-экспертное исследование волос человека и животных. М.:Из-во Юрлитинформ. - 2015 - 228 с.
37. Чувина, Н.А. Оценка эффективности методов изолирования токсических веществ из крови / Н.А. Чувина, О.Ю. Стрелова // Судебно-медицинская экспертиза. - 2008 . - №3 (51). - С.22-24.
38. Kintz, P Hair analysis to demonstrate administration of sildenafil to a woman in a case of drug-facilitated sexual assault / P. Kintz, J. Evans, M. Villain, C. Chatterton, V. Cirimele // Journal of Analytical Toxicology. - 2009. - №33. - P. 553-556.
39. Kintz, P. Analytical and practical aspects of drug testing in hair / ed. by P. Kintz. - New York: Taylor & Francis Group, - 2007. - 382 p.

MAY MARVARIDGULI (CONVALLARIA MAJALIS) DORIVOR O‘SIMLIGINING KO‘CHATINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Mamatova Sh.A., Nizomova M.U
Toshkent Davlat Agrar universiteti

Annotatsiya.

Convallaria majalis L. o‘simligining yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish mavzusidagi ilmiy amaliy ishlar.

Kalit so‘zlar:

Dorivor o‘simliklar, Convallaria majalis, agrotexnika, vegetativ ko‘paytirish, plantatsiya.

TECHNOLOGY OF GROWING SEEDLINGS OF THE MEDICINAL PLANT CONVALLARIA MAJALIS

Mamatova Sh.A Nizomova M.U
Tashkent State Agrarian University

Abstract.

Preliminary results and significance of scientific and practical work on the development of agro- techniques for growing Convallaria majalis L.

Key words:

Medicinal plants, Convallaria majalis L., agrotechnical practices, vegetative reproduction, plantation.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2007-yil 19-noyabrda “2011- yilgacha bo‘lgan davrda farmatsevtika tarmog‘i jihozlash dasturi” to‘g‘risidagi Farmoni farmatsevtika korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirishga, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga, shuningdek aholini mahalliy dori-darmon mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Shu bois o‘zga o‘lkalardan keltirilgan va mahalliy sharoitda o‘sadigan dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish, yetishtirish hamda ularning sifatli xom-ashyosini farmatsevtika sanoatiga yetkazib berish hozirgi kunning dolzarb muommolaridan.

Respublikada so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklarni yetishtiriladigan plantatsiyalar

tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanilib kelinmoqda.

Ana shunday istiqbolli va doimiy ravishda farmatsevtika sanoatida xom – ashyo sifatida ishlatiladigan o‘simliklardan biri May marvaridguli (*Convallaria majalis* L.) bo‘lib, biz ushbu o‘simlikni bioekologik xususiyati va yetishtirish texnologiyasi mavzusini tanlab olib, may marvaridguli o‘simligini yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish va ilmiy asoslash shu bilan bir qatorda farmatsevtika sanoatini xom – ashyoga bo‘lgan talabini qondirishni maqsad qildik.

Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) ko‘chatini yetishtirish.

Dorivor o‘simliklar urug‘chiligida urug‘larning sifat ko‘rsatgichlarini aniqlash muhim masala hisoblanadi. Urug‘larni sifat ko‘rsatgichlariga 1000 ta dona urug‘ og‘irligi, urug‘ning tozaligi, unish energiyasi va unib chiqish tezligi kiradi.

Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) Mevasi to‘q sariq-qizil rangli sharsimon sersuv va ko‘p urug‘li xo‘l meva.



1-Rasm. Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) urug‘ ko‘rinishi.

Urug‘ning tozaligini aniqlashda uning to‘liq pishib yetilganligi, butunligi, urug‘ni gul oldi qismining zararlanganligi, brushgan yoki bir tomonga egilgan urug‘lar, urug‘ga aralashgan poxollar o‘rganildi.

Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) o‘simligi urug‘ining tozaligini aniqlash uchun har bir variantdan 4,0 g. 3 ta namuna olindi va har bir urug‘ namunalari alohida lupa yordamida ko‘zdan kechirilib, to‘liq pishib yetilgan, butun urug‘lar bir bo‘lakga, zararlangan, burushgan, qiyshiq, ikkinchi bo‘lakga, urug‘lar orasidagi poxollar, singan urug‘ bo‘lakchalarini uchinchi bo‘lakga ajratildi. Ajratilgan har bir urug‘ bo‘laklari alohida torazida tortilib ularning og‘irligi aniqlandi va olingan umumiy namuna (4,0 g) og‘irligiga nisbatan foiz miqdorlari aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Tajribaning 1 variantida urug‘lar kam bo‘lganligi uchun ular inobatga olinmadi, tajribaning qolgan variantlarida (2,3,4-variantlar) eng saralangan yaxshi urug‘lar umumiy og‘irlikga nisbatan.

1-jadval

Urug‘ sifat ko‘rsatkichlari

Variant №	Olingan urug‘ namunasi og‘irliqi, g	To‘liq yetilgan va butun urug‘lar		Zararlangan urug‘lar (brushgan, egri, singan)		Aralashmalar (poxol, singan urug‘ parchalari)	
		g	%	g	%	g	%
1	-	-	-	-	-	-	-
2	4,0	2,8	70	0,6	15	0,6	15
3	4,0	3,0	75	0,6	15	0,4	10
4	4,0	3,5	87,5	0,3	7,5	0,2	5

70-87,5 % ni tashkil qildi. Shu variantlar ichida eng yuqorgi ko‘rsatkich tajribaning 4 variantida 87,5 % qayd qilindi, bu ko‘rsatkich 2 variantga nisbatan 17,5 % 3 variantga nisbatan esa 12,5 % yuqori bo‘ldi.

Urug‘larning boshqa ko‘rsatkichlari ya’ni zararlangan urug‘lar va aralashmalar miqdorlari yuqorida qayd qilingan 4 variantda bir muncha (7,5 %, 5 %) kam bo‘lganligi aniqlandi.

Urug‘larni unish energiyasi va unib chiqishi.

Urug‘larni unish energiyasi eng muhim sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, to‘liq pishib yetilgan, yaxshi saflangan, tinchlik davrini o‘tab bo‘lgan urug‘larning unish energiyasi yuqori darajada bo‘ladi va ulardan hosildor, boquvvat tashqiy muhitga tez moslashuvchan, kasallik va zararkunandalarga chidamli o‘simliklar vujudga keladi.

Urug‘larni unish energiyasi va unib chiqishi davomida murakkab biokimyoviy jarayonlar sodir bo‘ladi. Urug‘larda kechadigan biokimyoviy jarayonlarga muhitning harorati, namligi va havo rejimi katta ta’sir ko‘rsatadi. Juda ko‘p o‘simliklarning urug‘ini unib chiqishi uchun havo va muhit harorati 25-27 °S dan past bo‘lmasligi kerak, urug‘larni unib chiqishi uchun urug‘ vazniga nisbatan 50-80 % gacha suv talab qilinadi. Harorat va suv yetarli bo‘lgan sharoitda urug‘lar kislorodni jadal o‘zlashtira boshlaydi, natijada urug‘ tarkibida biokimyoviy almashinish jarayoni faollashadi ya’ni turli fermerlar ta’sirida polifenollar va aminlarni oksidlanishi reaksiyasi ketib, lipaza fermenti yog‘larni glitseringa va moy kislotalariga aylantiradi.

Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) urug‘lari avgust-sentabr oylarida yig‘ib olinadi. Tajriba maydonida variantlar bo‘yicha urug‘lar 27-avgust, 5, 10-sentabr kunlari terildi (sentabr oyida olingan urug‘larni, fevral oyida unuvchanligi aniqlanadi).

Tajriba maydonida Marvaridgul o‘simligi urug‘ini unish energiyasi va unib chiqishini aniqlash uchun har bir variantda yetishtirilgan o‘simliklar urug‘larini 100 ta donadan sanab olindi. Urug‘larni tubiga filtr qog‘oz qo‘yilgan “Petri likopcha”lariga joylashtirilib, pepetka yordamida suv berib turildi, “petri likopcha”lari xona haroratida o‘rtacha 25 °S da saqlandi urug‘lar namiqtirilgandan keyin 8, 10 va 12 kunlari unish energiyasi va unib chiqishi aniqlandi.

Unish energiyasini aniqlashda urug‘lardan maysani bo‘rtib chiqishi, unib chiqishda esa maysalar va ildizlarni vujudga kelishi hisobga olindi. Olingan ilmiy tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Jadval ma‘lumotlarini ko‘rsatishicha 27-iyulda terilgan urug‘lar to‘liq pishib yetilgan bo‘lib, ammo ushbu terilgan urug‘lar deyarli puch bo‘lganligi uchun unib chiqish energiyasi 2,5 %, unib chiqishi 3,0 % ni tashkil etgan. 5-10 avgust oylarida terib olingan urug‘larda unib chiqish energiyasi xamda unib chiqishi mutlaqo kuzatilmagan.

Olingan ma‘lumotlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, marvaridgul o‘simligi urug‘larini unish energiyasi va unib chiqishi o‘simlik urug‘larini to‘liq pishib yetilish muddatida terilgan bo‘lsada, barcha terilgan urug‘lar puchligi yani unib chiqish energiyasi, unib chiqish qobiliyati 0 % ga teng bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi.

Marvaridgul (Convallaria majalis L.) o‘simligini yetishtirish agrotexnikasi.

Marvaridgul (Convallaria majalis L.) ajratilgan dalalar erta kuzda shudgordan oldin har gektar yerga 15—20 tonna organik o‘g‘itlar, superfosfat berib 27—30 sm chuqurlikda haydaladi. Agar o‘simlik yog‘ingarchilik kam bo‘lgan avtomorf tuproqlarda ekilsa yer haydash bilan birga gektariga 20 kg azot va kaliy o‘g‘itini berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tajriba maydonida erta kuzda shudgordan oldin maxalliy o‘g‘itlar berib 27-30 sm chuqurlikda haydaladi.

Tajriba maydonida ildizpoya qalamchalardan ekilgan va uning unuvchanlik darajasi 80—90 % dan kam bo‘lmagan. Ildizpoyalar erta bahorda yani 15-mart sanasida ildizpoya qalamchalari zichligi 1 metrda 10—15 donadan 10-15 sm uzunlikda qirqilib turli substratlarda 8—10 sm chuqurlikda ekildi.

Gektar xisobiga o‘rtacha 10—12 sentner ildizpoya sarflanadi. Ildizpoya qalamcha qator oralari 60 sm dan qilib ekilsa, o‘simlik ikkinchi va keyingi yillarda ildizlari yaxshi rivojlanib tuproq yuzasini butunlay qoplanishga sharoit yaratiladi.

Tajriba maydonida Marvaridgul o‘simligi birinchi yili 8—9-marta sug‘oriladi. Birinchi yili o‘simlik oralari yumshatiladi, begona o‘tlardan tozalandi.

Marvaridgul dastlabki mevalari to‘q sariq-qizil rangli, sharsimon sersuv va ko‘p urug‘li bo‘lganda yig‘ib olindi.

Tajriba variantlari bo‘yicha olib borilgan agrotadbirlar va ularning bajarilish muddatlari qo‘yidagilar 2-jadvalda berilgan

2.jadval

Tajriba maydonining birinchi yili baxorda ekilgan variantlarida olib borilgan agrotadbirlar (2022-2023 y)

T/r	Tadbirlar	Bajarilish muddatlari
1	Yerga go'ng fosforli kaliyli o'g'itlar solish	01.10.2022
2	Shudgorlash	03.10.2022
3	Tekislash	03.10.2022
4	Baronalash	03.10.2022
5	Erta baxorgi baronalash	08.03.2023
6	Egat olish urug'ni ekish	10.03.2023
7	Sug'orish	10.03.2023
9	Ildizpoya qalamchalarini ekish	15.03.2023
10	Qalamchalarni mustaxkamlash uchun sug'orish	16.03.2023
11	Qator oralarini yumshatish va begona o'tlarni tozalash	01.04.2023
12	Birinchi sug'orish	03.04.2023
13	Qator oralarini yumshatish	07.05.2023
14	Azotli o'g'itlar berish (karbomid 15 kg/g xisobida sof xolda)	09.05.2023
15	Ikkinchi sug'orish	18.04.2023
16	Uchinchi sug'orish	02.05.2023
17	Qator oralarini yumshatish va begona o'tlardan tozalash	25.05.2023
18	To'rtinchi sug'orish	15.05.2023
19	Qator oralarini yumshatish va begona o'tlardan tozalash	10.06.2023
20	Beshinchi sug'orish	29.05.2023
21	Oltinchi sug'orish	13.06.2023
22	Yettinchi sug'orish	28.06.2023
23	Sakkizinchi sug'orish	10.07.2023
24	To'qqizinchi sug'orish	24.07.2023
25	Ildiz xosilni yig'ib olish	25.08.2023

Dorivor Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) o'simligini o'sishi va rivojlanishi.

Tajriba maydonida dorivor Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) o'simligini ildizpoya qalamchalaridan ekish o'simliklarni o'sish va rivojlanishini kuzatish ishlari har oyning 1 kuni (aprel, may, iyun, iyul, avgust oyilarida) amalga oshirildi.

Olingan ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan. Ushbu jadval ma'lumotlarini ko'rsatishicha dorivor Marvaridgul o'simligining o'sishi va rivojlanishi variantlar bo'yicha turli substratlarga bog'liq holda har xil bo'lishligi aniqlandi.

Tajribaning 1,2,3-variantlarda butun o'suv davri davomida barcha ko'rsatgichlar bo'yicha 3,4-variantlarga (tuproq 20%, qum 30%, go'ng 50%) nisbatan kam bo'lganligi kuzatildi.

Masalan, barcha variantlar 15-mart sanasida ekilgan bo'lsa, butun vegetatsiya davomida 1,2,3-variantlarda o'simliklarning bo'yi o'rtacha 15 sm bo'lgan, barglar soni 3 ta barg kengligi 7-8 sm, barg uzunligi 17-20 smni, 3,4-variantlarga (tuproq 20%, qum 30%, go'ng 50%) 21 sm bo'lganligi, barglar soni 4 ta, barg kengligi 9-10 sm, barglar uzunligi 18-22 sm bo'lganligi qayd qilindi.

Tajriba variantlari bo'yicha shu qonuniyat 1-apreldagi va 1-avgustdagi kuzatishlarda ham saqlanganligi kuzatildi. Masalan, 15-aprelda 1,2,3-variantlarda o'simlikning bo'yi 5 sm to'p barglar soni 1 ta bo'lgan bo'lsa, tajribaning 4,5-variantida esa poya uzunligi 7 sm, barglar soni 2 tani tashkil qildi, ya'ni bu variantda poyaning balandligi 2 sm, barglar soni 1 taga ko'p bo'lgan.

Tajriba maydonida dorivor Marvaridgul o'simligini hosil shoxlarini o'rganish 1-avgustda amalga oshirildi. Bu davrda tajribaning 1,2,3-variantidagi o'simliklarda 1-2 tagacha hosil shoxlari vujudga keldi, lekin dastlabki paydo bo'lgan birinchi shoxlar to'liq yetilganligi, keyingi shoxlar esa to'liq yetilmaganligi kuzatildi.

Tajribaning boshqa 4,5-variantlaridagi o'simliklarda 2-3 gacha to'liq hosil shoxlari vujudga kelib, gul savatchalarini hosil qildi va gullash fazasini to'liq o'taganligi qayt qilindi.

Umuman, dorivor Marvaridgul o'simligini o'sish va rivojlanishi bo'yicha olingan ma'lumotlarni tahlil qilib xulosa qilish mumkinki, 1,2,3-variantlarda o'simliklarning bo'yi o'rtacha 15 sm bo'lgan, barglar soni 3 ta barg kengligi 7-8 sm, barg uzunligi 17-20 smni, 1-2 tagacha hosil shoxlari 3,4-variantlarga (tuproq 20%, qum 30%, go'ng 50%) 21 sm bo'lganligi, barglar soni 4 ta, barg kengligi 9-10 sm, barglar uzunligi 18-22 sm, 2-3 gacha to'liq hosil shoxlari bo'lganligi qayd qilindi.

3-jadval**Dorivor Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) o'simligini o'sish va rivojlanishi (2022-2023 y).**

Variant №	Poyaning uzunligi, sm					To'p barglar soni, doni					To'p hosil shoxlari, dona
	1.04	1.05	1.06	1.07	1.08	1.04	1.05	1.06	1.07	1.08	
1	2,5	5,1	8,3	11,5	14	-	1	1	-	-	1
2	2,7	5,3	8,7	12,8	15	-	1	1	-	-	2
3	2,7	5,6	8,8	13,1	15	-	1	1	1	-	2
4	6,2	10,1	14,1	18,7	21	1	1	1	1	-	3
5	5,8	9,9	13,9	18,0	20	1	1	1	1	-	2



2.3-Rasmlar. Dorivor Marvaridgul (*Convallaria majalis* L.) o'simligini o'sishi va rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2007-yil 19-noyabrdagi “2011- yilgacha bo‘lgan davrda farmatsevtika tarmog‘i jihozlash dasturi ”to‘g‘risidagi farmoni.
2. H.X. Xolmatov, O‘. A. Axmedov “Farmakognoziya”, Toshkent “Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti – 1997.
3. H.X. Xolmatov, O‘. A. Axmedov “Farmakognoziya”, II qism qayta ishlangan to‘ldirilgan 4 – nashri. Toshkent – 2007.
4. Jo‘rayeva M.A. Dorivor o‘simliklar atlas: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent, “Noshir” nashriyoti, 2019-y.
5. <http://www.Ziyo-net.uz>

SAMARQAND SHAHRINING TOPONIMIKASI VA AHOLISINING IJTIMOY HAYOTI

Mamanov Mehridin

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti

“Samarqand tamadduni” kafedrası magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Samarqand shahrining toponimikasi va aholisining ijtimoiy hayotidagi o‘rni haqida ba’ tafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Zarafshon vohasi, Buxoro amirligi, Eron shoxi Nodirshox, Abu Takhirxoja “Samariya” asari, Xitoy va SHarqiy Turkiston, Hindiston, Xorazm va Buxoro, Eron, Kaspiybo‘yi yerlari, Rossiya, T.Saidqulov.*

ANNOTATION

This article provides detailed information about the toponymy of the city of Samarkand and its role in the social life of its inhabitants.

Key words: *Zarafshan Oasis, Bukhara Emirate, Iran’s Horn of Nadirshakh, Abu Takhirkhoja’s work "Samaria", China and Eastern Turkestan, India, Khorezm and Bukhara, Iran, Caspian lands, Russia, T. Saidkulov.*

Zarafshon vohasida joylashgan Samarqand viloyati Buxoro amirligining asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Bu viloyat o‘zining ajoyib tabiati, xosildor erlari va go‘zal bog‘lari bilan amirlikning boshqa hududlariga nisbatan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Samarqandning o‘ziga xos siyosiy mavqei, boy iqtisodiy markaz sifatida ko‘zga tashlanib turishi, turli davrlarda taxt tepasiga kelgan sulola vaqillarining nazaridan chetda qolmagan. Jumladan, XVIII asr o‘rtalariga kelib, Buxoro xonligi mang‘it urug‘idan bo‘lgan sulola vakillarining qo‘liga o‘tgach, Samarqand viloyati ham amirlik tarkibiga kiritilgan. Buning uchun, sulola vakillari tomonidan harbiy yurishlar amalga oshirilib turilgan. SHuning uchun ham viloyat va ayniqsa Samarqand shahri turli davrlarda harbiy istilolar va yurishlarning ob‘ekti bo‘lib kelgan. Bu esa o‘z o‘rnida strategik va geografik nuqtai-nazardan qulay va tabiiy boy bo‘lgan hududda doimo iqtisodiy va madaniy yuksalish jarayonlari davom etib kelsada, mazkur harbiy yurishlar natijasida xalq mehnati natijasida erishilgan madaniy va iqtisodiy yutuqlar vayronagarchiliklar natijasida barbod qilingan. Biroq, yana barqarorlik davrlarida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot o‘z yo‘lida rivojlanishda davom

etgan. Xususan, XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmi O‘rta Osiyo xalqlarining hayotida yangi davr bo‘lgan. Bu davrda O‘rta Osiyo xonliklari Eron shoxi Nodirshoxning vafotidan so‘ng (1747) o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritib, uzoq vaqt davom etgan inqiroz davridan keyin iqtisodiyot va madaniyatni tiklay boshlaganlar. Uch xonlikda siyosiy jipslik va markaziy xokimiyatning nisbatan mustahkamlanishi natijasida o‘zaro urushlarga barxam berildi. Bu davrdagi Buxoro amirligi hayotida Samarqand shahrining ahamiyati katta edi. XIX asr boshiga kelib esa Samarqand yirik shahar qiyofasiga ega bo‘lgan. Ingliz ayg‘oqchisi Mir Izzatullaning guvohlik berishicha Samarqand kundan-kun rivojlanib borayotgan edi. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga uning qulay geografik joylashuvi sabab bo‘lgan. Shahar Zarafshon daryosining janubida joylashgan bo‘lib, shimol, sharq va janubdan baland tog‘lar bilan o‘ralgan hamda g‘arbdan unga keng ekin maydonlari tutashgan edi. Undan tashqari, shaharning joylashuvi shimoli-sharqdan Xitoy va Sharqiy Turkistondan, janubi-sharqdan Hindistondan, g‘arb tomondan Xorazm va Buxoro orqali keluvchi Eron, Kaspiybo‘yi erlaridan, shimoldan esa Rossiya erlaridan keluvchi savdo karvonlari uchun qulay tutashish joyi bo‘lgan. Mana shu jihatlar shahardagi savdo ishlarini rivojiga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan.

Manbalarda shahar ta‘rifiga ko‘p ma‘lumotlar keltirilgan. Misol uchun, Bobur o‘z asarida Samarqand va uning atrofidagi tabiatga ta‘rif berar ekan “Misr va Suriyani ko‘rgan sayyohlar bundan boshqa sog‘lom joyni ko‘rsata olmaydilar”, degan. N.V.Ханыков esa Samarqand va uning atroflari “uch ariq suvi bilan sug‘orilganligini”, ta‘kidlaydi. SHahardan atrofiga daraxtlar ekilgan asosiy ariq o‘tgan. Bu ariq kichik ariqlarga ajralib xonadonlarga suv etkazib berib, bog‘ va tomorqalarni sug‘organ. Namlikning ko‘pligi Samarqand havosini toza va bahavo qilgan. SHuning uchun samarqandliklar ancha sog‘lom bo‘lganlar. Ularning yuzlari toza va buylari uzun bo‘lgan[1].

Abu Toxirxoja “Samariya” asarida shahar iqlimining ajoyib va mu‘tadil ekani, shuning uchun uni “firdavsi monand” – jannat misoli deb atashini yozgan. YOzda Samarqand nisbatan issiq va sovuqlari mu‘tadil ekani, har tomondan esuvchi mayin shamollar va havo, kayfiyatni ko‘tarishi, ruxiy sokinlikni ta‘minlashi haqida yozadi [2].

XIX asr boshida Samarqand tomonidan egallagan hudud kengayib borgan. N.V.Ханыковning ma‘lumot berishicha “shahar aylanasi 13 vyorstga[3], uning kvadrat yuzasi 2280000 sajenga[4] yoki 2533,31 tanobga teng bo‘lib, Buxoro tomonidan egallangan hududdan 500 tanobga katta” [5], deb ma‘lumot beradi. YA‘ni, mazkur davr shaharning kengayishi va urbanizatsiya jarayonini jadallashib borayotgan edi.

O‘rta asrlar shaharlari kabi Samarqand ham mudofaa devorlari bilan o‘ralgan

bo'lib, shinaklari, minoralari bo'lgan. SHahar devorlari ruslar bosqini davrida buzib tashlanib, Suzangaron mahallasi qismida uning ayrim qoldiqlari ko'zatiladi [6].

Bir so'z bilan aytganda, qadimdan O'rta Osiyoning yirik shaharlardan biri bo'lgan Samarqand XIX asr birinchi yarmida nafaqat Buxoro amirligi, balki O'rta Osiyoning yirik savdo va madaniy markazi sifatidagi mavqega ega bo'lgan shahar edi.

Bu shaharda kechgan qizg'in iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o'z o'rnida ijtimoiy jarayonlarni murakkabligiga sabab bo'lish bilan birgalikda madaniy jarayonlarni xilma-xilligi va rang-barang bo'lishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Samarqand shahrining XIX asrdagi mavqeiga ta'rif berar ekanmiz T.S.Saidqulovning "shahar xonlik (amirlik) ning bosh shahri hisoblangan" [7] degan ta'kidini va rus muallifi F.Nazarovning "birinchidan, tarixiy va diniy sabablar oqibatida, ikkinchidan, mamlakatdagi aholisi eng zich, boy viloyat markaziy shahri sifatida" degan fikrini keltirib o'tishimiz o'rinlidir.

Rossiya imperiyasi istilosiga qadar shaharda butun amirlikdagi kabi islom dini tushunchalari va an'anaviy turmush-tarzga asoslangan holda aholining ijtimoiy munosabatlar tizimi hukm surgan. YA'ni, islom tushunchalari, aholining turmushida, ijtimoiy munosabatlari va hattoki siyosiy boshqaruv tizimida o'z aksini topgan.

XIX asr birinchi yarmida savdo rivojlanishi natijasida Buxoro amirligida shaharlar aholisining soni o'sib borishi ko'zatiladi. Bu davrda, ayniqsa, Rossiya bilan savdo munosabatlari keng rivojlangan. Urbanizatsiya jarayonlarining o'sib borishi ko'zatilganda, shaharlar aholisining turmush tarzi va xo'jaligi qishloq bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo shaharlarida yirik ishlab chiqaruvchi xujalik: fabrika va zavodlar yoki yirik manufakturalar shakllanmagan. Bunga bir tomondan, XVI asrdan boshlab buyuk ipak yo'lini o'z ahamiyatini yo'qotishi natijasida hududni jaxon savdo yo'llaridan chetda qolishi va bu erda ishlab chiqariluvchi mahsulotlarni katta xajmda jaxon bozoriga olib chiqish imkoniyatini qiyinligi sabab bo'lgan. Ikkinchi tomondan, yirik ishlab chiqaruvchi xujaliklarni taraqqiy etmaganligi shaharlardagi urbanizatsiya jarayonlarini jadallashmaganligiga sabab bo'lgan.

Samarqand shahrida ham shu kabi holat hukm surgan. XIX asr birinchi yarmidagi shahar aholisining soni, uning usishi dinamikasi haqida batafsil ma'lumotlar manbalarda uchramaydi. SHaharlardagi aholi soni, shu jumladan, Samarqand aholisi haqidagi ma'lumotlar xilma-xil va turlichadir. Masalan, Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra 1820 yilda Samarqandda 50 ming aholi istiqomat qilgan bo'lsa [8], N.Xanikov 1841 yilda 25 ming, 1863 yilda A.Vamberi 20 minggacha, 1868 yilda V.V.Radlov 10 mingdan oshiq kishini keltirib o'tishgan [9]. Prof. P.P.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida esa 30 mingga yaqin istiqomat qilgan, deb aytiladi [10]. Boshqa manbalarda esa, Samarqand atroflarida 80000 o'zbek oilalari istiqomat qilgan deb ko'rsatiladi. Mazkur holatda shahar aholisi soni haqida yagona fikrning mavjud

emasligi aholining milliy – etnik tarkibi, ijtimoiy guruhlar va umuman xalq turmushining ko‘pgina sohalari bo‘yicha xulosalar chiqarish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Biroq, ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, Samarqand shahri va uning atroflari vohadagi eng aholi zich istiqomat qilgan hudud bo‘lgan.

E’tiborli jihati shundaki, Zarafshon vohasi va umuman Samarqand shahri yirik markaz hisoblansa-da shahar aholisining katta qismini turmush-tarzi qishloq xo‘jaligi, ya’ni shahar atrofidagi aholi bilan bog‘liq bo‘lgan. SHahar aholisining soni xajmli bo‘lmasa-da shahar atrofida yashovchi aholining soni ko‘pligi hamda ularning Samarqand iqtisodiy hayotida ishtiroki katta bo‘lgan. SHu nuqtai nazardan, shahar aholisi va ularning turmushini tavsifini keltirganda shaharga yaqin hudud aholisining turmushi va xo‘jaligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

1868 yilda Zarafshon okrugining faqat Samarqand bo‘limida (tog‘li tumanlardan tashqari) aholi 179.522 kishini tashkil etgan[11]. Buxoro amirligi tarkibidagi Samarqand viloyatida qancha aholi yashaganligi to‘g‘risida manbalarda aniq ma’lumotlar yo‘q.

Arxiv ma’lumotlari va ilmiy adabiyotlar ma’lumotlarini tahlil etgan holda T.Saidqulov shahar aholisi sonini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar 30 ming kishidan oshmaganligini ta’kidlaydi. Bu, taxmin to‘g‘ri deb aytish mumkin. Chunki, o‘rganilayotgan davrda Zarafshon vohasi, umuman, Buxoro amirligida aholining katta qismi qishloq xo‘jaligida mashg‘ul bo‘lib, asosan qishloqlarda istiqomat qilishgan bo‘lsa-da, Samarqand shahri viloyat markazi, yirik savdo markazi hamda hududiy savdo munosabatlarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan hamda hunarmandchilik keng rivojlangan shahar sifatida aholisining XIX asr sharoitida 30 ming atrofida bo‘lishi tabiiy holat deb baholanishi mumkin. Albatta, bu kabi yirik madaniy va iqtisodiy markaz bo‘lgan shaharda bu xajmdagi aholini istiqomat qilishi urbanizatsiya jarayonini so‘stligidan dalolat berishi mumkin. Lekin, mazkur davrda mintaqa ichki va tashqi savdosi juda katta xajmdagi tovar ayrboshlashini ta’minlay olmasligi natijasida shahar aholisining katta qismini tashkil etuvchi hunarmandlar va savdogarlar soni ham kamligi, undan tashqari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi o‘zaro keskin feodal ziddiyatlar davrida savdo ishlarining so‘sayishi shaharlarda, shu jumladan, Samarqand shahrida ham hunarmandchilik ishlab chiqarishining kamayishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida shahardagi bozorlardagi savdo xajmining pasayishiga, mahsulotlarga bo‘lgan talabning pasayishiga va shu kabi qator omillarga sabab bo‘lganki, natijada shahar aholisining soni o‘sishtan to‘xtagan va ba’zi holatlarda kamayishga sabab bo‘lgan. 1723-1729 yillarda Samarqand viloyati o‘zaro urushlar davomida ayovsiz talangan. Shahar aholisining ko‘pchiligi Hisor, Farg‘ona, Buxoro, Zarafshonning yuqori oqimi hududlariga kuchib o‘tgan. “Ularning katta qismi o‘z manzillariga etmasdan ochlikdan qirilib ketgan”. “Oddiy aholi o‘z

farzandlarini sotib kun ko'rishgan, ba'zilar esa ochlikdan nobud bo'lgan"[12]. Hususan, XVIII asr oxirida qog'ozsoz ustalarning boshqa hududga, Farg'ona vodiysiga kuchib o'tishlari ham bunga misol bo'la oladi.

Biroq, ta'kidlash joizki Samarqand va uning atroflari, va umuman Zarafshon vohasi hududi doimo aholi zich istiqomat qiluvchi hudud hisoblangan. Bu haqda ko'plab e'tiroflar manbalarda uchraydi. Zamondosh mualliflarning matbuotda keltirgan ma'lumotlariga ko'ra Zarafshon okrugi Rossiyaning eng aholisi zich istiqomat qilgan hududlarini ham aholi zichligi bo'yicha ortda qoldirishini va hatto aholi zichligi bo'yicha G'arbiy Evropadagi unumdor viloyatlardan ham qolishmasligini ta'kidlashgan.

Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman ham o'zining ko'p yillik faoliyati hisobotida Zarafshon daryosi havzasida aholi zichligi va sug'orma dehqonchilikni izchillik bilan amalga oshirilishiga etibor qaratadi. Kaufman bu hududlar aholisi zichligini Lombardiya bilan taqqoslaydi.

O'rganilayotgan davrda shahar hayoti nafaqat iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan nisbatan so'st rivojlanayotgan edi, balki ijtimoiy munosabatlarda ham eskicha, ijtimoiy-siyosiy va qolaversa iqtisodiy rivojlanishga tusiqlik bo'luvchi holatlar mavjud edi. XIX asr 60 – yillarida amirlikdagi kabi Samarqandda ham qulchilik saqlanib qolgan. Samarqandda yirik qul bozorlaridan biri faoliyat yuritgan bo'lib, unda qullar 35-80 tilla miqdorida olib-sotilgan. Qulchilikning asosiy manbai urushlar natijasida qo'lga olingan asirlar. Oddiy aholi ba'zan moliyaviy ahvoli og'irlashishi natijasi o'z farzandlarini qullikka sotganlar. Mazkur ma'lumotlar amirlik va xonliklarda aholi turmush darajasini naqadar nochor va chorasiz holatda bo'lganligini ko'rsatadi.

Maxalla jamoasida chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kechgan. SHaharlarda aslzoda kishilar, oddiy qatlamlarga mansub kishilar yashagan. Qishloqdarda ham turli ijtimoiy tabaqa vaqillari dexkon, zodagon, ruxoniylar va boshqalar bir-biriga yaqin yashaganlar. Qishloq jamoasida shunday qonun xo'qmrone ediki, yuqori mavqeli, boy zodagonga quyi qatlam aholi vaqillari buysunishi, itoat etishi, tabiiy hol hisoblangan.

Shahar aholisining etnik tarkibi nihoyatda hilma-hil bo'lgan. Bu erda tojiklar, o'zbeklar, arablar, afg'onlar, hindlar, lo'lilar, yahudiylar va boshqa turli millat vakillari istiqomat qilishgan. Ularning XIX asr birinchi yarmida son jihatdan aholi tarkibidagi ulushini aniqlash uchun aniq tarixiy ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, ayrim etnik birliklarning nima sababdan bu shaharda istiqomat qilishlari, ular mashg'ulotlari haqida ma'lumotlar uchraydi. Aholining katta qismini tojiklar va o'zbeklar tashkil etgan. YAhudiylar haqida V.V.Radlov "ular 100-150 yil oldin Erondan avval Buxoroga, keyin Samarqandga ko'chib kelishgan", deb ma'lumot beradi. A.F.Fayziev arxivda saqlanayotgan vasiqa ma'lumotlariga tayanib ma'lumot berishicha yahudiylar

alohida mavzeda istiqomat qilishgan. Unda keltirilishicha 1843 yili amir Nasrullo Samarqand shahrining ichida, sharqiy darvoza yaqinida, Chokardiza qabristoni yonida o'n ming kumush tangaga alohida go'zar tashkil qilishlari uchun ularga 11 tanob erni sotgan [13] ligi haqida fikrlarni keltiradi.

XIX asr ikkinchi yarmida Samarqand shahri aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Imperiya boshqaruv tizimining o'rnatilishi va yangi etnik hamda siyosiy kuch sifatida rus fuqarolari, ya'ni Rossiya imperiyasiga xizmat qiluvchi turli millat vakillaridan iborat bo'lgan turli hil sohalar mutaxassisleri, ko'chirish siyosati natijasida hududga kelib o'rnatilgan oddiy rus aholisi ham aholining etnik tarkibiga o'zgartirish kiritgan. D.L.Ivanovning ma'lumot berishicha Samarqandda yashovchi yahudiylar musulmon amirlik davrida huquqsiz holatda bo'lib, ular shaharda o'zlari uchun sinagoga qo'rish, otda yurish, musulmonlar kiyimlarini kiyish, etik kiyish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega emas edilar. Ular uchun bozor orqasida alohida mavze ajratilib, barcha yahudiylar o'sha mavzeda istiqomat qilishgan. SHu tariqa "jugut go'zar" shakllangan. Samarqand rus qushinlari tomonidan egallanishi va rus hokimiyatini o'rnatilishi bilan mahalliy aholi va yahudiylar ham imperiya uchun bir hil – qaram aholi maqomiga ega bo'ldilar va ularga nisbatan bir hil munosabat o'rnatildi. YAhudiylarga nisbatan amirlik davrida joriy etilgan ta'qiqqlar bekor qilingan. Natijada yahudiylar ruslar va imperiyaning o'lkadagi hokimiyatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar. YAhudiylar ruslar bilan yaqinlashib, tezda rus tilini o'zlashtira boshladilar[14].

Yahudiylarga ta'rif berar ekan D.L.Ivanov ularni "mahalliy aholi orasida eng uddaburon, ularning savdogarlari boshqa barcha savdogarlarga raqobatdosh bo'lib, birinchilardan bo'lib yangilikka qo'l o'rishganligini, yahudiylar birinchilardan bo'lib rus akusherlariga murojaat qilishgani, rus ta'lim muassasalarida o'qiy boshlaganlarini ta'kidlaydi. Undash tashqari, yahudiylar qo'shni xonliklarda bo'layotgan barcha siyosiy jarayonlarni tezda, birinchi anglab, u haqda ruslarni ogohlantirishib turgan..."[15].

Shahar mikrotoponimikasi go'zarlar tarixini, aholi mehnati hususiyatlarini va nomlar kelib chiqishini o'zida aks ettiradi. Guzarlarda ishlab chiqarish-hunarmandchilik hususiyatiga qarab aholi istiqomat qilgan. Zargaron mahallasida tillo buyumlar yasovchi ustalar, Suzangaronda igna yasovchi ustalar, CHarmgaronda terichilik va teri mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi shug'ullanuvchi ustalar, Xarrotonda yog'och ustalari, Kulolonda kulol ustalar, Zingaronda egar-jabdug' va ot abzali yasovchi ustalar, SHarbatdorda turli shirin ichimliklar tayyorlovchi hunarmandlar istiqomat qilishgan. Undan tashqari Toshkandi, Xujandi, Urguti, Zomini, SHahrisabzi, Urmitani, Qashqari kabi go'zarlar bo'lganki, ulardagi aholi kelib chiqishi joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan. YA'ni, bu go'zarlarga aholi mazkur nomdagi joylardan ko'chib kelgan. [16] Ba'zi go'zarlarning nomlari shahar me'moriy yodgorliklari nomlari bilan

bog'liq bo'lgan. Bunga Ruhobod, Guramir, Oq-saroy, Namozgoh, Ko'kmachit, Xonaqo, Madrasai Safid go'zarlarini kiritish mumkin. Alohida Samarqand shahri topografiyasi bilan bog'liq go'zar nomlari uchraydi: Labi-g'or, CHaqar, Toli-Regak, Baland-Ko'prik, Bog'i-baland, Kabolai YAkum, Kabolai Duvvum, Puli mirzo, Gilburch va hokazo. SHahar tabiati bilan bog'lik go'zarlar nomlariga Kavarzor, Lolazorlarni keltirish mumkin. Navadon, Obimashad, Doniyorbek, Kulobod kabi nomlar shahardagi suv inshootlari, sun'iy ariqlar, suv manbalari nomlaridan kelib chiqqan. Olimlarning nomlari berilgan go'zarlar bo'lgan: Faqix Abullays, Maxtumi Xorazmiy va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Файзиев А.Ф. История Самарканд а первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 5.
2. Абу Тохир Хожа. Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда. Пер. В.Л.Вяткина. – Справочная книжка Самаркандской области за 1889 г. Вып. IV. – Самарканд, 1889. – С. 161.
3. Верста – чақирим (1,06 км га тенг масофа ўлчови).
4. Сажень – саржин (уч газга ёки 2 ,134 метрга тенг узунлик ўлчови).
5. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 100.
6. Сухарева О.А. Оборонительные стены Самарканда. В кН.: Культура и искусство народов Средней Азии в древности и средневековье. – М., 1979. – С. 85-89.
7. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половин XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 8.
8. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – С. 90.
9. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половин XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 9.
10. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – М., 1958. – С. 120; Абрамов М.М. Социально-экономическая и культурная жизнь Самарканда в XVI – первой половине XIX в. Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Т., 1989. – С. 27.
11. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половин XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 9.
12. Беневени Ф. Реляция из Бухары от 10 марта 1722года.
13. Файзиев А.Ф. История Самарканд а первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 8.
14. Иванов Д.Л. Самарканд. – М., 1872. – С. 53.
15. Иванов Д.Л. Самарканд. – М., 1872. – С. 54.
16. Абрамов А.А. Гузары Самарканда. – Ташкент; Узбекистан, 1989. - С. 4.

УЎК 674.031.632.264

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТОҒ ОЛДИ МАЙДОНЛАРИДА ЭМАН ТУРКУМИ ВАКИЛЛАРИ УРУҒЛАРИНИ ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИ АНИҚЛАШ

И.З.Янгибаева,

докторант (PhD), Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти, Тошкент

Б.И. Эшанкулов,

катта илмий ходим, Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти, Тошкент

Г.Д.Таджибаева,

магистр, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент

***Аннотация.** Ёғочининг сифатлилиги бўйича оддий эман дарахти юқори погонани қайд этади. Дунё бўйлаб эман туркумининг 600 та тури тарқалган. Шундай бўлсада Ўзбекистон шароитида фақатгина оддий эман интродукция қилиниб кўплаб экилмоқда. Эман кўчатларини дастлабки йилларда секин ўсиши ушбу турнинг кенг тарқалишига тўсқинлик қилмоқда. Шу сабабли ушбу туркум вакиллариининг тез ўсувчи ва сифатли ёғоч берувчи шакллариини етиштиришни илмий асослашимиз керак бўлади.*

***Калит сўзлар:** табиий, интродукция, ўрмон мелиорацияси, кўкаламзорлаштириш, ёғочсозлик, сифат, мебель, ҳакалак, экошакл, ёзги, қишки, кўчат.*

Республикада табиий равишда эманзорлар мавжуд бўлмаган бўлсада, охириги юз йилда оддий эман энг муваффақиятли интродукция қилинган тур сифатида ўзини намоён қилди. Йирик ва мустаҳкам танаси, қалин қопланган тўқ яшил барглари бу турга ўзгача чирой ва ҳайбат бағишлайди. Бунинг натижасида ҳозирги кунда катта шаҳарларимиздан тортиб кичкина объектлар атрофини ўсимлик билан безашда ушбу дарахтга мурожаат қилинади. Шунингдек бу турдан тоғ ўрмон мелиорацияси, далаларни шамолдан ҳимоялашда кенг қўллаш истиқболи мавжуд.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 феврал № 84 сонли “Ёғочсозлик саноати хомашё базасини мустаҳкамлаш ва соҳани янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори мамлакатда ёғочбоп тез ўсар ва қимматбаҳо ёғочга эга бўлган дарахтларни ўстириш каби муҳим

вазифаларни кўяди [1]. Оддий эманнинг сифатли ёғочи билан ҳам мебелсозликда кадрланиши юқоридаги қарорни ижросини таъминлашда муҳим объект бўлиб хизмат қилади. Бу турнинг деярли касаллик ва зараркунандалар билан зарарланмаслиги ортиқча харажатларни паст даражага туширади. Дарахтнинг ёзнинг аномал иссиқ ва қишнинг изғирин совуқларга чидамлилиги ушбу турнинг бизнинг минтақага мос келишидан далолат беради. Ушбу турдан катта майдонларда маданий ўрмонлар барпо этиш, аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштиришда фойдаланиш, саноат объектлари атрофида химоя дарахтзорлари барпо этиш учун оддий эманнинг кўчатларига бўлган эҳтиёжни оширади.

Тадқиқот услуби. Эман кўчатларни ўстириш технологияси А.А.Хоназаров (2002) услубида амалга оширилди [4].

Тадқиқот натижалари. - Бўйи 35-40 м, тана диаметри 1-1,5 м га етадиган оддий эман (*Quercus robur* L.) йирик дарахт ҳисобланади. Бизнинг шароитда 32 ёшли эман дарахти бўйи 16-18 м, танасининг йўғонлиги 18-20 см га етади. Ёғочи бизда ўсадиган ёнғоқ ва чинор дарахтларининг ёғочи каби қимматбаҳо бўлиб, бу ёғочлардан Европа давлатларида жуда кенг фойдаланилади. Унинг ёғочидан асосан қимматбаҳо уй жиҳозлари, мебель саноатида фойдаланиш учун юқори сифатли фанер, эшик ва дераза ромлари тайёрланади, пардозлаш учун кенг кўламда ишлатилади. Ёғочи оғир ва мустаҳкамдир. Қуритиш жараёнида ёғочи яхши қурийдими, кесиш ва шакл бериш асбобларида осон ишланади, лак ва турли бўёқларни яхши қабул қилади. Кесиб олинган ёғочи узоқ вақт сувда сақлаб турилса, сифати бузилмайди, аксинча, ранги қорайиб, чиройли тусга киради ва бундай ёғочлар дурадгорликда жуда кадрланади. Юқори сифатли мебель, фанер, пол ва девор учун махсус паркетлар ҳамда суюқлик сақлайдиган бочкалар тайёрланади [2, 3, 5].

Ўзбекистоннинг суғориладиган ерларида кўплаб эманзорлар барпо қилса бўлади. Ёғингарчилик миқдори етарли тушадиган тоғлик районлардаги суғорилмайдиган лалми ерларда ҳам бемалол ўсади. Унумдор ва суғориладиган ерларда нисбатан яхши ўсади[4].

Ўзбекистоннинг чўл шароитида ҳамда шўрланишга мойил ерларида ёмон ўсади. Меваси ёнғоқ шаклидаги "ҳакалак-жолуд" бўлиб, август-сентябрь ойида пишиб ерга тўкилади. Тўкилган ҳакалак-жолудлар териб олинади ва соя жойда 5-7 кун қурилади. Кузда кўчатзорларда 7-8 см чуқурликда экилади. Эрта баҳорда экилган уруғлардан ниҳоллар униб чиқади. Баҳорги экиш учун махсус траншеяларда қумга аралаштирилган ҳолда сақланади.

Эманнинг баҳорда барг чиқариши муддатлари бўйича ёзги ва қишки экошаклларига бўлинади. Ушбу шакллар кўчатларини ўсишини ўрганиш бўйича

тажрибалар ўтказдик. Бунга кўра ёзги ва қишки эман эконошакллари уруғлари алоҳида териб олинди. Бу уруғлар 0,7x0,2 м схемада эгатларга экилиб уларда фенологик кузатув ва биометрик ўлчаш ишлари ўтказилди (1-жадвал).

1-жадвал.

Эконошакллар бўйича оддий эман кўчатларининг биометрик кўрсаткичлари (кузда экилган уруғлар бўйича)

№	Тур номи	Қишки				Ёзги			
		бўйи, см		илдиз бўйни, см		бўйи, см		илдиз бўйни, см	
		2 й	3 й	2 й	3 й	2 й	3 й	2 й	3 й
1	Оддий эман	35	82	0,6	1,2	25	58	0,4	0,5

1-жадвалга кўра кузда экилган оддий эман ва унинг найзасимон шакли уруғларидан ўсган кўчатларда қишки шаклларнинг биометрик кўрсаткичлари ёзги шаклларга нисбатан юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Бунда қишки эконошаклларнинг икки йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни: оддий эман – 35/0,6; оддий эманнинг найзасимон шаклида эса – 30/0,7 см ни ташкил қилди. Ёзги эконошаклларнинг икки йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни: оддий эман – 25/0,4 см ни ташкил қилди. Бундан қишки эконошакллар кўрсаткичлари ёзги эконошакл кўчатларидан биометрик кўрсаткичлари бўйича юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

Кузда экилган оддий эман ва унинг найзасимон шакли уруғларидан ўсган уч йиллик кўчатларнинг қишки шаклларнинг биометрик кўрсаткичлари ёзги шаклларга нисбатан юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Бунда қишки эконошаклларнинг уч йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни: оддий эман – 82/1,2 см ни ташкил қилди. Ёзги эконошаклларнинг уч йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни: оддий эман – 58/0,7 см ни ташкил қилди. Бунда ҳам қишки эконошакллар кўрсаткичлари ёзги эконошакл кўчатларидан биометрик кўрсаткичлари бўйича юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

2-жадвал.

Экошаклар бўйича оддий эман кўчатларининг биометрик кўрсаткичлари
(баҳорда экилган уруғлар бўйича)

№	Тур номи	Қишки				Ёзги			
		бўйи		илдиз бўйни		бўйи		илдиз бўйни	
		2 й	3 й	2 й	3 й	2 й	3 й	2 й	3 й
1	Оддий эман	33	70	33	70	33	70	33	70

2-жадвалга кўра баҳорда экилган оддий эман уруғларидан ўсган кўчатларда қишки шаклларнинг биометрик кўрсаткичлари ёзги шаклларга нисбатан юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Бунда қишки экошаклларнинг икки йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни 33/0,5 см ни ташкил қилди. Ёзги экошаклларнинг икки йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни оддий эман – 23/0,4 см ни ташкил қилди. Бундан қишки экошакллар кўрсаткичлари ёзги экошакл кўчатларидан биометрик кўрсаткичлари бўйича юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

Кузда экилган оддий эман уруғларидан ўсган уч йиллик кўчатларнинг қишки шаклларнинг биометрик кўрсаткичлари ёзги шаклларга нисбатан юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Бунда қишки экошаклларнинг уч йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни оддий эман – 70/1,0 см ни ташкил қилди. Ёзги экошаклларнинг уч йиллик кўчатларида бўйи ва илдиз бўйни оддий эман – 58/0,5 см ни ташкил қилди. Бунда ҳам қишки экошакллар кўрсаткичлари ёзги экошакл кўчатларидан биометрик кўрсаткичлари бўйича юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

Кузги экилган эман уруғларининг барча вариантларида баҳорги экиш вариантлари билан таққослаганимизда кўчатларнинг биометрик кўрсаткичлари юқори эканлиги аниқланди.

Хулоса. Ўтказилган барча тажрибаларимизда кеч барг чиқарувчи оддий эман дарахтларидан терилган уруғлардан ўсган кўчатларда биометрик кўрсаткичлар юқори бўлди. Шу сабабли уруғларни теришда оддий эманнинг барг чиқариш муддати кеч бўлган дарахтларидан териб алоҳида экиш тавсия этилади. Шу сабабли дарахтларнинг барг чиқариш мавсумида уларни эрта ва кеч барг чиқарувчиларга ажратиб олиш керак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 феврал № 84 сонли “Ёғочсозлик саноати хомашё базасини мустаҳкамлаш ва соҳани янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори.
2. Кайимов А.К., Бердиев Э.Т. Дендрология. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 132-134 б.
3. Новосельцева А.И., Родин А.Р. Справочник по лесным культурам. - изд: Лесная промышленность, 1984.-С.48.
4. Хоназаров А.А. Ўзбекистонда ўрмонзорлар барпо қилиш асослари. – Тошкент, 2002.- 103 б.
5. [Виды рода Дуб — Википедия \(wikipedia.org\)](#).

УЎК 634.574

ҚЎҚОН ДАВЛАТ ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ ШАРОИТИДА ХАНДОН ПИСТА ЎСТИРИШ

Х.Т. Машрапов,

докторант (DSc), Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти, Тошкент

Б.И. Эшанкулов,

катта илмий ходим, Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти, Тошкент

Аннотация. Дунё бозорида писта ёнғоқмеvasига бўлган юқори талаб, етказиб берувчи мамлакатлар олдига писта ҳосилдорлиги ва ёнғоқмева сифатини ошириб боришни талаб қилади. Шу сабабли писта ёнғоқмеvasини етказиб берувчи мамлакатлар ҳосилдорлик ва унинг сифатини ошириш бўйича олиб борилаётган илмий изланишларга катта эътибор қаратади. Пистанинг ватани бўлган Ўзбекистонда ҳам Пистачилик соҳасига ҳам катта эътибор берилмоқда. Илмий изланишлар натижасида дунё бозорида юқори баҳоланадиган Акбари, Ахмади каби писта навлари билан рақобатлаша оладиган Ўзбекистоннинг маҳаллий писта навлари яратилди. Ушбу илмий иш натижасида олинган писта навларини катта майдонларда кўпайтириш ва районлаштириш орқали дунё бозорига дадил кириб бориш имконияти пайдо бўлади.

Калит сўзлар: ўрмон хўжалиги, майдон, писта, ҳосил, тупроқ, гумус, илдиз, чангчи, уругчи, плантация.

Кириш. Хандон писта сердаромад маданий экин тури ҳисобланиб дунёнинг кўпгина мамлакатларида етиштирилади ва экспорт қилинади. Дунё бўйича етиштириладиган писта ёнғоқмеvasи йилига 1 млн тоннадан ошди. Хандон писта етиштириш бўйича етакчи давлатлар АҚШ (406,6 минг т.), Эрон (315,2 минг т.), Туркия (170 минг т.), Хитой (83,3 минг т.) ва Сурия (56,8 минг т.) ҳисобланади. Хандон писта ўрмонларининг ҳосилдорлигини ошириш учун маҳаллий навларни яратиш ва вегетатив кўпайтириш орқали серҳосил плантацияларни барпо этиш долзарб масаладир [5].

Мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёев томонидан барча соҳаларда бўлгани каби ўрмон хўжалиги соҳасида ҳам кенг ислохотлар олиб борилиб, ер ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланиш бўйича бир неча қарорлар қабул қилинган. Жумладан, Навоий, Жиззах, Қашқадарё, Сурхондарё ва

Андижон вилоятларига тащрифи чоғида 20 минг гектардан ортиқ майдонда хандон писта плантацияларини барпо этиш бўйича топшириқлар берилган [1].

Пистачиликни ривожлантириш бўйича халқаро миқёсда кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилмоқда. *Pistacia vera* L. нинг табиий ўрмонлари маҳсулдорлигини ошириш ва маданий плантацияларини барпо этиш сифатини яхшилаш, серҳосил плантациялар барпо этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хандон пистанинг лалмикор ерларда ўстиришга мос, серҳосил, юқори сифатга эга экспортбоп маҳсулот берадиган навларини яратиш, уруғидан ва ёпиқ илдиз тизимида етиштирилган кўчатидан доимий ўсиш жойига экиш ва парваришlash технологиясини такомиллаштириш бўйича кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилган ва муҳим натижаларга эришилган [4, 6, 7].

2020 йил Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти олимлари томонидан хандон пистанинг ўнта уруғчи ва битта чангчи дарахтларига патент олинди. Ушбу маҳаллий навлар мамлакатимизнинг турли ҳудудларига районлаштириш долзарб масалалардан бири бўлиб турибди. Шу сабабли писта ўсиши мумкин бўлган майдонлар иқлим-тупроқ шароитини ўрганиш ва шу ҳудудга мос навларни тавсия этиш каби тадқиқот ишларини амалга оширишга эҳтиёж пайдо бўлди.

Тадқиқот услуби. Писта дарахтларининг таксацион кўрсаткичлари умумий қоидалар асосида; тупроқ таҳлиллари «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах», Е.В.Аринушкинанинг «Руководство по химическому анализу почв» ҳамда «Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель» қўлланмаларида кўрсатилган услублар асосида амалга оширилди [2, 3].

Тадқиқот натижалари. Мамлакатимизда писта ўстириб мўл ҳосил имкониятига эга ҳудудларимиз катта майдонни эгаллайди. Писта туркуми вакилларида ёнғоқмеvasини истеъмол қилиш мумкин бўлган ягона тур бу хандон писта *Pistacia vera* L. нинг ватани айнан Марказий Осиё давлатлари қаторида Ўзбекистон ҳам ҳисобланади. Ўзбекистонда Фарғона водийси ўзининг юқори сифатли мева етказиб бериш бўйича салоҳиятли ўринни эгаллайди.

Кўқон давлат ўрмон хўжалигининг умумий майдони 12629 гектар, шундан 4026 гектари ўрмон билан қопланган майдонлар ҳисобланади. Тоғли ҳудуд-993, чўл ҳудуд-2519, водий ҳудуд-3339 (шундан 1437 гектар ўрмон билан қопланган майдонлар), тўқайзорлар- 5778 (2589 гектар ўрмон билан қопланган майдонлар) гектар майдондан майдондан иборат.

Кўқон давлат ўрмон хўжалигининг тоғли ва водий ҳудудларида хандон писта дарахтларини ўстириш мумкин. 2000-2001 йилларда хандон писта экилган

бўлиб, бугунги кунда бу писталар шартли суғориладиган шағалли майдонларда яхши ўсиб ривожланмоқда ва ҳосил бермоқда.

1-жадвал

Қўқон давлат ўрмон хўжалигида ўсиб турган писта дарахтларининг таксацион кўрсаткичлари

	Дарахт	Ҳосилни қайд этиш	Бўйи, м	Тана диаметри, м	Шох-шаббаси, м	Танасининг ранги
1	уруғчи	мавжуд	3,0	0,10	4x4	кул ранг
2	уруғчи	мавжуд	3,5	0,12	4x3	оч кул ранг
3	чангчи		2,5	0,8	2x3	жигар ранг
4	уруғчи	мавжуд	3,0	0,08	4x3	кул ранг
5	чангчи		3,0	0,15	3x3	кул ранг
6	чангчи		3,5	0,12	3x4	кул ранг
7	уруғчи	мавжуд	2,0	0,10	4x4	оч жигар ранг
8	уруғчи	мавжуд	2,5	0,10	4x4	оч жигар ранг
9	чангчи		2,0	0,8	3x3	кул ранг
10	уруғчи	мавжуд	3,0	0,10	3x2	кул ранг

1-жадвалдан кўриниб турибдики тасодифий танланган бир қаторда кетма кет жойлашган писта дарахтларида таксация кўрсаткичлари турлича бўлиб, дарахтларнинг чангчи ва уруғчи дарахтлари ҳам табиий тарқалиш кўрсаткичларига яқин бўлган. Шу сабабли бу дарахтларни навдор писта дарахтларига айлантириш заруратини келтириб чиқаради. Худуддаги дарахтлар ўсиб турган майдон тупроғи ҳам таҳлил қилинди (2-жадвал).

2-жадвал

Қўқон давлат ўрмон хўжалиги Асад ўрмон бўлимидаги пистазор майдони тупроқ таҳлили

№	Қатлам (см)	Гумус %	N-NO ₃ (азот) мг/кг	P ₂ O ₅ (фосфор) мг/кг	K ₂ O (калий) мг/кг
1	0-20	0,6233	4,2	5,69	50
2	20-40	0,6054	3,9	5,12	52
3	40-60	0,4880	3,0	4,48	48
4	60-80	0,3724	2,6	3,84	33
5	80-100	0,2624	1,7	2,24	29
6	100-120	0,2370	1,2	2,00	24

2-жадвалдан кўриниб турибдики тупроқнинг юқори қатламидан қуйи қатламга тушган сари озикавий моддалар камайиб боради. Писта дарахтларининг дастлабки илдишлари жойлашадиган юқори қатламнинг озикавий кўрсаткичлари қуйидагича:

Агрокимёвий таҳлиллар натижаларига кўра, 0-20 см қатламда яъни хайдов қатламида гумус миқдори 0,6233 %, 20-40 см да 0,6054 %, 40-60 см да 0,4880 % паст миқдорда таъминланган, 60-80 см да 0,3724 %, 80-100 см да 0,2624%, 100-120 см да 0,2370 % ни ташкил этиб, таъминланганлик даражасига кўра жуда паст эканлиги аниқланди.

Ҳайдов қатламида яъни 0-20 см қатламда ҳаракатчан азот миқдори 4,2 мг/кг, 20-40 см да 3,9 мг/кг, 40-60 см да 3,0 мг/кг, 60-80 см да 2,6 мг/кг, 80-100 см да 1,7 мг/кг, 100-120 см да 1,2 мг/кг ни ташкил этиб, таъминланганлик даражасига кўра жуда паст миқдорда таъминланганлик кўрсаткичлари аниқланди. Ҳаракатчан фосфор миқдори 0-20 см қатламда миқдори 5,69 мг/кг, 20-40 см да 5,12 мг/кг, 40-60 см да 4,48 мг/кг, 60-80 см да 3,84 мг/кг, 80-100 см да 2,24 мг/кг, 100-120 см да 2,00 мг/кг ни ташкил этиб, ҳаракатчан фосфор миқдори жуда паст эканлиги аниқланди. Таҳлил натижаларига кўра юқори қатламдан пастки қатламларга томон озуқа миқдори камайиб борган. Алмашинувчан калий миқдори таҳлил қилинганда, 0-20 см қатламда 50 мг/кг, 20-40 см да 52 мг/кг, 40-60 см да 48 мг/кг, 60-80 см да 33 мг/кг, 80-100 см да 29 мг/кг, 100-120 см да 24 мг/кг ни ташкил этиб, таъминланганлик даражасига кўра жуда паст эканлиги аниқланди. Юқоридаги тупроқ таҳлил натижаларидан, тажриба даласи тупроқларининг озика моддалар билан кам миқдорда таъминланганлигини кўришимиз мумкин.

Хулоса. Ўсиб турган писта дарахтлари ҳолати ва тупроқ шароитининг таҳлилига кўра Қўқон давлат ўрмон хўжалиги ҳудудида катта майдонларда писта плантациялари барпо этиш мумкин. Пистазорлар барпо этишда тупроққа қўшимча озика киритиш, суғориш имкониятларини ошириш каби агротехник тадбирларга алоҳида эътибор қаратиш керак деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони.
2. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв. М., 1970, С 118.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Изд. «Агропромиздат», М., 1985, С 351.
4. Kayimov A., Kholmurotov M.Z., Eshankulov B.I. Justification of prospective pistachio (*Pistacia vera* L.) varieties and forms while creating plantations in Uzbekistan //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. IOP Publishing, 2021.
5. ФАО. <https://www.atlasbig.com/en-us/countries-pistachio-production>.
6. Hamzayev A. K., Eshankulov B. I., Kholmurotov M. Z., Inomova M. M. Study on cultivation of pistachio (*Pistacia vera* L.) seedlings in containers //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. IOP Publishing, 2020. 012119.
7. Чернова Г.М., Хамзаев А.Х., Эшанкулов Б.И., Шайматов О.А. Фарбий Тянь-Шаннинг тоғ олди лалмикор ерларида хандон пистани саноат плантацияларида ўстириш технологиясини такомиллаштириш. – Ташкент, 2019. – С. 5-6.

АНДИЖОН ВА НАМАНГАН ВИЛОЯТЛАРИДА ЎСАЁТГАН БОДОМНИНГ ЭКОШАКЛЛАРИНИ ДАСТЛАБКИ БАҲОЛАШ

Б.И. Эшанкулов,

катта илмий ходим, Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти, Тошкент

М.У. Махамматова,

доцент, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент

М.А. Охунов,

докторант (PhD), Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти, Тошкент

***Аннотация.** Фарғона водийсида оддий бодом етиштиришнинг жуда яхши маданияти шакланган. Ўзбекистон оддий бодомнинг ватани ҳисобланади ва бу ерда унинг бир неча юзлаб экошакллари мавжуд. Шу сабабли Фарғона водийсида ўсаётган бодомлардан селекция объекти сифатида фойдаланса бўлади. Ушбу мақолада Андижон ва Наманган вилоятларида ўсаётган оддий бодомнинг айрим шаклларида дастлабки кузатиш натижалари ҳақида маълумотлар келтирилган.*

***Калит сўзлар:** ёнғоқмева, тоғ ва тоғ олди, озиқ-овқат, экошакл, хонадон, йирикмева, ҳосилдор, хуштаъм, мағиз, нав.*

Кириш. Ўзбекистонда ўстирилаётган ёнғоқмевали дарахтлар орасида бодом алоҳида мавқега эга. Бодом турлари ўрмон хўжаликларида тоғ ва тоғ олди ҳудудларни ўрмонлаштиришда мелиоратив аҳамиятга эга бўлса, меваси озиқ-овқат ва дориворлик хусусиятига эга ҳисобланади. Қадимдан Марказий Осиё халқларининг асосий озиқ-овқат ресурсларидан бири ҳисобланган ва хонадонларда жуда кўплаб ўстирилган.

Маълумки юртимизда узоқ тарихий даврлардан буён маданийлаштирилган ва халқ селекцияси томонидан яратилган йирик мевали ва серҳосил ширинбодом навлари аҳоли томонидан кўплаб ўстирилган. Бодом мағзи хуштаъмлиги билан машҳурдир, шу сабабли оддий (ширин) бодом меваси бутун дунёда энг қимматли ёнғоқмевалардан бири ҳисобланади [4].

Тадқиқот услуби. Селекциянинг яқка танлаш услубида амалга оширилди [1].

Тадқиқот натижалари. Оддий бодом (*Amgdalus communis* L.) доимо ўрмон селекцияси предмети бўлиб келган, унинг кўплаб йирик мевали ва серҳосил навлари яратилган. Бодом мағзи ўзига хос таъмга эга бўлиб, озиқ - овқат саноатида муҳим аҳамиятга эга [2, 3]. Фарғона водийсида оддий

бодомнинг бир неча юзлаб шакллари мавжуд бўлиб, уларни ўрганиш, хўжалик белгилари бўйича қимматбаҳо шакллари ажратиш ва улар асосида янги навларни яратиш ёнғоқмевалиларни етиштиришда долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ҳосилдор, йирик мевали, меваларни сифати, хажми ва шаклига кўра бир биридан фарқланувчи турли навлар яратилган бўлсада, тез ривожланиб бораётган бозор иқтисодиёти шароитида ва иқлим ўзгаришлари сабабли курғоқчиликка чидамли бу турга алоҳида эътибор бериш керак деб ҳисоблаймиз. Ҳозирги кунда аҳоли хонадонлари, томорқа участкалари, боғларда оддий бодомнинг жуда кўплаб экошакллари тўпланиб қолган. Бу бодомлар тўғрисидаги маълумотларни эса ушбу боғ эгаларидан тўлиқ олиш мумкин. Шу сабабли ушбу селекциянинг бошланғич манбасини йиғиш мақсадида Фарғона водийсининг турли ҳудудларида илмий изланишлар ўтказилди. Бунинг учун ҳудудларга бориб оддий бодом дарахтларининг экилган йили, экилиш тарихи, гуллаш муддатлари, ҳосилдорлиги, мағзининг таъми каби маълумотлар йиғилди. Дарахтларда таксацион ўлчашлар, вегетацион кузатувлар ўтказилди. Ёнғоқмева ўлчамлари ва мағиз кўрсаткичлари ҳам ўлчаниб дала дафтарига қайд этилди.

1-жадвал

Андижон ва Наманган вилоятларида ўрганилаётган оддий бодом шакллари ёнғоғининг морфологик белгилари

Т/р	Шаклнинг шартли номи	Оғирлиги, г		Мағиз чиқиши, %	Ёнғоқмева хажми, см
		Данак	Мағиз		
1	F-A-11	1,5	1,0	66,7	2,2x1,3x1,2
2	F-A-12	2,45	0,75	30,6	3,0x1,7x1,3
3	F-A-13	1,7	0,7	41,1	2,6x1,5x1,3
4	F-A-14	1,9	0,8	42,1	2,5x1,6x1,3
5	F-A-15	1,45	0,7	48,2	2,2x1,6x1,3
6	F-N-1	2,0	0,75	37,5	2,5x1,8x1,3
7	F-N-2	1,4	0,6	42,8	2,5x1,6x1,4
8	F-N-3	1,9	0,9	47,3	2,5x1,5x1,3
9	F-N-4	1,8	0,65	36,1	2,4x1,5x1,3
10	F-N-5	2,3	1,1	47,8	3,7x2,1x1,7

2-жадвал

**Ўрганилаётган оддий бодом ёнғоқмеvasининг 1000 дона уруғ вази
ва 1 кг даги уруғ сони**

Т/р	Шаклининг шартли номи	1000 дона уруғ вази, г	1 кг даги уруғ сони, дона
1	F-A-11	1500	667
2	F-A-12	2450	408
3	F-A-13	1700	588
4	F-A-14	1900	526
5	F-A-15	1450	690
6	F-N-1	2000	500
7	F-N-2	1400	714
8	F-N-3	1900	526
9	F-N-4	1800	555
10	F-N-5	2300	434



Шакл- А-11



Шакл- А-12



Шакл-А-13



Шакл- А-14



Шакл-А-15



Шакл-Н-1



Шакл-Н-2



Шакл-Н-3



Шакл-N-4



Шакл-N-5

1-расм. Ўрганилаётган оддий бодом ёнғоқмеvasининг кўриниши.

3-жадвал

**Оддий бодом дарахтларининг таксацион кўрсаткичлари
(Андижон вилояти Улуғнор тумани, Наманган вилояти Мингбулоқ
тумани)**

Т/р	Шаклнинг шартли номи	Жойлашган ҳудуд	Таксацион белгилари, м			Ҳосилдорлик, кг
			бўйи	тана диаметри	шоҳ-шаббаси	
1	F-A-11	Улуғнор тумани, Мингбулоқ МФЙ	4	0,40	3 x 3,5	12
2	F-A-12	Улуғнор тумани, Янгиобод МФЙ	5	0,45	4 x 3	8
3	F-A-13	Улуғнор тумани, Янгиобод МФЙ	4	0,40	3 x 3	8
4	F-A-14	Улуғнор тумани, Янгиобод МФЙ	5	0,55	4 x 3	6
5	F-A-15	Улуғнор тумани, Янгиобод МФЙ	4	0,65	4 x 4	12
6	F-N-1	Мингбулоқ тумани,	5	0,6	5 x 4	20

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	I.Muradov, & I.Fayzullaev. (2023). ORGANIK YOQILG'INI YOQISHDA ATROF-MUHITGA ZARARLI TA'SIRINI VAHOLASH. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 4–8. https://doi.org/10.5281/zenodo.8353569
2	Тоқсанбаева Айжамал Манғытбай қызы. (2023). СУД ТИЗИМИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 9–18. https://doi.org/10.5281/zenodo.8353574
3	Тоқсанбаева Айжамал Манғытбай қызы. (2023). СУД ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ КУЧАЙТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 19–27. https://doi.org/10.5281/zenodo.8353578
4	Тоқсанбаева Айжамал Манғытбай қызы. (2023). СУД ПРОЦЕССИДА ПРОКУРОР ИШТИРОКИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 28–34. https://doi.org/10.5281/zenodo.8353583
5	Utebaev Salamat Maqsetbay uli, & Toqsanbaeva Ayjamal Mangitbay qizi. (2023). SUD EKSPERTIZASINING OMMALASHAYOTGAN YANGI TURDAGI KUCHLI TA'SIR QILUVCHI MODDALARNI ANIQLASHDA ANAMIYATI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 35–40. https://doi.org/10.5281/zenodo.8353589
6	Бекчанова Нилуфар Ахмеджановна. (2023). ХОРАЗМ ВОҲАСИ АҲОЛИСИ АНЪАНАВИЙ ОИЛА ВА НИКОҲ МУНОСАБАТЛАРИ ҲАМДА УЛАРДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 41–46. https://doi.org/10.5281/zenodo.8353591

7

Utebaev Salamat Maqsetbay uli, & Toqsanbaeva Ayjamal Mangitbay qizi. (2023). BOJXONA CHEGARALARI ORQALI OLIB O‘TILISHI TAQIQLANGAN YOKI CHEKLANGAN KONTRABANDA JINOYATI PREDMETLARI USTIDAN NAZORAT QILISH SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 47–53. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8353596>

8

Dauletbaeva Dilshada Dastanovna. (2023). CNN TELEKANALIDA OSIYO DAVLATLARIGA OID AXBORIY MATERIALLARNING BERILISHIDA TELEVISION ASAR KOMPONENTLARI: PLAN VA TITR. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 54–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364763>

9

Bekbosnova Gauhar. (2023). RUS TILINEN QARAQALPAQ TILINE KIRGEN ÁSKERiy SÓZLER. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 57–59. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364773>

10

И.Мурадов, & И.Файзуллаев. (2023). АТМОСФЕРА ҲАВОСИНИНГ ИФЛОСЛАНИШИ МУАММОСИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 60–65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364780>

11

Сапарова Гулбахар Айтбаевна. (2023). ЖАМИЯТ РИВОЖИДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ФЕНОМЕНИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 66–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364785>

12

Oljayev Dilshod Nurmurodovich, Karimova Zarifa Umarovna, Ganiev Qahramon Xudoyberdievich, & Shermatova Dilafruz Norkamalovna. (2023). OQOVA SUVLARNI ULTRA FILTR ORQALI VA MEKANIK TOZALASH JARAYONLARINI TADBIQ QILISH. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 71–75. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364799>

13

G.B.Utepova, & A.O.Uzaqbaev. (2023). QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNDÁ JUMÍSSÍZLÍQ MÁSELESINIŇ ÓZINE TÁN ÓZGESHELIKLERI, XALÍQTÍ JUMÍS PENEN TÁMIYINLEWDE BASLÍ WAZÍYPA HÁM IS-ILÁJLAR. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 76–85. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364808>

14

Xalikova Muxabbat Akbar qizi, & Abdujalilolva Durдона Alisher qizi. (2023). THE INTERSECTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE LEGAL FIELD. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 86–93.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364810>

15

Akhmadjonov Avazbek. (2023). THESIS FOR THE ANALYSIS OF GRAMMAR ACTIVITIES. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 94–97.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364816>

16

Abdumutalova Omadoy Abdumuxtor qizi, & Raximova I. B. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN A MODERN LIFE AND FOCUS ON WOMEN IN EDUCATION. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 98–105.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8364823>

17

N.M. Goyibova, & G.M. Goyibova. (2023). CHATGPT IN THE EDUCATIONAL AND MEDICAL SPHERE. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 106–110. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364827>

18

Qodirov Bahodir Tursunovich. (2023). "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ZARURIYATI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 111–123.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382195>

19

Hamrayev Fazliddin Tojiddin o'g'li. (2023). AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVINING RAMZLARDA AKS ETISHI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 124–129. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8382204>

20

Кураязов Зарипбай Раматович, Ибадуллаев Базар Мамбетович, & Атажонова Султонпошша Худайшукировна. (2023). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА МУКИ ИЗ МЕСТНЫХ СОРТОВ ПШЕНИЦЫ И РЖИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 130–135.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382223>

21

Kalandarov Piyos Ibodullayevich, & Shermatova Xosiyat Narkamalovna. (2023). DEVELOPMENT OF A STRUCTURE AND ALGORITHM BASED ON NEURAL NETWORKS FOR THE DETECTION AND ANALYSIS OF UNDERGROUND DEPOSITS. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 136–145. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8382240>

22

Ergashov Nodirbek Shermukhamat ugli. (2023). SIMULATION TRAINING IN BASIC CPR: ENHANCING SKILLS AND IMPROVING OUTCOMES. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 146–151.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382248>

23

Izzatullayev Bobirjon Izzatullayevich. (2023). RAQAMLI DIPLOMATIYA AQSHNING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH ASOSIY VOSITASI SIFATI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 152–159. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8382295>

24

Rano Ismaylova. (2023). OILAVIY ZO'RAVONLIK O'Z JONIGA QASD QILISHNING OMILI SIFATIDA. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 160–165. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8382314>

25

Khatamov Ulugbek Altibayevich, & Khatamova Shahlo Altibayevna. (2023). BACTERIAL SCREENING OF SALIVA FROM POSTOPERATIVE WOUNDS IN CHILDREN WITH CONGENITAL ANOMALIES. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 166–172.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382333>

26

Hamroqulova Marjona Nabijon qizi. (2023). «ILIK», «QO'L» KOMPONENTLI SOMATIK FRAZEMALAR ("MAHBUB UL-QULUB" ASARI MISOLIDA). RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 173–177.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382344>

27

Muqumova Dilrabo Inatovna, Temirova Zohida Ilkhomjon qizi, & Rizaeva Shakhnoza Ashurovna. (2023). ENCOURAGING STUDENTS TO CREATIVE THINKING THROUGH ADAPTATION TO THE LEARNING PROCESS. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 178–191.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8396148>

28

Nimatova Moxinur Sobit qizi. (2023). INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA ANDRAGOGIK YONDASHUVLAR DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 192–203. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396152>

29

Sharipov Anvarjon Soliyevich, & Mamasoliyev Mirzabek Isomiddin o'g'li. (2023). QATLAMALI KO'PXILLIKLAR TOPOLOGIK AKSLANTIRISHLARI GRUPPASINING XOSSALARI HAQIDA. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 204–211. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396154>

30

Халилова Барчиной Расуловна, & Мусаева Олтиной Туйчиевна. (2023). РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПОЛОСТИ РТА В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 212–216. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396158>

31

Sherefetdinova Elvina Rustemovna. (2023). ANALYSIS OF THE USE OF SLANG AND JARGON IN ENGLISH. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 217–225. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396161>

32

I.U. Rakhmonov, & R.Sh. Kurbonova. (2023). THE PEDAGOGICAL PRINCIPLES AND EFFECTIVENESS OF UTILIZING CHATGPT FOR LANGUAGE LEARNING. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 226–243. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396163>

33

Qayumov Abdurasul Shonazarovich, Sattarkulov Lazizbek Abror o'g'li, Abduqahhorov Abdurohman Xasan o'g'li, & Tursinboyev Mashxurbek Zokirboyevich. (2023). MOVEMENT OF THE CLAY SOLUTION IN THE BORING PIPE AND DEFINITION OF CRITICAL SPEED OF THE SUSPENSION OF THE FIRM PARTICLE AT HORIZONTAL DRILLING. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 244–250. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396180>

34

Sattarkulov Lazizbek Abror o'g'li, Egamberdiyev Elmurod Abduqodirovich, & Sotvoldiyeva Yulduz Farxod qizi. (2023). GIDROFIL-GIDROFOB POLYMER KOMPOZITLARNING XOSSALARINI TAHLILI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 251–260. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396188>

35

Tishabayeva Irodaxon Rasulovna. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING MODDIY TEXNIK AHVOLI (1946-1990 YILLAR). RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 261–268. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396192>

36

Oljayev Dilshod Nurmurodovich, Xurshida SHodieвна Urunova, Bozorov Lochin Azamatovich, & Barakayev Muxriddin Bobosherovich. (2023). SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH UCHUN MAHALLIY XOM ASHYOLARDAN OLINGAN SORBENTLARNING MEXANIK MUSTAHKAMLIGINI ANIQLASH. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 269–275. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396194>

37

Z.A. Yuldashev, & N.O'. Abduxaliqova. (2023). PSIXOTROP DORI VOSITALARINI SOCHLARDA ANIQLASH. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 276–292. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396196>

38

Mamatova Sh.A, & Nizomova M.U. (2023). MAY MARVARIDGULI (CONVALLARIA MAJALIS) DORIVOR O'SIMLIGINING KO'CHATINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 293–300. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396198>

39

Mamanov Mehridin. (2023). SAMARQAND SHAHRINING TOPONIMIKASI VA AHOLISINING IJTIMOIIY HAYOTI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 301–307. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396200>

40

И.З.Янгибаева, Б.И. Эшанкулов, & Г.Д.Гаджибаева. (2023). ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТОҒ ОЛДИ МАЙДОНЛАРИДА ЭМАН ТУРКУМИ ВАКИЛЛАРИ УРУҒЛАРИНИ ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИ АНИҚЛАШ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 308–312. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396208>

41

Х.Т. Машрапов, & Б.И. Эшанкулов. (2023). ҚЎҶОН ДАВЛАТ ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ ШАРОИТИДА ХАНДОН ПИСТА ЎСТИРИШ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 313–317. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396214>

42

Б.И. Эшанкулов, М.У. Махамматова, & М.А. Охунов. (2023). АНДИЖОН ВА НАМАНГАН ВИЛОЯТЛАРИДА ЎСАЁТГАН БОДОМНИНГ ЭКОШАКЛЛАРИНИ ДАСТЛАБКИ БАҲОЛАШ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 318–323. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8396217>